

63.2  
M-54

MIRZAYEV BEKZOD NURALIYEVICH,  
MAJIDOV ANVAR SIROJIVICH

**MANBA HUNOSI**  
**XVI-XIX ASRNING BIRINCHI YARMASI**



63.2 PH9390  
M-54 Mirzayev B.  
Magidov A.

## Китобларни вақтида топшириш варағи

63,2  
M-521

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

MIRZAYEV BEKZOD NURALIYEVICH,  
MAJIDOV ANVAR SIROJIVICH

**MANBASHUNOSLIK**  
**(XVI-XIX ASRNING BIRINCHI YARMI)**

(5110600 – Tarix o`qitish metodikasi bakalavriat ta`lim yo`nalishida tahlisil olayotgan  
talabalar uchun o`quv qo`llanma)



TOSHKENT  
«Famus Press»  
2022

O'UK: 821.512.133.09(079.1)  
KBK: 83.3(5O')v6  
E - 78

Manbashunoslik (XVI-XIX asrning birinchi yarmi). Mirzayev B.N., Majidov A.S. – O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi T.: «Famus Press», 2022. – 116 bet.

#### Taqrizchilar:

**A.I. SAITQOSIMOV** – Jizzax viloyati “Istiqbol” mintaqaviy markazi direktori, falsafa fanlari doktori, professor,

**B. MIRKOMILOV** – JDPU Umumiy tarix kafedrasи professori, tarix f.n., dotsent

Mazkur o'quv qo'llanmada O'rta Osiyo xonliklarining XVI-XIX asr birinchi yarmiga qadar bo'lgan tarixini yorituvchi manbalarning qisqacha mazmuni, ularning mualliflari to'g'risida, shuningdek, qayd etilgan ma'lumotlarning ahamiyati bayon etilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma 5110600-Tarix o'qitish metodikasi bakalavriat ta'lif yo'naliishing “Manbashunoslik” fanidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etiladi.

В данном учебнике дается краткий обзор источников, освещающих историю среднеазиатских ханств первой половины XVI-XIX вв., об их авторах, а также значимость упомянутых сведений.

Это учебное пособие рекомендовано для по методики преподавание истории- 5110600 для бакалавриата, по предмету «Источниковедение».

This textbook provides a brief overview of the sources covering the history of the Central Asian khanates from the first half of the XVI-XIX centuries, about their authors, as well as the importance of the mentioned information.

This study guide is recommended for teaching methods of history, 5110600 for bachelor's degree, in the subject "Source Studies".

*O'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi qoshidagi “Gumanitar fanlar ta'lif yo'naliishi” bo'yicha o'quv-uslubiy komissiya majlisining 2022 yil 29 avgustdagи №5 sonli bayonnomasi asosida ma'qullangan.*

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligining 2022 yil 09 sentabrdagi № 302 sonli buyrug'iiga asosan nashrga tavsiya etilgan. (№ 302-0558)*

ISBN 978-9943-6352-5-8

© B.N.Mirzayev, A.S.Majidov 2022

© “Famus Press” 2022 yil.

## KIRISH

O'zbekistonning mustaqil taraqqiyotining zamonaviy bosqichida ilm-fan, ta'lif, texnika sohalarining integratsiyasi masalasiga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan, ta'lif jarayonida qo'llaniladigan o'quv adabiyotlarini yaratishda ta'lif va fan integratsiyasini e'tiborga olish zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida "yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish va ularni oliy ta'lif muassasalarining ta'lif jarayoniga keng tatbiq etish, oliy ta'lif muassasalarini zamonaviy o'quv, o'quv-metodik va ilmiy adabiyotlar bilan ta'minlash" hamda "oliy ta'lif muassasalarini ilmiy salohiyatini mustahkamlash, oliy ta'lifda ilm-fanni yanada rivojlantirish, uning akademik ilm-fan bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish, oliy ta'lif muassasalarini professor-o'qituvchilarining ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish" ishlari oliy ta'lif sifatini rivojlantirishdagi muhim vazifalar qatorida belgilangan. Shu nuqtayi nazardan muayyan fan sohasi olimlari, pedagog kadrlar, amaliyotchi mutaxassislar tomonidan hamkorlikda o'quv adabiyotlarini yaratish bugungi kun tartibiga qo'yilgan dolzarb masalalardan hisoblanadi. Xususan, manbashunoslik fani bo'yicha tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalar aynan shu muammolarni o'zida yoritishi lozim. Zero, 2017 yil 24-may kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2995-sonli qarorni imzoladi. Qarorga keltirilgan sharhda tushuntirilishicha, hujjat yosh avlodni vatanparvarlik va tarixga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash hamda O'zbekistonning jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan mamlakat sifatidagi xalqaro obro'-e'tiborini yanada mustahkamlash. boy yozma merosni saqlash, o'rganish va keng targ'ib qilish ishlarini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga yo'naltirilgan<sup>1</sup>.

O'zbekistonda asrlar davomida Markaziy Osiyo bo'yicha eng boy qo'lyozma meros jamlangan bo'lib, uning salmoqli qismi O'zbekiston Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Mazkur fond 2000-yilda noyob ilmiy va madaniy obyektlardan biri sifatida YuNESKOning Butunjahon madaniy merosi ro'yxatiga kiritilgan edi. Institutning qo'lyozmalar fondi oltita alohida bo'limdan tashkil topgan bo'lib, arab, fors, eski o'zbek tili va boshqa sharq tillarida bitilgan 26 ming jild qo'lyozma, 39 ming jild toshbosma kitoblar va 10 mingga yaqin tarixiy hujjatlardan tashkil topgan. Qaror bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti qadimiy qo'lyozmalar, tarixiy-madaniy ahamiyatga ega bo'lgan boshqa yozma manbalarni saqlash, o'rganish, ilmiy asosda tadqiq etish va targ'ib qilish bo'yicha mamlakatdagi yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasasi etib belgilangani uning dunyodagi yetakchi sharqshunoslik markazlaridan biri sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi. Shu bilan birga, qarorda Institutning ilmiy va tashkiliy faoliyatini

<sup>1</sup> Taraqqiyot yo'limizning shiddati oshaveradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisiga qilgan Murojaatnomasidan. // Xalq so'zi gazetası. 2018 yil 28 dekabr.

takomillashtirishga qaratilgan qator chora-tadbirlar ko'zda tutilgan. Jumladan, zamonaviy talablar asosida Institutning asosiy vazifa va faoliyatining ustuvor yo'nalishlari belgilab berilgan. Ulardan biri institut fondlarini saqlash va aholi qo'lida saqlanayotgan qo'lyozma va boshqa yozma yodgorliklarni xarid qilish hisobidan boyitishni nazarda tutadi.

Manbalar inson haqidagi gumanitar fanlarning obyektiv asosini tashkil qiladi. Tarixiy manbalar shartli ravishda 6 guruhga bo'linadi: yozma, ashyoviy, etnografik, lingvistik, og'zaki va kino-foto-fono hujjalalar. Tarixchilar shuningdek, geografiya, antropologiya kabi fanlarning ma'lumotlaridan ham foydalanadilar. O'rganilayotgan tarixiy manba ijtimoiy subyekt (inson yoki odamlarning bir guruhi) tomonidan yaratiladi va vaqt o'tishi bilan o'tmish haqidagi bilimlar manbasiga aylanadi. Tarixchining manba ustida ishslash jarayonida matn yaratuvchi va tadqiqotchi madaniyatlarimng o'zaro ta'siri ro'y beradi. Tarixchi faol tomon: u o'zaro ta'sirni tashkil qiladi. Manbaning mazmunini to'g'ri baholash va uning mohiyatini ochish uchun tarixchi manba vujudga kelgan davr tarixini yaxshi bilishi lozim. Tarixiy tadqiqot asosiga qo'yilgan manbalarni o'rganish tarixchining ishidagi birinchi va eng zarur bosqichdir. Bu jarayonda uning faktlardan iborat poydevori yaratiladi va keyinchalik uning ustida tarixiy tadqiqotning butun binosi quriladi.

O'quv qo'llanmada O'zbekiston tarixining so'nggi o'rta asrlar davriga oid arab-fors, turk tillaridagi qo'lyozma manbalar xronologik ketma-ketlikda berilgan bo'lib, ularning har biri alohida ta'riflangan. XIII-XVIII asrlardagi O'rta Osiyo tarixiga tegishli rus va Yevropa tillaridagi manbalar tavsisi alohida mavzu sifatida taqdim qilingan. Shu kunga qadar tayyorlangan darslik va o'quv qo'llanmalarda shu xronologik davrlashtirish borasida bir qancha urinishlar bo'lgan. Jumladan, 1992-yilda T.S. Saidqulov birinchilardan bu ishga qo'll urib, tarixshunoslik kontekstidagi "O'rta Osiyo xalqlari tarixining tarixnavisligidan lavhalar" (o'zbek, rus tillarida) darsligida manbashunoslik fani tarixini ham yoritib bergen. Keyingi nashr akademik B.Ahmedov qalamiga mansub boelib, uning 2001-yilda nashr etilgan "O'zbekiston tarixi manbalari" asari O'zbekiston tarixi manbashunosligi bo'yicha birinchi umumiy darslik maqomini oldi. Bakalavr ta'lim yo'nalishlari talabalari uchun maxsus A. Madraimov va G. Fuzailovalar tomonidan 2008-yilda chop etilgan "Manbashunoslik" va O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz tomonidan 2019 yilda nashr etilgan Manbashunoslik darsliklari O'zbekiston oliy o'quv yurtlari tarix fakultetlari bakalavriat yo'nalishlarining manbashunoslik, tarixshunoslik va arxivshunoslikka ixtisoslashgan kafedralari talabalari uchun mo'ljallangan. Mazkur o'quv qo'llanma O'rta Osiyo xonliklarining XVI-XIX asr birinchi yarmiga qadar bo'lgan tarixini yorituvchi manbalarning qisqacha mazmuni, ularning mualliflari to'g'risida, shuningdek, qayd etilgan ma'lumotlarning ahamiyati bayon etilganligi bilan e'tiborga loyiq. Ushbu o'quv qo'llanma O'zbekiston tarixi manbashunosligi bo'yicha oliy ta'lim muassasalari tarix va arxivshunoslik bakalavriat yo'nalishlari fan dasturlariga mos holda tuzilgan bo'lib, undagi mavzular bo'yicha jamlangan ma'lumotlar talabalarga atroflicha nazariy bilimlar berish, amaliy ko'nikmalar hosil qilishda katta ahamiyat kasb etadi.

# I BOB. O'RTA OSIYONING XVI-XIX ASRLAR BIRINCHI YARMI TARIXIGA OID YOZMA MANBALAR

## I.I. O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlarning muhim siyosiy-ijtimoiy voqealari va kitobat san'atining rivojlanishi

**Asosiy tayanch tushunchalar:** *Movarounnahr, Xorazm, Xuroson, Temuriylar, Shayboniylar, Ashtarkoniylar, siyosiy hayot, Mang'itlar, Hirot kitobat maktabi, xattotlik, Sultan Ali Mashhadiy, Muhammad Shayboniyxon, Shayboniylar saroy kutubxonasi, madaniy meros, kitob miniatyuralari, qo'lyozma, kutubxona*

Jo'chi
Shaybon (sulota asoschisi)
Bahodir sulton
Jo'chi Buqa
Badaqul
Munka Temur
Ilpon sulton
Qoonboy
Mal'mudxo'ja
Suronich sulton
Po'stod sulton
Ibrohim - Arabshoh
Davlatshayx
Abulxayrxon
Shohbudog' sulton
Shayboniyxon

XV asming 80—90-yillarida kuchayib ketgan tarqoqlik (masalan, Samarqand, Toshkent, Farg'ona va Hisoming markaziy hukumatga itoat qilmay qo'yishi) hamda toju taxt uchun kurash Temuriylar davlatining inqirozini tezlashtirdi. 1500 yili Shayboniyxon (1500—1510 yy.) boshliq Dashti Qipchoq o'zbeklari bundan foydalanib Movarounnahr, Xorazm, Xuroson va hozirgi Afg'onistonning shimoliy qismini, Badaxshon bilan birga bo'ysundirib, yangi davlat — Shayboniylar davlatiga (1500—1601 yy.) asos soldi. Lekin Shayboniylar ham mahalliy yirik yer egalarining ayirmachilik harakatiga barham berolmadilar. Shayboniyxon o'ldirilgandan (1510 y. 10 dekabr) keyin uzoq vaqt ichida mamlakatda parokandalik va tarqoqlik hukm surdi.

Ubaydullaxon Birinchi vafotidan (1539 y.) keyin esa Movarounnahrdha qo'sh hokimiyatçilik boshlandi: Samarqandda Abdulatif sulton, Buxoroda Abdulaziz sultonlar xon qilib ko'tarildilar (1540—1550). 1551—1556 yillari esa mamlakat toju taxt da'vogarları (Navro'z Ahmadxon, Burxon sulton, Abdullaxon Ikkinci va boshqalar) o'rtasida katta urush maydoniga aylantirildi. To'g'ri, Abdullaxon Ikkinci 1557 yili Buxoroni egalladi, uzoq vaqt davom etgan

qonli urushlardan (1557-1582 yy.) keyin Mavarounnahri birlashtirishga, Toshkent va Turkistonni bo'yusundirishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, u 1584 yili Badaxshon bilan Ko'lobni, 1588 yili Hirotni egalladi. 1594 yili esa Xorazmda o'z hukmronligini o'matishga muvaffaq bo'ldi. Qisqasi, Abdullaxon Ikkinchisi davlatni ma'lum darajada markazlashtirish va



mustahkamlashga muvaffaq bo'ldi, lekin uning vafotidan (1598 y. 8 fevral) keyin yirik yer egalarining ayirmachilik harakati yana kuchaydi. Uning o'g'li va taxt vorisi Abdulmo'minning hukmronligi olti oydan (1598 yil fevral-iyul oyлari) nariga o'tmadidi. Undan keyin xon ko'tarilgan Pirmuhammad Ikkinchisi (1598-1601 yy.) esa nomigagina xon hisoblanib, aslida hokimiyat nufuzli katta yer egalari qo'lliga o'tib qoldi. Bu vaqtida qozoq xonlari va sultonlarining Mavarounnahr ustiga bosqinchilik yurishlari kuchaydi. Ular 1599 va 1600 yillari ba'zi paytlarda Toshkent, Jizzax, Samarkand va Miyonqolgacha bostirib kirib, o'troq aholini talon-toroj qildilar. Janubdan esa Eron hukmdorlari yurtimizga tahdid sola boshladilar. Mana shunday bir sharoitda mavarounnahrlik yirik yer egalari ruhoniylar va zodagonlar bilan til birkirib, Jo'chixonning o'n uchinchisi o'g'li To'qay Temur naslidan bo'lgan Yormuhammadxonni taxta o'tqizdilar. Yangi sulola tarixda Ashtarkoniylar (1601—1785 yy.) nomi bilan mashhur. Ashtarkoniylar davrida mamlakatda tarqoqlik yanada kuchaydi.

Dashti Qipchoq ko'chmanchilari (asosan qozoq xonlari va qalmoqlar), Xorazm hukmdorlari (Abulg'ozixon va Anushaxon) Mavarounnahrga tez-tez bostirib kirib, uning shahar (Chorjo'y, Buxoro, Samarqand) va qishloqlarini talon-toroj qila boshladilar. Buning ustiga Eron va Shimoliy Hindiston hukmdorlari (Boburiylar)ning Buxoro xonligining ichki ishlariga aralashuvni kuchaydi. Mamlakatdagi beqarorlik Ubaydullaxon Ikkinchisi (1702—1711 yy.) hukmronligi yillarda shu darajaga borib yetdiki, ulus hukmdorlari (masalan, Balxda Mahmud-biy qatag'on) markaziy hukumatga bo'yusunmay qo'ydilar. Samarqand va Hisor viloyatlarida yuz

qabilasi, Shahrisabz va Qarshida kenagas va mang'it qabilalari xonga qarshi isyon ko'tardilar. Ubaydullaxon Ikkinch o'miga xon qilib ko'tarilgan Abulfayz (1711—1747 yy.) nomigagina xon bo'lib, hokimiyat bir guruh yirik boylar qo'liga o'tib qoldi. Eron hukmdori Nodirshoh (1736—1747 yy.) Movarounnahrdagi parokandalik va beqarorlikdan foydalanih, 1740-yilning kuzida Buxoro xonligini o'ziga bo'ysundirdi. Shundan keyin hokimiyat asosan Nodirshohning gumashtasi, mang'it qabilasidan chiqqan nufuzli katta yer egasi Muhammad Rahimbiy qo'liga o'tdi. Abulfayz o'dirilgandan keyin taxtga o'tqizilgan Abdulmo'min (1747-1751 yy.) va Ubaydullaxon Ikkinch (1751—1753 yy.) aslida «qo'g'irchoq» xonlar bo'lib, davlatning muhim ishlari Muhammad Raximbiyning qo'liga o'tib qolgan edi<sup>2</sup>.

1753-yilning 16-dekabrida Muhammad Rahimbiy hukumat tepasiga chiqarildi. Shu kundan boshlab Buxoro xonligida hokimiyat Mang'itlar sulolasi (1920 yilning sentyabr oyigacha hukmronlik qilgan) qo'liga o'tdi.

Tarqoqlik va beqarorlik natijasida XVIII asming boshida (1709 y.) Farg'onha ham Buxoro xonligidan ajralib chiqdi va bu yerda Qo'qon xonligi (1709-1876 yy.) tashkil topdi.

Shunday qilib, yaqindagina markazlashgan yaxlit bir mamlakat uch hukumatiga: Buxoro amirligi, Xiva xonligi va Qo'qon xonligiga bo'linib ketdi. Bundan podsho Rossiyasi ustalik bilan foydalandi va O'rta Osiyon bosib oldi.

Darhaqiqat, ko'chmanchi o'zbeklardan bo'lgan Shayboniyxon (1500-1510) 1499-yilda Movarounnahrni, Sulton Husayn vasotidan so'ng, ya'ni 1507-yilda Hirotni egallaydi. Xuroson avval shayboniylar (1500—1601), undan so'ng Eron safaviyalariga (1502—1736) o'tishi bilan Hirot o'zining avvalgi mavqeyini yo'qtolib, madaniy markaz Buxoro va qisman Samarcandga o'tadi. Bu holat kitobat san'atining rivojiga ta'sir qilmasdan qolmasdi. Ko'plab olim, shoir, musavvir va xattotlar Hirotdan boshqa shaharlarga ko'chib ketadi. Ana shu paytda Hirot kitobat san'ati ustalari qatori xattot Sulton Ali Mashhadiy (1437-1520) shogirdlari bilan Buxoroga kelib, Hirot kitobat maktabining an'analarini davom ettiradilar. Ularning O'rta Osiyo kitobat san'atining keyingi rivojiga qo'shgan hissalarini beqiyosdir. XV asr oxiri — XVI asrda Sirdaryodan to markazi Afg'onistongacha bo'lgan katta hududni egallagan shayboniylar sulolasi hukmronligi davrida XV asr o'rtalaridan Samarqandda faoliyat yuritgan temuriylarga xos kitobat san'ati maktabi o'z an'analarini davom ettirib keldi, Hirotdan kelgan ustalar o'z ijodi bilan mazkur davr madaniyatini boyitib bordi.

Muhammad Shayboniyxonning kelib chiqishi begona bo'Imagan, yoshligida Buxoroda ta'lif olib, turk, arab, fors tillaridan xabardor bo'lgan, xattotlik san'atini o'rgangan va she'rlar yozib turgan. Xorazmlik Muhammad Solihning (1455-1535) "Shayboniyoma" asari o'sha davrdagi o'zbek tilida yozilgan mashhur yirik tarixiy asarlardan biri hisoblanadi<sup>3</sup>. Shayboniylar saroy kutubxonasi haqida Hasan Nisoriy (XVI asr) "Muzakkir al-ahbob" nomli tazkirasida Erondan kelgan ustalarning kutubxonadagi faoliyati to'g'risida qisqacha ma'lumot keltiradi. Kutubxonaga turli davrlarda 3 nafar

<sup>2</sup> O'zbekiston tarixi. Ikkinch kitob. Toshkent, Donishmand ziyosi, 2021. — B. 56-57.

<sup>3</sup> O'zbekiston tarixi. Ikkinch kitob. Toshkent, Donishmand ziyosi, 2021. — B. 57-58.

kitobdor rahbarlik qilgan: Mavlono Sulton Mirak al-Munshiy, Mavlono Abdulloh al-Munshiy va Mir Husayn al-Husayniy an-Nasafiy. Ularning qo'l ostida uch musavvir va to'qqizta usta ishlagan. Mulla Muhammad Shodi "Fathnoma" ularming 1507-yillarga oid nusxasi (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi 5369-raqamli qo'lyozmasi) shayboniylar hukmonligining dastlabki davrlariga oid badiiy qoloyzma namunalardan hisoblanadi. Shayboniyxon valotidan so'ng 1533-yilgacha Samarqand, 1533-1539-yillarda Buxoro poytaxt deb tan olingan. 1540-1551-yillarda Samarqand va Buxoroning maqomi bir xil bo'lgan. 1520-1530-yillarda Buxoro shahrida kitobat san'atining rivoji Ubaydullaxon (1533-1540) nomi bilan bog'liq bo'lib, u Hirotgab necha marta yurishlar qilganda, u yerdan kitobat san'ati ustalarini olib kelgan. Shu davrdan Buxoro kitobat san'ati Hirot uslubi ta'siriga tushadi. Mirzo Muhammad Xaydar (1499-1551) Ubaydullaxon Birinchi to'g'risida shunday yozadi: "*Ubaydullaxon yetti qism birla xat futur erdi ... aning tiriklik vaqtida Buxorodagi fuzalo va bulag'olar, xaloyiq va aloyiqlarning hammasi Hirotdin Mirzo Sulton Husayn zamonin yod berur*".

XVI asr o'rtalarida Buxoroda Ubaydullaxonning o'g'li Abdulazizxon Birinchi (1540-1550) kutubxonasi faoliyatyrigan. Abdullaxoni soniy (1583-1598) hukmonligi davrida uzoq davom etgan urushlardan (1557-1582) so'ng Mavarounnahrn birlashtiradi, Toshkent va Turkistonni bo'ysundiradi, 1584-yilda Badaxshon va Ko'lob, 1588-yilda Hirot egallandi. Hirot ustalarining Buxoroda Abdullaxoni soniy kutubxonasi faoliyat O'rta Osiyo kitobat san'atining rivojiga ulkan hissa bo'lib qo'shildi. Kitobat san'ati ba'zan an'anaviy, ba'zan yangicha uslublarni 0'zlashtirgan holda rivojlanishni davom ettirdi. Bu davrdagi an'anaviylik Xuroson va Mavarounnahrga xos umumiy madaniy merosga, temuriylar davrining boy madaniyatiga qiziqishga asoslangan edi.

1520-1590-yillarda Buxoro kitob miniyaturlarining uch yo'nalishi qayd etilgan: Hirot uslubi, Hirot-Buxoro uslubi va Buxoro uslubi.

Kitobat san'atida yangicha uslublarning yaratilishiga 1570-1590-yillarda boshqa 0'lklalar bilan o'zaro siyosiy, iqtisodiy, madaniy aloqalar ham o'z ta'sirini ko'rsatdi.

XVI asrgacha 0'rta Osiyo san'atida fors madaniyatining ta'sirini kuzatish mumkin bo'lsa, safaviylar shia mazhabini rasmiy ravishda tan olgandan so'ng Eron bilan badiiy san'at sohasidagi aloqalarga chek qo'yildi. Qo'shni davlatlar, ayniqsa, Shimoliy Hindiston boburiylar davlati bilan badiiy aloqalar mahsuli bo'lgan yangi qoloyzmalar turkumi paydo bo'ladi. Buning sababi boburiylar asli Mavarounnahrdan bo'lganligi uchungina emas, O'rta Osiyo va shimoliy Hindiston hududlarida tarixiy taraqqiyotning sharoitlari, ijodkorlarning badiiy qarashlari va xalqning tafakkur doirasi bir-biriga yaqin ekanligi edi. 1570-1580-yillarda Abdullaxoni soniy va boburiy hukmdor Akbar (1556—1605) o'rtasida diplomatik aloqalar keng yo'liga qo'yildi. Natijada madaniy sohada shoirlar, olimlar, ustalar o'rtasida safarlar uyuşhtirildi. 0'sha davr O'rta Osiyo kitobat san'atida ham hind uslubiga xos jihatlar ko'zga tashlanadi<sup>4</sup>.

<sup>4</sup> Manboshunoslik. Toshkent, Turon-Iqbol, 2019. – B. 156-157.

XVI asrning oxirgi o'n yilligi Eron va Movarounnahr munosabatlarda o'zaro dushmanlik, harbiy to'qnashuvlar bilan izohlanadi. 1574-yilda Abdullaxoni soniy tomonidan Hirot to'qqiz oy qamal qilinadi. 1598-yilda uning 0'g'li Mashhadni vayron qilishi natijada Mashhad kutubxonasi, temuriylar va safaviylar qo'lyozmalarini Buxoroga olib kelinadi. Ayni vaqtida Movarounnahr qo'lyozmalarida Eronning ta'siri, xususan, Sherzo kitobat maktabi faoliyatining tugatilishi tufayli Sherzo uslubiga xos jihatlar ko'zga tashlanadi. XVII asrda ashtarxoniyarning (1601—1753) hokimiyatga kelishi mamlakatning ijtimoiy hayatida o'zgarishlarga sabab bo'lindi. XVII asrning birinchi yarmi va o'rtalarida madaniy sohada birmuncha ijodiy yutuqlarga erishildi, Samarqand va Buxoroda yirik qurilishlar bo'ldi (Registon, Labi hovuz), saroyda she'riyat, tarixnavislik, musiqa rivojlandi, kitobat san'atiga homiylik qo'llab-quwatlandi. Buxoroda ashtarxoniy Imomqulixon (1611—1641) kutubxonasida faoliyat olib borgan ikki kitob doming nomi ma'lum: Mirzo Yodgor kitobdor va Mirzo Husayn kitobdor. XVII asrning birinchi yarmida Buxoro kitobat maktabidagi ustunlik vaqtinchalik o'z o'mini Samarqand maktabiga bo'shatib bergen. Bu davrda Samarqandda Muhammad Murod Samarqandiy va Muhammad Shariflar ijod qilgan. Badiiy ijodda esa satira aks etgan realistik uslub ustun bo'lgan. XVII asr kitobat san'atining rivojlanish bosqichidagi yangi davr bo'ldi. Abdulazizxon Ikkinci hukmronligi davrida (1645-1680) saroy kutubxonasi ancha rivojlandi. Abdulazizxon Ikkinci saroy kutubxonasida yaratilgan qo'lyozmalar oldingilaridan ancha o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu davr kitobat san'atidagi o'ziga xoslik avvaldan mavjud badiiy yo'naliishlarni saqlab qolgan holda, temuriylar, safaviylar va hind uslublarining qorishganligida ko'zga tashlanadi. Badiiy qo'lyozmalar doirasini awalgidek Sharq she'riyatining mumtoz asarlari, tarixiy asarlari, ba'zan tabiiy fanlarga oid risolalar tashkil etgan. Shu bilan birga, xalq og'zaki ijodiga, afsonaviy yoki ibratomuz maishiy sujetlarga murojaat qilish ijodkorlar orasida keng yoyilgan. Mumtoz yo'naliishga amal qiluvchilar orasida esa romantic uslub ustun bo'lgan. Bu davrga kelib Buxoroda ko'plab hindlar yashay boshlagan. Ular qimmatbaho toshlar, attorlik mahsulotlari, matolar, bo'yoqlar, oltin iplar bilan savdo qilgan. Uchinchi yo'naliishda aynan hind uslubiga murojaat qilinib, kitobatda hind buyumlariga xos bezaklar o'z ifodasini topgan<sup>5</sup>.

XVIII asr O'rta Osiyo uchun, parokanda va beqaror vaziyat tufayli, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan inqiroz asri bo'ldi. XVIII asr oxiri va XIX asrlarda O'rta Osiyo hududi uchga, ya'ni Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklariga bo'lindi.

XVIII asr oxiri XIX asrdagi siyosiy barqaror vaziyat iqtisodiy va madaniy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Bu davrda Qo'qon, Toshkent kabi shaharlar madaniy, iqtisodiy markazlarga aylandi. XVIII asrdagi tanazzuldan so'ng XIX asrda kitobat san'ati rivojlanishi davom ettirildi. O'rta Osiyoning qadimiy ma'rifat markazlari - Buxoro va Samarqanddan tashqari, Xivada Muhammad Rahim I (1806- 1825) va Muhammad Rahim Ikkinci (1865-1910) homiyligida, Qo'qon xonliklari usta Muhammad Sharif Dabir boshchiligidagi kitobat san'ati rivojinining yangi davri boshlandi. Kitobat san'ati ustalari

<sup>5</sup> <https://hozir.org/nizomiy-nomidagi-toshkent-davlat-pedagogika-universiteti-v2.html?page=26>

qo'lyozma kitoblarni bezatishda o'ziga xos muvaffaqiyatga erishdi. Xalqning siyosiy qarashlaridagi o'zgarishlar qo'lyozma kitoblar uslubiga ta'sir ko'rsatdi. O'rta Osiyo o'zining tashqi aloqlarida Sharq o'lkalariga ko'proq e'tibor qaratishi natijasida qo'lyozma kitoblar bezaklarida bu O'lkalarning ta'siri sezila boshladi. An'anaviy kitob ayriboshlash davom etdi, qator Sharq mamlakatlarida kitob tayyorlash rivojlimdi, bu esa turli mamlakatlardan O'rta Osiyoga kitob yetkazib berilishini kuchaytirdi. O'rta Sharqning qator davlatlari uchun Bombey, Kanpur, Lakhnou, Lahor shaharlari kitob eksport qiluvchi markazlarga aylandi.

XIX asrda kelib, ayniqsa, O'rta Osiyoning Rossiya bilan iqtisodiy va siyosiy aloqlari kuchaya borgan sari madaniy hayotda yana o'zgarish ro'y berdi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil topishi kitobat san'atida yana bir yangi bosqichni boshlab berdi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagagi yangi o'zgarishlar O'rta Osiyo qo'lyozmalarining tashqi ko'rinishiga ta'sir o'tkazdi.

XVIII-XIX asrlarda yaratilgan qo'lyozmalar saviyasi va ishlatilgan ashylari bilan ajralib turadi. Zamон ko'п miqdorda arzon bo'lgan kitoblarni ishlab chiqarishni talab qila boshladi. Kitobni arzon qilish uchun yangi materiallarni ishlatish urf bo'ldi. Arzon materiallaming ishlatilishi qo'lyozma kitob sifatining buzilishiga olib kelmadи, balki o'sha davrga mos ravishda o'ziga xos uslub yaratildi. Qo'lyozma kitoblar bir xil o'lcham va ko'rinishga ega bo'ldi, badiiy bezatilish umumiylar darajasi butunlay tushib ketdi: ishlatilgan materiallar, ziynat va bezaklar o'rtamiyona, ammo yetarli san'at asari va ilm-fan uchun bemalol foydalansa bo'ladigan manba saviyasida yaratildi. Dastlabki va so'nggi varaq ko'rinishining soddalashuvi, ichki jilda bezakning yo'qligi, ancha arzon materiallardan qo'llanilganligi bu davr qo'lyozmalariga xos xususiyatdir. Charm muqovalar o'rnni yarmi charm muqovalar egalladi. Muqova jildi uchun bo'yalgan va loklangan qog'oz qo'llanildi. Charm muqovalar faqat Xorazmda yasalgan, boshqa hududlarda muqovaning o'zak qismi qoplamasi charmdan bo'lgan. Bu davrda ipak va yarmi ipak qog'ozlarni ishlab chiqarish to'xtatilgan bo'lib, qog'ozlar chigitli paxtadan tayyorlangan. Ko'proq fabrika qog'ozlaridan foydalanilgan XV-XVII asrlarda badiiy qo'lyozmalarni yaratishda turli mutaxassislar - qog'ozrez, xattot, lavvoh, muzahhib, musavvir, sahhoflarning mahorati va qunt bilan ishlashi talab etilgan. Bundan tashqari, hunarmandchilikning boshqa sohalarida mehnat qilgan oltin qazuvchilar, loklovchi pardozchilar, charmdan nafis bezak kesuvchilar, qog'oz, lok tayyorlovchilar va boshqa ustalar ham kitobat jarayoniga o'z hissalarini qo'shgan. Ularning kitob yaratishga qaratilgan jamoaviy faoliyati madaniy markazlar orasidagi ijodiy tajriba almashishlarga hamda ancha oldin qo'llanilgan an'analarga asoslangan holda amalga oshirilgan. Ijodiy mehnatdagi o'zaro izchillik va mutanosiblikning mavjudligi esa qo'lyozma kitob uslubidagi yagonalik, yaxlitlik, texnik jihatdan mukammallikni ta'minlagan<sup>6</sup>.

So'nggi yillarda mamlakatimizda boy ma'naviy merosimizning ajralmas qismi bo'lgan qadimgi yozma manbalarni o'rganish masalasi tez-tez urg'ulanadigan mavzuga aylandi. Prezidentimizning 2020-yil 16-apreldagi "Sharqshunoslik sohasida kadrlar

<sup>6</sup> Manboshunoslik. Toshkent, Turon-Iqbol, 2019. – B. 158-159.

tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida ajdodlarimizning ulkan ma'naviy, ilmiy merosini har tomonlama chuqr o'rganish bo'yicha aniq ko'rsatmalar belgilab berildi. Ayni paytda har biri o'ziga xos ilmiy-madaniy obida bo'lgan arab, fors, turkiy tillardagi manbalarni tadqiq etish, tarjima qilish, eng asosiysi, xalqimizga sof holda etkazish sharqshunoslar zimmasidagi dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyoda o'zining ilmiy salohiyati va raqobatbardosh kadrlari bilan peshqadam oliygohlardan biri hisoblanuvchi Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida bu boradagi amaliy ishlar yanada jadallahshmoqda.

O'zbekiston hududida qadim ma'naviyat qaror topib, o'z davri uchun yuksak va rivojlangan madaniyat mayjud edi. Sharq qo'lyozmalarini saqlovchi dastlabki kutubxonalar arablar istilosidan ko'p yillar muqaddam iqtisodiy va madaniy jihatdan yuqori darajada rivojlangan.

Darhaqiqat, yangi O'zbekistonda xalqimizning uzoq hayotiy tajriba, tushuncha va qadriyatlarga asoslangan o'lmas merosimizni o'rganish ma'naviyat va ma'rifatning ajralmas qismi sifatida ustuvor vazifalarga aylandi. Tarixda ikkita Renessansning asosini tashkil etgan ilm-fan va ma'rifat masalasi bugungi hayotimizda ham niyoyatda katta ahamiyatga ega bo'lib, aynan uning negizida uchinchi Renessansga poydevor qo'yilishi davlatimiz rahbari tomonidan 2021 yilning dolzarb vazifalaridan biri sifatida belgilandi. Bu esa, avvalo ilmiy merosimizni chuqr o'rganish, nimalarga asoslangan holda qadam qo'yishimizda tayanch nuqta sifatida ilmiy asoslangan targ'ibotlarni olib borish, qo'lyozma manbalar asosida tariximiz, madaniyatimiz, qadriyatlarimiz, adabiyotimiz – madaniyatimiz ildizlarini tadqiq etish hisoblanadi.

Yoshlarimiz orasida bu oson bo'Imagan ishga qiziqishi, qobiliyati bor iqtidorlilarning borligi quvonarli hol. Qo'lyozmalarni tarixiy, falsafiy, adabiy, matnshunoslik va manbashunoslik nuqtai nazaridan o'rganib, ochilmagan yangi qirralarni xalqimizga namoyon etish, yangi asarlarni ilmiy iste'sodaga kiritishida ishtiyoq bilan ishlayotganlar safi kengayib bormoqda. Aynan shunday yoshlar ilmiy natijalari, chiqishlari bilan ma'naviyatimiz, ma'rifatimizning targ'ibotchilarini bo'ladi. Prezidentimiz bir qator chiqishlarda hadis ilmining sultonni Imom Buxoriy, kalom ilmi asoschisi Abu Mansur Moturidiy va uning davomchisi Abu Muin Nasafiy, buyuk alloma Bahovuddin Naqshband kabi ajdodlarimizning ijodini chuqr o'rganish masalalariga e'tibor qaratib, yangi O'zbekistonni barpo etishda ota-bobolarimizning ma'naviy, ilmiy jasoratlari mahsuli o'laroq yaratilgan bebaho asarlar bizga dasturulamal bo'lmog'i lozimligi haqida ta'kidlagan.

## I2. O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar birinchi yarmi tarixiga oid manbalar: fors-tojik tilidagi manbalar

*O'rta Osiyoning XVI-XIX asrning birinchi yarmini o'rganishda mazkur davrda yaratilgan asarlar anchagini. Fors-tojik va turkiy tillarda yozilgan tarixiy asarlarda hukmdorlarning hayoti va faoliyati, ularning siyosiy tadbirlari, harbiy yurishlari, din peshvolari bilan munosabatlarining yoritilganligi bilan muhim ahamiyatga ega bo'lganligi haqida ma'lumot beruvchi quyidagi asarlarga to'xtalib o'tilinadi:*

**Mulla Shodiy (1447 yilda tug'ilgan) "Fathnoma" asari.** Hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar juda kam. Shayboniyxonning inisi Mahmud Sulton xizmatida bo'lganligi va uning topshirig'i bilan o'zining "Fathnoma" dostonini yozganligi, mazkur asarni tamomlagan yili (1502) 55 yoshda bolganligi ma'lum, xolos.

### «Fathnoma»

"Fathnoma" fors tilida yozilgan tarixiy poema bo'lib, unda Shayboniyxon tavalludidan (1451) to ko'chmanchi o'zbeklar tomonidan Samarcandning istilo etilishigacha (so'nggi marta 1501-yil iyun oy) Dashti qipchoq, Xorazm va Movarounnahrda sodir bo'lgan asosiy ijtimoiy-siyosiy voqealar talqin etiladi. Shuningdek, Xorazm va uning Urganch, Vazir va Adoq singari shaharlari, Dashti qipchoqning aholisi, xususan mang'itlarning turish-turmushi, shuningdek, Shayboniyxon askarlarining Turkiston, Andijon, Buxoro, Dabusiya va Qarshi viloyatlarini ishg'ol qilganliklari haqida qimmatli ma'lumotlar mavjud.

Asar hozircha bironsta tilga tarjima qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari ko'pgina mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi. Rossiya va MDH mamlakatlarida "Fatxnomा" dostonining beshta qo'lyozmasi mavjud. Bulardan ikkitasi Sankt-Peterburg Davlat universiteti kutubxlnasida, ikkitasi Dushanbeda va bittasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida (Inv. № 5369) saqlanadi. Toshkentdagi qo'lyozma juda qimmatli bo'lib XU1 asrda ko'chirilgan va unda turli mavzudagi 9-ta ajoyib miniatyura bilan bezatilgan<sup>7</sup>.

### "Shayboniyroma"

"Shayboniyroma" fors tilida bitilgan she'riy doston bo'lib, uning muallifi atoqli shoir va tarixnavis olim Kamoliddin Binoiydir (1453-1512 yy.). Uning asli ismi Ali ibn Muhammad al-Haraviy. Ko'proq Kamoliddin Binoiy nomi bilan mashhur. Hirotda ko'zga ko'ringan me'mor ustod Muhammadxon Sabz oilasida dunyoga kelgan. O'shlik paytlari og'ir sharoitda, Shohruh Mirzo vafotidan keyin mamlakatda kuchayib ketgan toju taxt uchun kurash va o'zaro urushlar sharoitida kechdi<sup>8</sup>.

Ma'lumki, 1458 yili Qora qo'yunlular sulolasidan bo'lgan Jahonshoh (1438-1467 yy.) Xurosonga bostirib kirdi va Hirotni egalladi. Lekin oradan ko'p vaqt o'tmay, 1459 yili Temuriyzoda Sulton Abu Said Mirzo qo'shinlarining tazyiqi ostida poytaxt shahar va

<sup>7</sup> Manbashunoslik. Toshkent, Turon-Iqbol, 2019. – B. 219-220.

<sup>8</sup> Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. Metodik qo'llanma. Toshkent, Bayoz, 2021. B. 7-8.

mamlakatni bo'shatib chiqishga majbur bo'ldi. Ushanda Jahonshoh yuz nafer hunarmand oilani o'zi bilan birga Fors viloyatiga olib ketdi. Bular orasida me'mor Muhammad Sabz va uning oilasi qariyb uch yil Sherozda istiqomat qilib, 1461 yili yana Hirotg'a qaytib keldi.

Manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, Kamoluddin Binoiy keng ma'lumotli kishi bo'lib, she'riyat, insho, ilohiyot, musiqa va tarix ilmlarini chuqur bilgan. Bundan tashqari u me'morchilik san'atida ham o'z zamonasining peshqadamlaridan hisoblangan. Muhammad Sabz va uning o'g'li ishtirokida qurilgan binolar Hirotda va mamlakatning boshqa shaharlariда juda ko'p bo'lgan. Masalan, 1481 yili hozirgi Afg'onistonning Mozori sharif shahrida, eski nomi Xoja hayron, Ali ibn Abu Tolib (656-661 yy.) mozori tepasiga qurilgan muhtasham maqbara va boshqa binolar shular jumlasidandir. Shoир va olimning "Binoiy" deb taxallus tanlashi ham mana shundandir.

Binoiy oradan ko'p vaqt o'tmay Tabrizga kelib qoldi va 1492 yilga qadar Sulton Ya'qub Oq Qo'yunlu (1478-1490 yy.) saroyida xizmat qildi. 1492 yili u yana Hirotg'a qaytdi. 1495 yili ayrim sabablarga ko'ra, o'zining so'zlariga qaraganda, ba'zi hasadgo'ylarning ig'vosi tufayli, Samarqandga ketib qoldi.

Binoiy dastlab xoja Ubaydulla Ahrorning to'ng'ich o'g'li va sulukda vorisi xoja Qutbuddin Yaxyo, so'ng Zahiriddin Bobur, undan keyin 1501 yili to umrining oxirigacha, Shayboniyxon huzurida uning saroy shoир va tarixchisi bo'lib xizmat qildi.

1507 yili Binoiy Shayboniyxon bilan birga Hirotg'a keldi va 1510 yilgacha ona shahrida istiqomat qildi. 1511 yili shaharga Ismoil Safaviy qo'shinlari yaqinlashishi bilan, u yana Movarounnahrga ketib qoldi va Qarshi shahrida kun kechirdi. Kamoluddin Binoiy 1512 yili Qarshi mudofaachilar safida turib shaharni Safaviylardan himoya qildi va o'sha jangda halok bo'ldi.

Kamoliddin Binoiy iste'dodli shoир va ulkan tarixshunos olim sifatida tarixda qoldi. U Markaziy Osiyo, O'zbekiston va Qozog'istonning XV asrning so'nggi choragi va XV asrning boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda alohida qiymatga ega bo'lган "Shayboniyona" nomli tarixiy dostonini yozdi.

Binoiyning "Shayboniyona" asari ham "Tavorixi guzida, nusratnoma" va Mulla Shodiyning "Fatxnama" asarlari bilan bir rejada yozilgan bo'lib, Shayboniyxon tavalludidan to Dashti qipchoq o'zbeklari tomonidan Movarounnahr va Xorazmni 1505 yili bo'ysundirilishiga qadar zu hududda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida hikoya qilinadi. Asar 1505-15-7 yillari orasida yozilgan.

"Shayboniyona"da 1450-1505yillar orasida yuz bergen ijtimoiy-siyosiy voqealar qisqa, lekin aniq bayon etilgan. U muhim geografik, masalan, Sirdaryoning o'rta oqimida joylashgan Sabron, Sig'noq, Arquq, O'tror, Yassi, O'zgand, Oqqo'rg'on va Xorazmga tobe shaharlardan Urganch, Vazir, Buldumsoz, Adoq va boshqa joylar haqida hamda etnografik, masalan Dashti qipchoqlik o'zbek qabilalari va ularning ijtimoiy-siyosiy

hayotdagi mavqeい haqidagi dalillarga boy asardir. Bundan tashqari, asarda Shayboniy amirlar va askarlarining faoliyati haqida muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin<sup>9</sup>.

“Shayboniyona” asari matni chop etilmagan. Lekin uning qo'lyozma nusxalari ko'p tarqalgan. Faqat O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalari xazinasida yetti mo'tabar nusxa mavjud. Bulardan biri, inv.№ 844, eng qadimgi bo'lib, Shayboniyxon hayot chog'ida uning shaxsiy kotibi Muhammad Mo'min tarafidan ko'chirmlgan, ayrim satrlari esa Shayboniyxonning o'z qo'li bilan ko'chirilgan. Yana bir e'tiborli qo'lyozma raqami № 3422 bo'lib, ushbu asarning xorazmlik mashhur tarixchi va tarjimon Muhammad Yusuf Bayoni (1858-1923 yy.) tomonidan qilingan o'zbekcha tarjimasidir. Kitobdan ayrim parchalar rus tilidagi majmualarda e'lon qilingan.

### “Mehmonnomayi Buxoro”

“Mehmonnomayi Buxoro” nomli O'zbekiston va Qozog'iston, balki Markaziy Osiyoning XV asr II - yarmi –XVI asr boshlаридаги воqealar bayoni mavjud qimmatli tarixiy asar ijodkori Fazlulloh ibn Ruzbexondir. Uning to'liq ismi Fazlulloh ibn Ro'zbexon al-Isfahoni bo'lib, ko'pincha xoja Mullo nomi bilan mashhur bo'lgan. Ruzbexon 1457 yili Fors viloyatining Xunji qishlog'ida tavallud topgan. Otasi Jaloluddin Ruzbexon yirik ilohiyot va fiqh olimi, mansabdar bo'lgan.

Fazlulloh ibn Ruzbexon asosiy ma'lumotni Isfahon maktablari va madrasalaridan birida oldi, so'ng bilimini yanada kengaytirish va chuqurlashtirish maqsadida ikki marta 1474 va 1482 yillari Arabistonga bordi va yirik ilohiyot olimi shayx Jamoluddin Ardastoniy (1474 yili vafot etgan) hamda misrlik mashhur tarixshunos va tilshunos olim Shamsuddin Muhammad as-Saqaviy (1427-1497 yy.)dan ta'lim oldi.

Xullas, Fazlulloh ibn Ruzbexon o'rta asr fanining birmuncha sohalarini, xususan, ilohiyot, fiqh, falsafa, tarix va Sharq adabiyotini keng va chuqur egallagan olim bo'lib yetishgan. Bu hol uning Sulton Ya'qub Oq quyunlu (1479-1490 yy.), Sulton Husayn Mirzo (1470-1506 yy.) Shayboniyxon, va, nihoyat Ubaydullaxon saroyida zo'r extibor qozondi va xizmat qildi. Bunda tashqari va eng muhim, u bir necha san sohalarida yirik asarlar yozib qoldirdi.

Fazlulloh ibn Ruzbexon “Halli tajarrid” (“Abstraktsiyaning hal etilishi”), “Ta'liqot bar muxolot” (“Aqlga sig'madigan (narsalar)ning izohi”), “Badi' uz-zamon fi qissayi Xayy ibn Yaqzon” (“Xayy ibn Yaqzon” qissasida zamon badialari”), “Tarixi olamoroyi Aminiy” (“Aminiyning olamga bezak bo'luchchi tarixi”), “Ibtol najh al-botil va axmol kashf al-o'til” (“Noto'g'ri yo'ldan voz kechish va bid'atni inkor etish”), “Suluk al-muluk” (“Podshohlarning xulq-atvori haqida (risola)”) va “Mehmonnomayi Buxoro” nomli asarlarni yaratgan.

1509 yili yaratilgan “Mehmonnomayi Buxoro” asari Muhammad Shayboniyxonning 1508-1509 yil qish oylarida qozoq sultonlari Jonish Sulton, Ahmad Sulton va boshqalarning ulusi ustiga uyuştirgan harbiy yurishi tarixini bayon etadi. Bu yurish

<sup>9</sup> Madraimov A., Fuzailova G. Manboshunoslik. Toshkent, O'zbekiston faylasuflar milliy jamiyat nashri, 2008. – B. 209-210.

Fazlulloh ibn Ruzbexon keltirgan ma'lumotlarga qaraganda, mazkur sultonlarning 1508 yilning kuzida va 1508-1509 yilning qish oylarida Movarounnahrning o'troq tumanlari ustiga qilgan talonchilik xurujlariga javoban u.shtirilgan. Fazlulloh ibn Ruzbexon bu rishda shaxsan ishtirot etgan, yuz bergan voqealarning ko'philigini o'z ko'zi bilan ko'rgan, ba'zilarini esa xon va uning yaqin kishilaridan eshitgan. Asar XV asrning ikkinchi yarmiga oid, shuningdek, o'zbek va qozoq xon va sultonlarining kelib chiqishi hamda ularning o'zaro munosabatlari haqidagi voqealar esa Shayboniyxonning qo'lida bo'lган "Nasabnomा" yoki "Tarixi Humoyun" deb ataluvchi kitob asosida yozilgan.

"Mehmonnomayi Buxoro" asarining ko'lyozma nusxalari kam. Hozirgacha dunyoda uning faqat ikkita nusxasi borligi aniqlangan. Ulardan biri muallif dastxati bo'lib, O'Z FA Sharqshunoslik institutida 1414 tartib raqami ostida saqlanmoqda. Ikkinchisi Turkiyada, "Nuri Usmoniya" kutubxonasiga qarashlidir (Tartib raqami 3431). Ushbu qo'lyozma asosida asar matnini eron olimi Manuchehr Setude 1962 yili chop etgan. Ruscha qisqartirilgan tarjimasini R.P.Jalilova Moskvada 1976 yili nashr etgan.

Asarning biz uchun qimmati shundaki, unda Dashti qipchoq. Turkiston va qozoq ulusi geografik holati, o'zbek va qozoqlarning kelib chiqishi, ularning etnik tarkibi, turmushi, urf-odati, shuningdek, boylarning xo'jaligidagi qul mehnatidan foydalanish hollari haqida benihoyat qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Unda Gayboniyxonning qozoqlar ustiga yurishini g'ayridinlar ustiga yurish deb oqlashga harakat qilingan.

#### **"Habib us-siyar fi azbor afrod ul-bashar" va Fiyosiddin Xondamirning tarixiy asarlari**

"Habib us-siyar fi azbor afrod ul-bashar" ("Inson xabarlar va fardlarida do'stning tarjimai holi") nomli mashhur tarixiy asar muallifi Fiyosiddin Xondamirdir (1475-1535 yy.). Uning to'liq ismi Fiyosiddin Muhammad ibn xuja Burxoniddindir. Otasi xuja Humomiddin Muhammad Temuriylardan Sulton Mahmud Mirzo (1459-1494 yillari Chag'onyon, Huttalon, Qunduz, Bag'lon va Badaxshon hokimi)ning vaziri bo'lган. Ona tarafidan tarixchi Muhammad Mirxon nabirasidir.

Xondamir 15-16 yoshligi chog'ida Alisher Navoiyning e'tiborini qozonadi va uning kutubxonasiga xizmatga qabul qilinadi. U to Navoiy vafotiga qadar, yaeni 3 yanvar 1501 yilgacha xizmatda bo'ldi va boy kutubxonasiga mutasaddilik qildi. Xondamir o'zining keng va chuqur ma'lumotliligi, ilm-fanga chanqoqligi va salohiyati bilan ko'plarning tahsiniga sazovor bo'ldi. Uning haqida Alisher Navoiyning "Majolis un-nafois" tazkirasida mana bularni o'qiyimiz: "Mavlono Xondamir Mirxonning farzandidir va salohiyatli yigitdir. Tarix ilmida mahorati bordir..."<sup>33</sup>

Alisher Navoiy vafot etgandan keyin Xondamir mamlakatda kuchayib ketgan o'aro kurash, ayniqsa saroy afsiga mingan fmsqu fujurlar oqibatida Balxga ketib qoldi va Badi'uzzamon mirzo (1496-1506 yillari Balx hokimi, 1517 yida vafot etgan)ning shaxsiy krtib sisfatida xizmatiga kirdi. 1507 yili Hirot Shayboniyxon tomonidan ishg'ol etilgandan keyin u Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga ketib qoldi. 1512 yili Bobur

Movarounnahrda siqib chiqarilgach, Xondamir Garjistonga bordi va to 1514 yilgacha Pasht qishlog'ida istiqomat qildi. U asosan ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'ldi.

1514-1517 yillari Xondamir Balx uchun kurash olib borgan Badi'uzzamon mirzoning o'g'li Muhammad Zamon bilan birga bo'lib, uning kotibi sifatida xizmat qildi. Muhammad Zamon Safaviylardan yengilgach, Xondamir yana Garjistonga qaytib bordi va ilmiy faoliyatini davom ettirdi.

1521 yili Xondamir vazir Habibullo Sovajiyning taklifi bilan Hirota qaytib bordi va uning topshirig'i bilan o'zining yirik tarixiy asari "Habib us-siyar"ni yozishga kirishdi. Oradan olti yil o'tgach, 1527 yilning iyuo oyida Xondamir Hirotni tark etdi va bu safar Hindistonga ketib qoldi. Qishni u Qandahorda kechirdi va 1528 yilning 17 sentyabrida Agraga kelib tushdi va Bobur xizmatiga qabul qilindi. Bobur vafotidan so'ng uning to'ng'ich o'g'li va taxt vorisi Humoyun (1530-1542, ikkinchi marta 1555-1556 yy.) bilan birga bo'ldi. Tarixchi Dehlida vafot etdi va vasiyatiga ko'ra mashhur Nizomuddin Avliyo mozorida Amir Xusrav yoniga dafn etildi.

Xondamir sermaxsul olim edi. Movarounnahr, Turkiston, Yaqin va O'rta Sharq xalqlari tarixi va madaniyatiga oid o'nga yaqin asar yozib qoldirgan. "Xulosat ul-axbor" ("Tarixlar (xabarlar) xulosasi"), "Maosir ul-muluk" ("Podshohlar asrdoshlari"), "Nomayi nomiy" ("Atoqli maktublar"), "Makorim ul-axloq" ("Namunali xulq") va "Habib us-siyar" shular jumlasidandir.

Xondamirning ilmiy merosida "Habib us-siyar" nomli yirik tarixiy asari alohida o'r'in tutadi va Movarounnahr hamda Xurosonning XV asr oxiri va XVI asrning birinchi choragi dagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda muhim va qimmatli manbalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Asar 1521-1524 yillar orasida yozilgan. Lekin olim Hindistonda turgan yillari ham asari ustida muntaxam ish olib bordi, uni yangi dalillar bilan boyitdi, tahrir qildi. Kitob to'la ravishda 1529 yili yozib tamomlandi.

"Habib us-siyar" umumiy tarix yo'nalishidagi asar bo'lib, muqaddima (iftitoh), xotima (ixtitom) va uch jild (mujallad)dan iborat. O'z navbatida har bir jild to'rt qism (juz)ga bo'linadi. Asarning I-II- jiddlari amda III- jildning 1-2- qism, juzlari Turkiston xonlari, Chingizxon va uning Mo'g'uliston, Dashti qipchoq, Movarounnahr va Eronda hukmronlik qilgan avlodni, Mamlyuklar<sup>34</sup>, Kirmon Qlraxitoylari, Kartlar va Xuroson sarbadorlari tarixini o'z ichiga oladi. III - jildning 3- va 4- qismlari, juzlari esa yangi bo'lib, Xuroson va Movarounnahrning XV asrning 90- yillaridan to 1524 yilgacha bo'lган ijtimoiy-siyosiy ahvolini chuqr va atroflichcha bayon etadi.

"Habib us-siyar" asarida katta yer egaligi, iqtisodiy ahvol, tinimsiz urushlar tufayli vujudga kelgan sharoit to'g'risida ayrim, diqqatga sazovor dalillar va ma'lumotlarni uchratamiz. Masalan, asarda o'z aksini topgan 1498 yilgi Samarqand qamali paytidagi shahar xalqining ayancli ahvoli, 1512 yilgi Safaviylar tomonidan 7:25arshi shahrida uyuştirilgan qirg'in-qatl om, 1514, 1515 yillari Xurosonda yuz bergen qahatchilik va ochlik haqidagi ma'lumotlar ana shular jumlasidandir.

Xondamirning ushbu asarida muhim ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga oid, kr egaligi, tarxonlar, suyurg'ol egalari va ularning jamiyatda tutgan mavqei, Temuriylar davlatining ma'muriy tuzulishi haqida qimmatli ma'lumotlar bor. Shuningdek, asar etnografik va geografik ma'lumotlarga ham boydir.

"Habib us-siyar" asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Asarning matni 1857 yili Bombay shahrida va 1954 yili Tehronda chop qilingan. Undan ayrim parchalar rus, frantsuz va ingлиз tillarida turli to'plamlarda e'lon qilingan.

### Mirzo Muhammad Haydar Ayoziy. "Tarixi Rashidiy"



"Tarixi Rashidiy" (1544-1546 yillarda Kashmirda yozilgan) mashhur asar muallifi Boburning kichik xolavachchasi Mirzo Muhammad Haydar bo'lib, uning otabobolari O'rtubu, Po'lodchi, Xudoydod, Said Ahmad, Sonsiz Mirzo, Muhammad Haydar, Muhammad Husayn turklashgan mo'g'ul urug'laridan dug'lot (mo'g'ulcha "dog'olot"-cho'loq) qabilasiga mansubdir. Ular Mo'g'uliston xonlari, Chig'atoylar davrida ulusbegi, Koshg'ar hokimi lavozimida turganlar. Olimning otasi amir Muhammad Husayn bir vaqtlar Andijonda Umarshayx Mirzo, so'ngra Toshkent hokimi Sulton Mahmudxon (1487-1508 yy.) xizmatida bo'lgan. U 1495-1503 yillari ana shu Sulton Mahmudxon nomidan O'rategani idora qilgan.

1503 yili Sulton Mahmudxon va Sulton Ahmadxon Aksi atrofida Shayboniyxon qo'shnirlari tomonidan tor-mor keltirilgani va asir olinganini eshitib, amir Muhammad Husayn Qorateginga, undan Qunduz, so'ng Hirota, Sulton Husayn huzuriga qochib bordi. Muhammad Husayn ko'p o'tmay Kobulga, Bobur Mirzo huzuriga keldi. 1507 yilgi Boburga qarshi fitnada ayblanib, yana Hirota qochib bordi. 1508 yili Shayboniyxonning amri bilan Muhammad Husayn qatl etilgan.

Muhammad Haydar 1500 yili Toshkentda tug'ildi. Otasining o'ldirilganidan keyin Muhammad Husaynga sodiq kishilar uni birmuncha vaqt Buxoroda asradilar, so'ng Badaxshonga olib borib qarindoshi Sulton Uvays Mirzoning, Xon Mirzo deb atalgan, qo'liga topshirdilar. Muhammad Haydar keyinchalik Kobulga keldi va Bobur xizmatida 1512 yilgacha bo'ldi. 1512 yil kuzida u Andijonga, Sulton Sa'idxon huzuriga keldi va u bilan qo'shilib Koshg'arga ketib qoldi. Sulton Sa'idxon ko'p o'tmay bu yerda Abubakr dug'lot ustidan g'alaba qozondi va Koshg'ar hamda O'rkanjni qo'lg'a kiritishga muvaffaq bo'ldi.

Muhammad Haydar 1533 yilgacha, ya'ni Sulton Sa'idxon vafotiga qadar, uning xizmatida bo'ldi. Dastlab xonzoda Abdurashidxonga tarbiyachilik-otalik qildi, so'ng yirik harbiy bo'linmalarga qo'mondonlik qildi va xonning Badaxshon, Lodak, Kofiriston va Tibet ustiga qilgan harbiy yurishlarida faol ishtirok etdi.

Otasi o'rniqa o'tirgan Abdurashidxon (1533-1570 yy.) dug'lot amirlarini ta'qib ostiga oldi, ularning ba'zilarini qatl etdi. Bularning orasida Muhammad Haydarning tog'asi Said

INV №	149390
AXBOROT DEGUSI MARKAZI	

Muhammad mirzo va qarindoshlarining ko'pchiligi bor edi. Tibetda bo'lgan Muhammad Haydar bundan xabar topib, Badaxshon tarafga qochdi va ko'p mashaqqatlardan keyin Kubulga, Bobur Mirzoning o'g'illaridan Komron Mirzo huzuriga keldi, so'ng u yerdan Agraga, Humoyun podshoh huzuriga bordi va uning xizmatiga kirdi.

Muhammad Haydar 1541 yili, Humoyunning harbiy yordami bilan, Kashmirni bo'ysundirdi va u yerda qariyb 10 yil hukmonlik qildi. U 1551 yili tog'lik qabilalarning biri bilan bo'lgan to'qnashuv paytida halok bo'ldi.

Muhammad Haydar zamonasining o'qimishli va keng ma'lumotli kishilaridan edi. Boburning guvohlik berishiga qaraganda, u durustgina shoir, xattot, rassom, shuningdek, nayza va kamon yasovchi usta bo'lgan. Muhammad Haydarning bizning zamonamizgacha ikki yirik asari yetib kelgan. Bulardan biri "Jahonna" deb atalib, ertak tarzida yozilgan. Uning yagona qo'lyozmasi Germaniyaning Berlin shahri kutubxonalaridan birida saqlanmoqda.

Olimning ikkinchi yirik va mashhur asari "Tarixi Rashidiy"dir. Kitob ikki qism, davtardan iborat bo'lib, birinchi qismida Mo'g'uliston xalqlarining tarixi Tug'luq Temur (1348-1363 yy.)dan to Abdurashidxonning taxtga o'tirgani (1533 y.)gacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

Asarning birinchi davtari turli naql-rivoyatlar, shuningdek, O'qut Hamaviyining "Mo'jam ul-buldon", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Rashiduddinning "Jome' ut-tavorix", Jamol Qarshiyning "Mulhaqot us-suroh", Sharafuddin Ali Yazdiyining "Zafarnoma", Mirzo Ulug'bekning "Tarixi arba' ulus" va nihoyat, Abdurazzoq Samarqandiyning "Matla' us-sa'dayn" kitoblaridagi ma'lumotlar asosida yozilgan. Lekin unda ham Markaziy Osiyoning XIV-XV asrlardagi ijtimoiy-siyosiy hayotiga oid yangi, asl nusxada bo'ladijan ma'lumotlar ko'p. Qolaversa, birinchi daftар Koshg'ar, Qozog'iston, shuningdek, Movarounnahr va Turkistonning XIV-XVI asr boshlaridagi siyosiy tarixini mukammal qamrab olishi bilan qimmatlidir.

Ikkinci daftар birinchisidan keskin farqli o'laroq, esdalik, xltiralar tarzida yozilgan bo'lib, Koshg'ar, Movarounnahr, Afg'oniston hamda Shimoliy Hindistonning XVI asrning birinchi yarmidagi tarixini o'rganishda asosiy va qimmatli manbalardan hisoblanadi.

Muhammad Haydar va uning "Tarixi Rashidiy" asari o'tgan asrning o'rtalaridan beri ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini jalb etib keladi. Uning ayrim qismlari uyg'ur, o'zbek va rus tillariga tarjima qilingan. Asarning qisqartirilgan inglizcha tarjimasi bo'lib, 1895 yili Londonda nashrdan chiqqan. To'la ruscha tarjimasi so'z boshi va zarur izohlar bilan, 1996 yili Toshkentda chop etilgan.

"Tarixi Rashidiy" asarining qo'lyozmalari Sankt-Peterburg, Toshkent, shuningdek, ko'pgina xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanmoqda.

### **"Abdullanova" yoki "Sharafnomayi shohiy"**

"Abdullanova" yoki "Sharafnomayi shohiy" asarining ijodkori XVI asrda o'tgan buxorolik shoir va yirik tarixchi olim Hafiz Tanish Buxoriyidir. U 1549 yili Buxoroyi sharifda nufuzli mansablor xonadonida dunyoga kelgan. Otasi Mir Muhammad al-Buxoriy

Buxoroning ko'zga ko'ringan boyonlaridan bo'lib, shayboniy Ubaydullaxonning yaqin kishilaridan bo'lgan, 1550 yilning boshlarida Koshg'arga ketib qolgan va oradan ikki yil chamasini vaqt o'tgach, o'sha .rtda vafot etgan.

Hofiz Tanish Buxoriy o'z davrining chuqur va keng ma'lumotli kishilaridan bo'lib, 1584 yili Abdullaxon soniyining (1583-1598 yy.) yaqin odami Qulbobo ko'kaltoshning tavsisi bilan Abdullaxonning xizmatiga qabul qilingan va uning shaxsiy voqeana visi, tarixchisi vazifasiga tayinlangan. Hofiz Tanish Buxoriy umrining oxirigacha shu lavozimda ishlagan. Maleho Samarqandiyning ma'lumotiga ko'ra, Hofiz Tanish 1589 yili xotini tarafidan zaharlab o'ldirilgan.

Hofiz Tanish o'zining "Abdullanoma" yoki "Sharafnomayi shohiy" asari bilan nom chiqargan. Kitobda O'zbekiston, Qozog'iston, shuningdek, qisman, Afg'oniston va Eronning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixi bayon qilinadi. Undan tashqari, asarda Buxlol xonligi bilan Eron, Hindiston, Koshg'ar va Rossiya o'rta sidagi munosabatlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar bor. Asar XVI asrning 80-yillari oxirida yozib tamomlangan. Hofiz Tanishning zamondoshi shoir va adabiyotshunos olim Mutribiyning guvohlik berishiga qaraganda, asarning oxirgi qismini, xonning topshirig'i bilan, qozi Poyanda Zominiy (1602 yili vafot etgan) yozgan. Lekin bu fikrni boshqa manbalar tasdiqlamaydi.

"Sharafnomayi shohiy" asari muallifning rejasiga ko'ra, muqaddima, ikki qism yoki maqola va xotimadan iborat qilib yozilishi mo'ljallangan. Masalan, muqaddima, odatdagidek Allohnning madhu sanosi, homiy, oliy hukmdor Abdullaxonning sha'niga aytildigan ta'rifu tavsif, asarning yozilishi tarixi, Abdullaxonning ota-bobolari, qadimda Markaziy Osiyoda istiqomat qilgan turk-mo'g'ul qavmlari, Chingisxon va uning avlodи haqida ma'lumot, birinchi maqolada Movarounnahrda 1533-1583 yillar orasida sodir bo'lgan voqealar, ikkinchi maqolada esa O'zbekiston, Qozog'iston va qo'shi xorijiy mamlakatlarda 1583 yildan keyin yuz berishi mumkin bo'lgan voqealar, xotimada esa Abdullaxonning oljanob fazilatlari, uning bilan zamondosh bo'lgan shayxlar, olimlar, shoirlar, vazirlar va amirlar, shuningdek, Abdullaxon zamonida qurilgan binolar haqida ma'lumot bkrishi mo'ljallangan. Lekin, asar yozilishi jarayonida reja o'zgargan – birinchi va ikkinchi maqolalar qo'shib yozilgan, xotia esa muallifning bevaqt vafoti sababli yozilmay qolgan.

Muallif asar muqaddimasini yozishda Narshaxiyining "Tarixi Buxoro", shayxulislom Safiuddin Abubakr Abdullo Balxiyning "Fazoili Balx", Istaxriyning "Kitob masolik ul-mamolik", Juvayniyning "Tarixi jahonkushoy", Raziduddinining "Jome' ut-tavorix", Mirxonning "Ravzat us-safo", Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" va Muhammad Haydarning "Tarixi Rvshidiy" asarlarida keltirilgan ma'lumotlardan foydalangan. XVI asrning 30-60- yillari orasida yuz bergan voqealar saroyda muntazam yuritib turiladigan kundalik daftar, sodir bo'lgan muhim siyosiy voqealarning shohidi bo'lgan keksa kishilarning og'zaki axborotlari asosida, 70-80-yillar voqealari esa muallifning bo'lib o'tgan voqealarda shaxsan o'zi qatnashib to'plagan daliliy ma'lumotlar asosida yozilgan.

"Sharafnomayi shohiy" asari nasriy qofiyali, ya'ni saj – murakkab badiy uslubda yozilgan. Unda she'riy parchalar Firdavsiy, Rudakiy, Sa'diy, Kamoliddin Binoiy, Mushfiqiy va muallifning o'z she'rlari, "Qur'oni karim" oyatlari, "Hadis sharif'lardan parchalar ham ko'p.

Kitobda siyosiy voqealar bilan bir qatorda ijtimoiy-iqtisodiy mavzudagi ma'lumotlar, masalan, yer egaligining iqtosasi, suyurg'ol, tanhoh kabi shakllari, turli-tuman soliq va jarimalar, masalan, xiroj, ixrojot, tag'or, ulufa, qo'nalg'a, madadi lashkar, boj, tomg'a, begar; o'lja va uning jamiyatdagi o'rni, asirni qulga aylantirish hollari; O'zbekistonning yirik shaharlari va hunarmandchilikning umumiyyahvoli; Shayboniyalar davlatining ma'muriy tuzulishi, Buxoro xonligi bilan Rossiya, Hindiston va Koshg'ar o'rtasidagi munosabatlar haqida qimmatli dalil va ma'lumotlar mavjud. Bundan tashqari, asar etnografik, masalan, o'zbek xalqi tarkibiga kirgan urug' va qavmlar nomlari hamda topografik ma'lumotlar, masalan, Buxoro, Samarcand, Toshkent, Termiz, Ko'lob, Balx kabi yirik shaharlardagi diqqatga sazovor binolar, osoru atiqalar, shuningdek, mazkur shaharlarninggeografik holati va topografiyasi haqidagi axborotlarga niyoyatda boydir.

Ushbu asarning qo'lyozma nusxalari ko'p, asl matnini uchdan ikki qismini Sankt-Peterburglik olima M.Salohutlinova ruscha tarjimasi bilan chop etgan. Kitob 1942-1952 yillari Sodiq Mirzaev va oxirgi qismi Yu.Hakimjonov tomonidan 60- yillarda o'zbek tiliga tarjima qilinib, 1-2-jildlari, zarur tuzatishlar, tadqiqot va izohlar bilan 1966 va 1969 yillari B.Ahmedov tomonidan chop qilingan. 3-4-jildlari bosilmay qolgan edi. 1995-1997 yillari ikki kitob holida B.Ahmedov tomonidan nashr etildi.

### **"Musaxxit al-bilod"**

"Musaxxit al-bilod" ("Mamlakatlarni bo'yundirkvchi") nomli asarning muallifi Muhammadyor ibn Arab Katagondir. Uning hayoti va ilmiy-adabiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. O'zining so'zlariga qaraganda, u XVI asning ikkinchi yarmi va XVII asr boshlarida yashab o'tgan, Shaybniy Abdullaxon soniy va Ashtarxoniylardan Boqi Muhammadxon (1603-1606 yy.)ning xizmatida bo'lган.

Muhammad ibn Arab Kattagon va uning "Musaxxit ul-bilod" asari yaqin vaqtgargacha ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma'lum bo'limgan, qolaversa asar haqida turlicha, ko'p hollarda bir-biriga zid fikrlar hukm suradi. Masalan, K.G.Zaleman (1849-1916 yy.) "Musaxxit ul-bilod"ni Hafiz Tanish Buxoriyning "Sharafnomayi shohiy" asarining qisqartirilgan nusxasi, deb aytgan<sup>35</sup> bo'lsa, ingliz sharqshunosi Ch.A.Stori hamda "Sobranie vostochnykh rukopisey AN UzCCR" ketalogini tuzuvchilari uni "Tarixi Shayboniy" deb ataganlar<sup>36</sup>. Yaqinda Sankt-Peterburglik olima M.A.Salohiddinova "Musaxxit ul-bilod"ni mustaqil asar ekanligini aniqladi va asar hamda uning muallifi haqida qisqa ilmiy axborot e'lon qildi.

"Musaxxit ul-bilod" Shayboniyalar sulolasining Abulxayrxondan boshlab shajarasini bayoni bo'lib, O'zyukiston va Qozog'istonning XV-XVI asrlardagi tarixini o'rganishda muhim qo'llanmalardan biri hisoblanadi. Asar 1610 yil atrofida yozilgan.

Kitob tarkibi muqaddima va olti bobdan iborat.

Birinchi bob Abulxayrxonning o'g'li va taxt vorisi Shoh Bulog' Sulton, uning o'g'illari Muhammad Shohbaxt, Shayboniyxon va Mahmud Sulton hamda udarning avlodini tarixini o'z ichiga oladi.

Ikkinci bobda Ko'chkunchixon (Ko'chumxon) va uning Samarqandda hukmronlik qilgan avlodini tarixi bayon etilgan.

Uchinchi bobda Suyunchxojaxon va uning Toshkent hamda Turkistonda hukmronlik qilgan avlodini tarixi keltirilgan.

To'rtinchi bobda xoja Muhammadxon va uning Mavarounnahrda podshohlik qilgan avlodini tarixi keltirilgan.

Beshinchi bob Abdulmo'minxonning taxtga o'tirishi (1598 y.) va qisqa hukmronligi haqida.

Oltinchi bobda Buxoroning diqqatga sazovor joylari, muallif bilan zamondosh bo'lган va Buxoroda istiqomat qilgan shayxlar, olimlar va shoirlar haqida qisqacha ma'lumot beriladi.

"Musaxxir ul-bilod" kam o'rganilgan, qo'lyozma nusxalari ham kam. Hozir uning saqat qo'lyozma nusxasi ma'lum: biri O'zR FA Sharqshunoslik institutida (Inv.№ 1505), ikkinchisi Rossiya FA Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limida (Inv.№ S. 465) saqlanmoqda. Afsuski, ikkala nusxa ham to'la emas. Birinchi nusxada muqaddima va birinchi bobning katta qismi yetishmaydi, ikkinchi nusxaning esa eng kerakli V-VI boblari yo'q.

Asarning I-IV boblarida XVI asr tarixiga oid manbalarni, xususan "Sharafnomayi shohiy"dek yirik asarlarni ham ma'lum darajada to'latuvchi, ularda bayon etilgan voqealarga aniqlik kirituvchi qimmatli ma'lumotlar ko'p. Shayboniyxon tomonidan 1507 yili o'tkazilgan pul islohoti; Shayboniylar o'tasida kelishmovchiliklar va o'zaro nizolar, uning sabablari; Shayboniylar bilan qozoq xonlari o'tasidagi siyosiy munosabatlari; o'sha zamonlarda Sirdaryo bo'yida istiqomat qilgan qoraqalpoqlar va ularning XVI asrning oxiri va XVII asr boshlaridagi ahvoli; Toshkent, Turkiston, Sayram, Andijon va Axsiket kabi shaharlarning XVI asrning so'nggi choragidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqidagi ma'lumotlar shular jumlasidandir.

### **"Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor"**

"Bahr ul-asror fi manoqib ul-ahyor" ("Olijanob kishilarning jasorati haqidagi sirlar dengizi") nomli asar muallifi XVII asrda o'tgan balxlik yirik qomusiy olim Mahmud ibn Validir. Uning otasi Mir Muhammad Vali asli farg'onalik, kosonlik bo'lib, Shayboniylardan Pirmuhammadxon avval (1546-1567 yy.) davrida Balxga borib qolgan. U o'qimishli va keng ma'lumotli kishi bo'lib, asosan fiqh ilmida zamonasining peshqadam kishilardan hisoblangan. U Mir Xislat taxallusi bilan she'rilar ham yozgan.

Mahmud ibn Valining amakisi Muhammad Poyanda (1602 yili vafot etgan) Samarqand hokimi Boqi Muhammad (1603-1606 yillari Buxoro xoni) dnyonida xizmat qilgan. Akasi amir Abulboriy esa fiqh, tafsir va tibb ilmini yaxshi egallagan olim kishi edi.

Mahmud ibn Vali 1596 yili tug'ilgan. 19 yoshga borganda, ya'ni 1614 yili u yirik fiqh va hadis olimi MMahmud ibn Valirakshoh Husayniyning xizmatiga kiradi va qariyb o'n yil undan saboq oladi. Mirakshoh Husayniyning boy kutubxonasi bo'lib, unda, Mahmud ibn Valining so'zlariga qaraganda, tarix, geografiya, mumtoz adabiyot, fiqh, hadis va boshqa ilmlarga doir juda ko'p kitoblar saqlanar edi. Bu ilmga chanqoq yosh olim uchun bkbaho xazina bo'ldi, albatta. Keymnchalik Mahmud ibn Valining o'zi kutubxonadagi ko'p kitoblarni o'qib ko'p foyda topganini aytadi.

Mirakshoh Husayniy vafot etgan 1624 yil 13 aprel kunidan keyin Mahmud ibn Vali kitobiy ilmini amaliy bilimlar bilan boyitish maqsadida boshqa mamlakatlarga sayohat qilishga qaror qildi va bir yillik tayyorgarlikdan keyin, 1625 yilning iyul oyida savdo karvoniga qo'shilib Hindiston tomon yo'l oldi. U Hindistonda qariyb yetti yil istiqomat qildi va uning Peshovar, Lohur, Dehli, Agra, Haydarobod, Vijayanagar, Kalkutta, Bixar kabi qator yirik shahar va o'lkalarни borib ko'rdi va ularning aholisi, xalqining urf-odati, tarixi, madaniyati, va nihoyat, osori atiqalari haqidagi qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

1631 yil 20 avgustla Balxga qaytib kelgandan keyin Nadr Muhammadxon (1606-1642 yillari Balx, 1642-1645 yillari Buxoro xoni)ning xizmatiga kirdi va to umrining oxirigacha uning kutubxonasida kitobdor bo'lib xizmat qildi. Mahmud ibn Valining qachon vafot etganligi ma'lum emas.

Mahmud ibn Vali fanning juda ko'p sohalarini, tarix, geografiya, ilmi nujum, ma'danshunoslik, botanika va boshqa sohalarni qamrab olgan "Bahr ul-asror fi manaqib ul-ahyor" yoki "Bahr ul-asror" nomli o'ta qimmatli qomusiy asarini yaratdi. Bundan tashqari u qator ilmiy va badiiy asarlar yaratgan bo'lib, ular bizgacha yetib kelmagan.

1634-1640 yillar orasida yozilgan "Bahr ul-asror" asari mundarijasida ko'rsatilishicha, yetti jiddan iborat bo'lgan. Uning II-VII jiddlari jahon tarixiga bag'ishlangan bo'lib, O'zbekiston va u bilan qo'shni mamlakatlarning qadim zamонлардан то 1640 yilgacha kechgan tarixidan baxs yuritadi. Asarning birinchi jildi ilmi nujum, geografiya, ma'danshunoslik va botanika fanlariga oid ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Afsuski, bu muhim va qimmatli asarning faqat I va VI jiddlarigina topilgan, xalos.

Asarning birinchi jildida yetti iqlim mamlakatlarining, guningdek, O'zbekistonning o'rta asrlardagi shahar va viloyatlarining geografik holati, xalqi va uning turmush tarzi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

"Bahr ul-asror"ning VI jildi alohida qimmatga ega. Unda XIII-XVII asrning birinchi yarmida Chig'atoy ulusi, O'rta Osiyo, Mo'g'uliston va Shimoliy Afg'oniston tarixi keng va atroficha yoritilgan.

Mahmud ibn Vali va uning mazkur asari ilmiy jamotachilikka 1902 yildan beri ma'lum bo'lsa-da, hali juda kam o'rganilgan. Undan ayrim parchalarning ruscha tarjimasi V.V.Bartold, B.AyuAhmedov va K.A.Pishulina tomonidan e'lon qilingan.

"Bahr ul-asror" asarining olti nafar qo'lyozmasi mavjud. Ularning to'rttasi O'zR FA Sharqshunoslik institutida I jild va VI jildning 1-3 qismlari, ikkitasi esa Angliya va Pokistonda, VI jildning 4 qismi saqlanmoqda.

### **“Dastur ul-muluk”**

“Dastur ul-muluk” (“Podshohlarga qo’llanma”) nomli qimmatli asar muallifi XVII asr tarixchisi Xoja Samandar Termiziyyidir. Uning o’z ismi Muhammad Baqoxoja bo’lib, asli nasaf(Qarshi)lik, Mir Haydariy tariqati shayxlaridan biri oilasida dunyoga kelgan.

Xoja Samandar Termiziyy Ashtarkoniylardan Abdulazizxon (1645-1681 yy.) va Subxonqulixon (1681-1702 yy.) bilan zamondosh bo’lgan. U 1702 yilgacha Qarshida raislik lavozimida<sup>37</sup> turgan, Abdulazizxon va Subxlnqulixonning harbiy yurishlarda ishtirot etgan. Oxiri ana shu Mir Haydariy tariqati shayxlaridan ba’zilarining ig’osi bilan 1702 yili raislik lavozimidan iste’voga chiqishga majbkr bo’ldi va umrining oxirigacha, u 1735 yili hali hayot bo’lgan, saqat ilmiy faoliyat bilan mashg’ul bo’lgan.

Xoja Samandar Termiziyy o’z davrining keng ma’lumotli kishilari jumlasidan bo’lgan. O’sha vaqtarda yozilgan bir qator kitoblar, jumladan “Muzakkiri ahbob”, “Muhit at-tavorix”ning ma’lumotlariga qaraganda, u yetuk shoir, yozuvchi va tarixchi olim bo’lgan, ilohiyot ilmini ham yaxshi bilgan, ko’p sayohat qilib, nazariy bilmini mustahkamlagan.

Bizning zamonimizgacha olimning ikki muhim asari yetib kelgan. Bulardan biri “Dastur ul-muluk” bo’lib, u 1695 yili va ikkinchisi “Anis ul-fuqaro” (“Faqirlar do’sti”) nomi bilan mashhur bo’lib, 1735 yili yozilgan.

O’zbekiston tarixini o’rganishda Xoja Samandar Termiziyning “Dastur ul-muluk” asari zo’r qimmatga ega. Asar Buxoro xonligining XVII asrning 70-90- yillardagi ijtimoiy-siyosiy ahvolini, shuningdek, Buxoro bilan Xiva xonliklari o’rtasidagi siyosiy munosabatlarni o’rganishda katta ahamiyatga ega. Asarda o’zaro kurashlar, olyi martabali mansabdordar orasida keng tarqalgan buzuqlik, poraxo’rlik, zulm va mehnatkash xalqning og’ir ahvoli haqida qimmatli ma’lumotlar mavjud. “Dastur ul-amal”da o’zbeklarning etnik tarkibi haqida ham muhim dalil va ma’lumotlarni uchratamiz.

1971 yili “Dastur ul-amal” asarining forsiy matnnini, ruscha tarjimasi, zarur izohlar bilan M.A.Salohiddinova chop etdi. Asarning o’zbekcha nashri 1997 yili Jabbor Esonov tomondan amalga oshirildi.

### **“Haft iqlim”**

“Haft iqlim” (“Yetti iqlim”) nomli geografik-biografik asarining ijodkori mashhur adabiyotshunos olim Amir Ahmad Roziyidir. U asli Eronning Ray sharidan, badavlat va o’qimishli xonadondan chiqqan.

Amir Ahmad Roziy o’z asarini 1594 yili tugatgan bo’lib, unda VII asrdan to XVI asr oxirigacha yetti iqlim mamlakatlari va shaharlarida istiqomat qilgan 1560 nafar yirik shayx, olim, yozkvchi, shoir va davlat arbooblari haqida qisqa, lekin qimmatli ma’lumotlar beradi. Muallif o’zigacha bo’lgan davrga tegishli masalarni yoritishda “Suvar al-aqolim” (“Iqlimning ko’rinishi”), “Masolik ul-mamolik” (“Mamlakatlar orasidagi masofalar”), “Tarixi Banokatiy” kabi asarlarga tayangan, lekin ulardan tanqidiy foydalangan, ularni yangi dalillar va ma’lumotlar bilan boyitgan.

Shaharlar va mamlakatlarni tavsif qilganda ularning geografik o’rni, diqqatga sazovor joylari, osori atiqalari, xalqi va uning hayoti, mashg’uloti va urf odatlari, ba’zida

aholisining umumiy soni, xo'jaligiga oid qimmatli ma'lumotlar keltiradi. Masadan, Chingizxon xurujidan avval Balxda 50 mingdan ortiq odam istiqomat qilgan, XU-XUI asrlarda Toshkent atrofidiagi tog'larda temir, firuza, ohak konlari, Xo'jandda firuza, Badaxshonda la'l konlari ishlab turgan.

"Haft iqlim"da Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodni davrida Hindiston va O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy ahvoli, Sharqiy Turkston, Koshg'arning XVIlasr ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli haqidagi zarur ma'lumotlarni uchratish mumkin.

Asarda VII-XVI asrlarda O'zbekiston va Xurosonda o'tgan yirik olim va shoirlar haqidagi ma'lumotlar o'ta muhimdir. Bular orasida "shoirlar podshohi" Rashiduddin Votrot (1088-1182 yy.), "Olimlar faxri" Abulqosim Mahmud ibn Umar Zamashshariy (1074-1144 yy.), buxorolik buyuk hadis olimi Abu Abdilkhollo Muhammadi ibn Ismoil al-Buxoriy (810-870 yy.)lar bor.

"Haft iqlim" asarining qo'lyozma nusxalari mamlakatimizda va xorijiy mamlakatlarning kutubxonalarida ko'p, lekin hali to'liq nashr qilinmagan. Undan tarixchilar yordamchi manba sifatida foydalanishi mumkin.

### **"Tarixi olamoroyi Abbosiy"**

"Tarixi olamoroyi Abbosiy" ("(Shoh) Abbosning olamni bezovchi tarixi") nomli asar garchi XVI asrda o'tgan yirik Eron tarixchisi Iskandarbek Munshiy tomonidan yaratilgan bo'lsa-da, unda O'zbekistonning tarixi va uning boshqa mamlakatlar bilan munosabatini o'rghanishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Iskandarbek Munshiy o'z asarida keltirgan ayrim dalil va ma'lumotlariga qaraganda, 1561 yoki 1562 yili tug'ilgan. U saroy yumushiga qabul qilingunga qadar kichik moliya xizmatchisi bo'lib ishlagan, keyinchalik devoni inshoga qabul qilingan. Bo'lg'usi tarixchi 1587 yili harbiy xizmatga jalb etilgan va shoh Abbos avval Safaviy (1587-1629 yy.)ning harbiy yurishlarida voqeana vis bo'lib ishtirok etgan, 1593 yili esa saroy munshiysi lovozimiga tayinlangan va umrining oxirigacha shu lavozimda turgan. Iskandarbek Munshiy 1634 yili vafot etgan.

Iskandarbek Munshiyning "Tarixi olamoroyi Abbosiy" nomli asarida Eronning 1588-1634 yillar orasidagi tarixi xronologik, yilma-yil tartibida yuayon qilingan. Bu asar ham "Akbarnoma" singari saroyda ritilgan kundalik daftar, rasmiy hujjatlar, bayon etilgan voqealar ishtirokchilarining og'zaki axboroti hamda muallifning shaxsiy kuzatuvlari bilan to'poangan ma'lumotlar asosida yozilgan.

"Tarixi olamoroyi Abbosiy" asari tarkibi muqaddima, uch jild va xotimadan iborat. Asarning I-II jiddlari 1616, uchinchi jildi esa 1628 yili yozib tamomlangan.

Kitobning birinchi jildi kompilyatsiya, umumlashtiruvchi xususiyatga ega bo'lib, Xondamirning "Habib us-siyar", Mir Yahyo Qazviniyning "Lubb at-tavorix" ("Tarixlar mag'zi") va muallif "Tarixi olamoroyi Abbosiy" noma'lum ikki asar "Tarixi shoh Ismoil Safaviy" va "Tazkirayi shoh Tahmosib" hamda boshqa asarlarga tayanib yozilgan. Unda asosan shoh Abbosning ota-boblari, shuningdek, shoh Ismoil avval (1502-1524 yy.), shoh

Tahmosib avval (1524-1576 yy.), Ismoil soniy (1576-1578 yy.) va Sulton Muhammad Xulobanda (1578-1587 yy.) hukmronligi yillardagi tarixi umumiylar tarzda bayon etilgan.

“Tarixi olamoroyi Abbosiy” asarining II-III jildlari mazmuni yangi bo’lib, mustaqil ahamiyatga ega. Ularda Eronning 1588-1628 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng yoritib berilgan. Uchinchi jild oxirida shoh Abbos avval bilan zamondosh bo’lgan shayxlar, olimlar, shoirlar va xattotlar haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan.

Asar O’zbekiston tarixini o’rganishda ham katta ahamiyat kasb etadi. Unda O’zbekistonning XVI asr oxiri va XVII asrning birinchi choragidagi siyosiy ahvoli haqida noyob ma’lumotlarni uchratamiz. Bundan tashqari, asar XVI asrning oxiri va XVII asrning birinchi choragida Eron bilan Buxoro xonligi o’tasidagi siyosiy munosabatlarni o’rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Asardan ayrim parchalar B.Dorn (matni) va V.V.Velyaminov-Zernov tomonidan matni va qisqartirilgan ruscha tarjimasi nashr etilgan. Kitob matni yana ikki marta Tehronda 1896 yili toshbosma va 1956 yili bosmasi chop etilgan.

**Mulla Sharafuddin A’lam.** XVII asrning ikkinchi yarmi va XVIII asrning birinchi choragida o’tgan shoir va tarix-chi olim. Hayoti va ilmiy-adabiy faoliyati haqida juda kam ma’lumotga egamiz. V. R. Rozen va prof. A. A. Semyonovlar keltirgan ma’lumotlarga qaraganda, mulla Sharafuddin A’lam asli andijonlik; yosh paytida Samarqandga, otasi huzuriga kelib qolgan. Otasining ismi mullo Nuriddin bo’lib, xalq orasida oxund mulla Farhod nomi bilan mash-hur bo’lgan.

Mulla Sharafuddin yoshligidan mehnatsevar va ilmga chanqoqbo’lgan. Otasining yordamli bilan yaxshi o’qidi, turli ilmlarni kasb etdi va keng ma’lumotli olim va shoir bo’lib yetishdi. V. R. Rozen va A. A. Semyonovlarning tadkiqtolaridan anglanilishicha, mulla Sharafuddin Samarqandning eng ma’lumotli olimlardan mulla Boqjon Buxoriyning xiz-matida bo’lgan va uning vafotidan keyin o’rniga a’lamlik vazifasiga o’tirgan. Ba’zi ma’lumotlarga qaraganda, u qozilik mansabida ham turgan.

Olim «**Tarixi kasira»** (boshqa nomlari «**Tarixi sayyid Roqim», «**Tarixi sayyid Roqimi Samarqandiy»**) asari bilan mashhur. Asar mashhur shaxslarning hayotiga oid mamla-katda bunyod etilgan katta binolar, ustı yopiq bozorlar (timlar), hammomlar qurilishi va mashhur kishilar hayoti bilan bog’liq sanalarga bag’ishlangan tarix (xronogramma)-lar majmuidan iboratdir. U Amir Temur tavalludi (1336 y.)dan to XVIII asrning o’talarigacha kechgan voqealarni o’z ichiga oladi.**

«**Tarixi sayyid Roqim**»ning qo’lyozma nusxalari va tosh-bosma nashrlari ko’p. Asarning birinchi toshbosma nashri yuqorida nomi tilga olingan olim va yirik davlat xizmat-chisi Mirza Salimbek (q.) tarafidan 1913 yili Toshkentda amalga oshirilgan. Shu yerda mazkur asar xususida bir dunyo-bexabarning «**kashfiyoti**» xususida eslatib o’tmoqchimiz. U 1998 yili «**Tamm atavorix**» degan «**yangi**» bir asarni bos-madan chiqardi. Lekin tekshirishda bu asar aslida «**Tarixi kasira**»ning o’zginasini bo’lib chiqsi.

«**Tarixi kasira**» ba’zi muhim voqealar tarixini aniq-lashda qimmatli manba rolini o’ynaydi (asarning qo’lyozma va toshbosma nusxalarining ko’p bo’lishi shundan). Dal il sisatida bir

necha misol keltiramiz. Yirik tarixshunos olim va vazir Rashiduddinning o'ldi-rilishi vokeasi 1318 yil 27 oktyabr kuni sodir bo'lgan. Shoir Kamol Xo'jandiying vafoti 1391 yili yuz bergen.

Amir Temur zamonida o'tgan yirik alloma Taftazoniy xakida kuyidagi muxim ma'lumotlar keltiriladi. 1322 yili tavallud topgan. 18 yoshlik paytida G'ijduvonda «Sharhi Zanjoniy» asarini yozgan. 1347 yilning 10 iyun kuni Jom viloyatida «Sharhi mulaxxis al-miftax» kitobini yozib tamomlagan. 1373 yil 23 may kuni Samarqandda «Maqosad ul-kalom va sharhi maqosad» kitoblarini yozib tamomlagan. 1376 yili, qartayib qolgan paytida, «Sharxi qism as-solis az «Mafotix al-ulum» asarini yozib tamomlagan. Vafoti 1392 yili sodir bo'ldi.

«Tarixi sayyid Roqim»da Amir Temur davrida o'tgan yana bir yirik olim — Mir sayyid Sharif Jurjoni yaxida kuyidagilami o'qiyimiz: asli Mozandaron (Eron)ning To'un qishlog'idan. 1377 yili tug'ilgan. Sherozdag'i «Dor ush-shifo» o'quv yurtida mudarrislik kilgan. Amir Temur Sherozni ishg'ol qilgan yili (1393 y.) Samarqandga ko'chib kelgan va hazrat sohibqironning inoyat va marhamatlariga sazovor bo'lib, uning saroyida xizmat kilgan. 76 yoshida Sherozda vafot etgan.

Movarounnahri ilohiyot olimi xoja Muxammad Por-soning vafoti 1419 yili yuz bergen.

Mirzo Ulug'bekning birinchi muallimi shayx Ozariy (haqiqiy ismi Hamza ibn Abdulmalik at-Tusiy) 1440 yili vafot topgan. «Tarixi kasira»da uning haqida yana quyida-gilar aytildi. Otasi sarbadorlar jamoasiga mansub bo'lgan. Uz davrining yetuk olimi va shoirlari jumlasidan bo'lgan. She'rlari mashhur bo'lib, nazm va nasrda bir necha asar yozib qoldirgan. «Javohir al-asror», «Turg'oyi humoyun» va «Ajoyib ul-g'aroyib» shular jumlasidandir.

Shayboniyalar, xususan, Muhammad Shayboniyxon, Ubay-dullaxon, Abdullaxon II davrida, Movarounnaxr va Balx shaharlarida bir talay katta qurilishlar (madrasalar, mas-jidu xonaqolar, timlar, yirik suv inshootlari va b.) QURib imga tushirilgan. «Tarixi sayyid Sharif roqim»da bular haqida ham muhim ma'lumotlar uchratamiz. Bir necha misol:

Kesh (Shahrisabz)da Oqsaroy binosining qurilishi asosan 1382 yilda tamomlangan. Mirzo Ulug'bekning Samarqanddagi madrasasi 1425 yili kurib bitkazilgan. Mirzo Ulug'bek rasadxonasi 1429 yili qurib ishga tu-shirilgan. Alayka ko'kaltoshning Samarqanddagi jome'masjidi-da Ko'chkunchixon tarafidan qurilgan marmar minbar 1528 yili bitkazilgan.

Buxoroda Ubaydullaxon tarafidan Mir Arab madrasa-sining bino qilinishi 1536 yili sodir bo'lgan. Mavlono Mir mustiy tarafidan Buxoroyi sharifda qurilgan qutubxona 1558 yili bitkazilgan. Juvonmard Alixon tarafidan Buxoroda hammom quri-lishi 1574 yili poyoniga yetgan. Mehtar Qosim tarafidan G'ijduvon yonida, Ko'hak da-ryosi ustiga qurilgan ko'p oshyonlik suv ayirgich inshooti 1576 yili qurilib ishga tushirilgan. Abdullaxon II tarafidan Buxoroda bunyod etilgan chor-bog' 1584 yili kurib bitkazilgan. Mazkur xon tarafidan Buxoroda Chorsu bozorining quri-lishi 1587 yili tamomlandi. Karmina yonida, Ko'hak daryosi ustiga ko'priq qurish ishlari 1587 yili tamomlandi.

Kitobda mashhur asarlarning yozib tamomlangan vaqt ham ko'rsatilgan. Masalan, Ulug'bek mirzoning «Ziji ja-didi ko'ragoniy» kitobi 1437 yili, Abdurahmon Jomiy-ning «Nafahot ul-uns» asari 1469 yili, «Husni Husayn» kitobi 1606 yili yozib tamomlangan.

«Tarixi sayyid Roqim» asari, uning kiymati va ilm-fan uchun zarurligi keltirilgan misollardan ham ko'rinish turibdi.

**Abdurrahmon Davlat.** Ubaydullaxon va Abulfayzxon (1711—1747 yy.) saroyida xizmat kilgan munajjim, shoir va tarixshunos olim. Ko'proq Abduraxmon Tole nomi bilan mashxur. Tug'ilgan va vafot etgan yili ma'lum emas.

Abduraxmon Davlat «**Tarixi Abulfayzxon**» nomli tari-xiy asar yozib krldirgan. Mazkur asar hajm jihatdan kichik (161 varaq) bo'lib, yuqorida zikr etilgan «Ubaydullano-ma»ning davomi hisoblanadi va Buxoro xonligining 1711—1723 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi. Ma'lumki, XVIII asrning birinchi choragida Buxoro xonligining iktisodiy va siyosiy axvoli zaiflashadi: ulus boshlikdarining, ya'ni mahalliy hukmdorlarning mustaqil-lik uchun olib borgan harakati kuchaydi, ularning ayrim-lari (masalan, Balx va Samarqand) markaziy hukumatga bo'ysunmay qo'ydilar; Farg'onas XVIII asr boshlarida (1709 yili) Ashtarkoniylar davlatidan ajralib chikdi va bu o'lkada mustaqil Qo'qon xonligi tashkil topdi; 1722 yili Samarkand xam mustakillik e'lon kiddi va Rajabxon ismli kim-sani xon qilib ko'tardilar (1722-1728 yy.); o'zaro urushlar boshlanib ketdi. «**Tarixi Abulfayzxon**» asarining mualli-fi mana shu masalalarni keng yoritib bergen. Bundan tashqa-ri, asarda Buxoro xonligining ma'muriy tuzilishi va o'zbek xalqining o'sha villadagi etnik tarkibi haqida ham ay-rim, diqqatga sazovor dalil va ma'lumotlar bor.

«**Tarixi Abulfayzxon**»ning to'la ruscha tarjimasи, zarur izoxlar bilan, 1959 yili A. A. Semyonov tarafidan nashr qilingan (Toshkent).

**Xoji Mir Muhammad Salim.** Xoji Mir Muhammad Salim va uning «**Silsilat us-salotin**» (**Podsholar silsila-si**) asari yaqin kunlargacha ilmiy jamoatchilikka ma'lum emas edi. Bunga asar qo'lyozma nuxxalarining kamligi va mamlakat kutubxonalarida yo'qligi asosiy sababdir. Mazkur asarning bir nusxasi Angliyada, Bodleyan kutubxonasi-da (inv. № 269) saqlanmoqda.

Xoji Mir Muhammad Salim hyech bo'limganda biron ki-chik viloyatga hokim bo'lish sharfiga muyassar bo'lomagan va boshidan ko'p og'ir kunlarni kechirgan Ashtarkoniylar jumlasidandir. Uning katta bobosi Tursun Muhammad sul-ton 1578—1598 yillari Samarqand hokimi bo'lган. Uning to'ng'ich o'g'li Poyanda Muhammad sulton Balx xoni Nadr Muhammadxonga yaqin bo'lган (xonning singlisi Zubayda bonuga uylangan) va 1611-1642 yillari Qunduz viloyati-ga hokimlik qilgan. Ana shu Poyanda Muhammad sulton bi-lan Zubayda bonudan tug'ilgan Muhammadyor sulton Xoji Mir Muhammad Salimning bobosidir. U 1645 yilgacha Shah-risabz viloyatiga hokim bo'lган va Nadr Muhammadxon Bu-xoro taxtini o'g'li Abdulazizxonga qoldirib ketgandan key-in u bilan birga Balxga qochib borgan. Oradan bir yil o'tgach, 1646 yili, Balx Boburiylardan ShohJahon qo'shin-lari tomonidan ishg'ol etilgandan so'ng, xonning onasi Shaxribonu xonim hamda Nadr Muhammadxonning boshqa oila a'zolarini olib Buxoroga qochib keldi; Abdulaziz-xonning qalmoqlar, qoraqalpoq va qozoq sultonlariga qarshi harbiy yurishlarida ishtirot etdi; toju taxt oldi-da ko'rsatgan katta xizmatlari uchun Shaxrisabzga hokim qilib tayinlandi. Muhammadyor sulton 1647 yilning 14 iyunida Avrangzeb qo'shini bilan Balx qishlog'i — Temur-obodda bo'lган jangda halok bo'lган. Xoji Mir Muhammad Salimning otasi Muhammad Rustam sulton 1645 yili hali yosh bo'lган va Abdulazizxon unga iqgo'<sup>1</sup> tarzida Samarqan-dga qarashli Saripul tumanini in'om qilgan,

unga ota-liq<sup>2</sup> qilib esa Mir Shohxoja Shavdariyni tayinlagan. Lekin 1671 yili Abdulaziz undan xavfsirab ko'ziga mil torttirib ko'r qilgan. Muhammad Rustam sulton oradan ko'p vaqt o'tmay, amir Muhammadyor otaliquing vositachiligi bilan, xondan ruxsat olib Hajga jo'nagan. Lekin, Dekan viloyatida davom etib turgan urush harakatlari sababli, bandargoh shaharlardan birontasiga o'tolmay, Shoxjahono-bodga qaytib kelgan va oradan ikki yil o'tgach, o'sha yerda vafot etgan.

Mir Muhammad Salimning o'ziga kelsak, u, asarda bayon etilgan voqyealarga qaraganda, otasidan keyin Buxoroda qolgan. 1711 yili, Ubaydullaxon o'ldirilgandan keyin, Haj qilish bahonasi bilan Arabistonga jo'nagan. Bir yilcha Isfahonda istiqomat qilib, 1712 yili Turkiyaga borgan. Sulton Ahmad III (1703-1730 y.) uni ehtirom bilan kutib olgan. To'rt yilcha Turkiyada turib, mazkur sul-tonning harbiy yurishlarida qatnashgan. Mir Muhammad Salim 1716 yili Makkaga borgan va Haj marosimini ado etgandan keyin, dengiz orqali Hindistonga kelgan va Boburiy Nosiruddin Muhammadshoh (1719-1748 yy.)ning xizmatiga kirgan. Yuqorida tilga olingen «Silsilat us-salotin» asarini Nosiruddin Muhammadshohning topshi-rig'i bilan yezgan. Xoji Mir Muhammad Salimning qachon va qayerda vafot etganligi aniqlanmagan.

«Silsilat us-salotin» (1731 yili yozilgan) muqaddima va to'rt qismdan iborat.

Muqaddimada asarning yozshshsh tarixi haqida so'z bo-radi va muallifning 1711 yildan keyingi hayoti haqida ayrim, diqqatga sazovor ma'lumotlar keltiriladi.

Birinchi kismda islomiyatdan avval o'tgan payg'ambarlar, qadimgi turklar va mo'g'ullar, xususan, barloslar va Amir Temurning ota-bobolari; Amir Temur va Temuriylar, shu-ningdek, hazrat sohibqironning Hindistonda hukmronlik qilgan avlodni tarixi qisqacha bayon etiladi.

Asarning ikkinchi qismi Mo'g'ulistonning Tug'luq Te-murxon (1348-1363 yy.)dan to Suyurg'at mishxongacha (1370—1388 yy.) o'tgan davrdagi tarixini o'z ichiga oladi.

Muqaddima va I-II qismlarni yozishda muallif o'zidan avval yozilgan asarlardan, masalan, Juvayniyning «Ta-rxi jahonkushoy», Rashiduddinining «Jome' ut-tavorix», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma», Mirzo Ulug'-bekning «Tarixi arba' ulus» Xondamirning «Xulosat ul-axbor», «Habib us-siyar» va «Maosir ul-muluk» asarlari. Abulfazl Allomiyning «Akbar nomma», Hofiz Do'stmuhamed ibn Yodgorning «Majmu' al-ajoyib» (1606 yili yozilgan) va boshqa 20 ga yaqin kitoblardan foydalangan.

«Silsilat us-salotin»ning III—IV qismlari favqu-lodda ahamiyatga ega bo'lib, U rta Osiyo, xususan Uzbekistonning XVI-XVIII asrning birinchi choragidagi ijti-moiy-siyosiy tarixini bayon qiladi. Asarda Buxoro xon-ligining Eron, Hindiston va Koshg'ar bilan bo'lgan alo-qalari; Buxoro xonligida hokimiyatning Shayboniylardan Ashtarkoniylar qo'liga o'tishining aniq tafsiloti; XVII asrda Balx va Badaxshon, shuningdek, O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti; Shoh Jahonning Balx va Buxoro xonligining ichki ishlari qurolli aralashishi va Boburiylar qo'shinining Balx va unga tobe bo'lgan yerlarni bosib olishi; Xorazmning XVI-XVII asrlardagi siyosiy ahvoli xususida boshqa manba-larda uchramaydigan qimmatli dalil va ma'lumotlar kel-tiriladi. Asarda ulus tizimi; tiul va solona kabi so-liqlar,

Uzbeki ston shaharlari, ularning aholisi va tur-mush tarzi haqida keltirilgan ma'lumotlar ham alohida qimmatga egadir. Xoji Mir Muhammad Salim Buxoro xonlari (Abdullahxon II, Abdulmo'minxon, Dimumhammad-xon, Imomqulixon, Abdulazizzon, Subhonqulixon)ning Hindiston, Eron va Turkiya hukmdorlari bilan yozishma-larining (20 nafar maktub) nusxalarini ham keltirgan. Bu maktublar, shubhasiz, Buxoro xonligi bilan mazkur mamlakatlar o'tasidagi munosabatlar tarixini o'rganish-da muhim ma'nno kasb etadi.

**Muhammad Kozim.** XVIII asrda o'tgan marvlik mashhur tarixnavis olim; 1721 yili Marvdastug'ilgan. Ogasi (1737 yili vafot etgan) mashxur fotih Nodirshoh (1736-1747 yy.)ning yaqin kishilaridan bo'lib, uning dastlabki harbiy yurish-larida qatnashgan va muhim diplomatik topshirikdarini bajargan. Keyincha u Nodirshohning inisi Ibroximxon sa-royida (dastlab Xuroson, so'ngra, 1736 yildan, Ozarbay-jon hokimi) xizmat qilgan.

Muhammad Kozim boshlang'ich ma'lumotni Marvda oldi, so'ng 1731 yili otasi uni Mashhadga olib keldi va bu yerdag'i madrasalardan biriga o'qishga berdi. Muhammad Kozim bu yerda sayid Mir Shamsuddin Ali Mozandaroniy-dan ta'lim oldi. 1736 yili u Darbandga, Ibrohimxon huzuriga chaqirtirib olindi va 1739 yilgacha xonning yaso-vuli lavozimida xizmat qiddi. 1739 yilda Muhammad Kozim Nodirshohning o'g'li Rizoquli mirzo xizmatiga qabul qilindi va 1741 yilgacha lashkarnavis (harbiy kotib) vazifasida xizmat qildi. 1744 yildan u Nodirshoh huzuri-da xizmat qila boshladi; 1744—1747 yillari moliya mah-kamasida kotib va 1747 yildan podshoh qurol-yarog' ombo-rining mutasaddisi (vazir) bo'lib ishladi. Muhammad Kozim taxminan 1752 yili vafot etgan.

Muhammad Kozim «**Nomayi olamoroyi Nodiriy**» («No-dir (shoh)ning jahonga bezak bo'lувчи tarixi») atalmish yirik tarixiy asar (1750—1753 yillari yozilgan) mualli-fidir. Asar uch jiddan iborat. Birinchi jildi Eronning 1688—1736 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi; ikkinchi jilda 1736—1743 yillari Eronda, shuningdek. O'rta Osiyo va Kavkaz orti mamlakatlarda bo'lib o'tgan voqealar bayon etiladi. Asarning uchinchi jildi Eron va, qisman, O'rta Osiyo, Hindiston, Turkiya va Kavkaz orti mamlakatlarining 1743—1747 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixiga bag'ishlanadi. O'zbekistonning XVIII asrdagi tarixini o'rganishda «Nomayi olamoroyi Nodiriy»ning II va III jildlari asosiy manbalardan biri o'mini o'taydi. Ayniqsa, asarda Eron qo'shinining 1737 yili O'zbekiston hududiga bostirib ki-rishi va G'uzor, Qarshi, Shulluq va boshqa shahar va tu-manlarning talon-toroj qilinishi; Buxoro xonligining Nodirsho tarafidan bo'yundirilishi (1740 y.); Xorazm-ning 1746 yildagi og'ir ahvoli; Eron askarlarining O'rta Osiyoning shahar va qishloqlariga yana bostirib kirishi (1747 y.) va oqibatda mehnatkash xalqning ayanchli ahvolga tushib qolishi; 1741—1742 yillarda Ko'lob, Xisori shod-mon, Badaxshon, Balx va boshqa viloyatlar xalqining katta yer egalarining zulm va chet el bosqinchilariga qarshi qo'zg'o-lonlari haqidagi ma'lumotlar zo'r ilmiy qimmatga ega-dir.

«**Tarixi olamoroyi Nodiriy**»ning qo'lyozma nusxalarini kam. Shu paytacha asar to'la ravishda biron tilga tarjima qilin-magan. Undan ayrim parchalar ba'zi ilmiy to'plam va jur-nallarda chop etilgan. II jildning bir qismi, ya'ni Nodirshohning Hindistonga yurishini bayon etuvchi qismi P. I. Petrov tomonidan rus tilida 1961 yilda nashr etilgan. 1960, 1965 va 1966 yillari «**Tarixi olamoroyi Nodiriy**»ning fotofaksimil nashri Moskvada N. D. Mikluso-Maklay tomonidan chop etiddi.

**Muhammad Vafoyi Karminagiy.** Mulla Muhammad Vafo ibn Muhammad Zohir Karminagiy (1685—1769 yy.) Buxo-roning o'qimishli va tanikli kishilaridan; mashhur ta-rixshunos olim. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar kam. Nisbasiga (Karminagiy) qaraganda asli Buxoroning Karmina tumanidan bo'lган. Yuqorida qayd etilgan «Ubaydullanoma» kitobining muallifi Mir Muhammad Amin Buxoriyning guvoxlik berishiga qaraganda, Muham-mad Vafoyi Karminagiy Ashtarkoniylardan Ubaydulla-xon saroyida kitobdar bo'lib xizmat qilgan. Fikrimizcha, u Ubaydullaxondan keyin taxtga o'tirgan Abulfayzxon dav-rida ham ana shu lavozimda turgan. Mulla Muhammad Vafo Karminagiy «qozi Vafo» nomi bilan xam mashxurdir. U krzi-ik lavozimiga yangi sulola — Mangatlar sulolasining asos-chisi Muhammad Rahimxon (1753—1759 yy.) zamonida erishgan. Muxammad Vafo Karminagiy Buxoro xonligining 1722—1782 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga olgan «Tuhfat ul-xoniyy» («Xonning tuhfasi») yoki «Tarixi Rahimxoniy» («[Muhammad] Rahimxon tarixi») nomli asar yozib qoldirgan. Bu o'rinda shuni ham aytish kerak-ki, mulla Muhammad Vafo asarning fakat 1722—1768 yil voqycalarini o'z ichiga olgan kisminigina yozib ulgurgan (1769 y.), xolos. Uning davomini, ya'ni 1768—1782 yillar vokea-larini bayon etuvchi qismyni nasaflik domla Olimbek ibn Niyoqzulibek yozgan.

«Tuhfat ul-xoniyy» saj bilan yozilgan, lekin vokealar-ning to'la va keng yoritilishi, ijtimoiy-iqtisodiy, siyo-siy, geografik hamda etnik dalillarga boyligi bilan bi-rinch darajali manbalar katorida turadi. Asar Buxoro xon-ligida XVIII asming 20-yillaridan boshlab kuchayib ket-gan iqtisodiy va siyosiy tanglikni, ijtimoiy-siyosiy tarqoklikning kuchayishi va buning natijasida markaziy davlat boshqaruvining zaiflashuvi, mang'it hukmdorlari-ning uluslar va qabilalarni bo'yundirish maqsadida olib borgan tinimsiz urushlari va buning okibatida ko'plab sha-harlar hamda qishloqlarning vayron etilishi, mehnatkash xalq turmushining og'irlashib borishi va uning asosiy sa-bablarini aniklashga yordam berishi mumkin bo'lган dali-liy ma'lumotga o'ta boydir. «Tuhfat ul-xoniyy», bundan tashqari, o'zbek qavmlari, urug'lari va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotda tutgan o'rni; Ashtarkoniylar va Mangatlar hukmronligi davrida o'zbek qo'shini va mangatlar davlati-ning tuzilishi; 1722—1782 yillarda Buxoro xonligining Eron, Afg'oniston, Qozoq va Qo'qon xonliklari hamda Ko-shgar bilan olib borgan siyosiy munosabatlari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar ko'p uchraydi.

«Tuhfat ul-xoniyy»ning qo'lyozma nusxalarini ko'p. Masa-lan, faqat Sankt-Peterburg, O'zbekiston, Tojikiston ku-tubxonalarida undan 23 nusxa sakdanmokda. Shunga qaramay, bu muhim asar kam o'rganilgan. Asar biron tilga to'la tarjima qilinmagan ham. Asardan kichik bir parcha, ya'ni Muham-mad Rahimxonning 1747 yili Saraxs atrofida Eron qo'shnlari bilan to'qnashuvi rus tilida (1938 y.) e'lon qilin-gan, xolos.

**Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif.** XVIII asr-ning ikkinchi va XIX asrning birinchi yarmida o'tgan buxo-rolik tarixshunoslari. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlarga hozir ega emasiz. Lekin ularning qala-miga mansub bo'lган «Tarixi amir Haydar» («Amir Haydar tarixi») asarining noma'lum muharrir tarafidan qisqa-rtirilgan nusxasi (O'zR FA Shl qo'lyozmasi, inv. № 1836) orqali bilamiz.

«Tarixi amir Haydar» kichik asar (jami 96 varakdan iborat); muhim tarixiy manbalar asosida yozilgan va Bu-xoro xonligining Ashtarkoniylar, shuningdek, asosan, Mang'itlar

sulolasidan bo'lgan amir Haydar hukmronligi (1800—1826 yy.) davridagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi.

Asar 81 bob (doston)dan iborat. 1—2-boblari Buxoro shahri tarixiga bag'ishlangan; 3—6-boblarda Ashtarkoniylar tarixi qisqacha bayon etilgan; 7—81-boblarda esa Buxoro amirligining amirzoda Haydarning tug'ilishidan to uning vafoti (1826 yil 6 oktyabr)gacha bo'lgan tarixi hikoya qilinadi.

Asar 50-yillarda prof. A. A. Semyonov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, lekin nima sababbdandir qo'lyozma nashr etilmay qolgan. Tarjima qo'lyozmasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti ku-tubxonasida sakdanmokda.

**Mir Olim Buxoriy.** Hayoti va faoliyat haqidagi faqat quy'idagilar ma'lum: Amir Nasrullo davri (1826/27—1860/61 yy.)da Huzor (G'uzor) hokimi bo'lgan Muhammad Olimbekning xizmatida bo'lgan va uning topshirig'i bilan «*Fatxnomayi sultoniy*» (**«Sulton fathnomasi»**) nomli tarixiy asar yozgan.

«*Fatxnomayi sultoniy*» amir Shoxmurod (1785/86—1800 yy.) davridan to amir Nasrullo hukmronligining dastlabki yillarigacha Buxoro amirligida bo'lib o'tgan voqycalarini o'z ichiga oladi, lekin Shohmurod va amir Haydar davrlari qisqacha (O'zR FA Shl qo'lyozmasi, inv. № 1838, v. 7 6-55 b.), Nasrullo davri esa batassil yoritilgan.

Mazkur nusxa asarning birinchi jildi bo'lib, ikkin-chisi bizga ma'lum bo'limgan sabablarga ko'ra yozilmay qolgan.

«*Fathnomayi sultoniy*»ning birinchi qismi marhuma O. D. Chexovich tarafidan rus tiliga tarjima kilingan. Tarjima qo'lyozmasi O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Shar-qshunoslik instituti kutubxonasida sakdanmokda.

**Hakimxon To'ra.**(taxm. 1802 - vafot etgan yili ma'lum emas) Qo'qonlik yirik tarixchi olim. Ota tarafidan na-kshbandiya tariqatining yirik namoyandalaridan biri, yirik iloxiyot olimi Maxdumi A'zam Kosoni (1461/62-1542/ 43 yy.)ning avlodasi, ona tarafidan Qo'qon xoni Norbo'taxon (1770-1800 yy.)ning nabirasidir. Otasi sayyid Ma'sum-xon to'ra Umarxon davri (1809-1822 yy.)da va Muhammad Alixon hukmronligi (1822-1842 yy.)ning dastlabki yil-larida xonlikning shayxulislomi lavozimini egallab tur-gan. Hakimxon to'ra Muhammad Alixon xukmronligi avvali-da Namangan, To'raqo'rg'on va Kosonsoyda hokim bo'lgan. Lekin ko'p o'tmay otasi ham, o'zi ham xonning g'azabiga duchor bo'lib, egallab turgan lavozimlaridan bo'shatilganlar va Haj marosimini ado etish uchun Arabistonga jo'natib yuboril-gan. Otasi yo'lda, Mozori sharifda 1834 yili vafot etgan. Hakimxon to'ra esa ko'p mashaqqatlar chekib, yetti yildan keyin Rossiya, Turkiya, Iroq, Suriya va Falastin orqali Makkaga yetib bordi. O'shanda 1824 yili u Orenburgda podsho Aleksandr I bilan uchrashish sharafiga tuyassar bo'lgan. Hakimxon to'ra Makka va Madina ziyoratidan qaytgach (1828 y.) Muhammad Alixonadan cho'chib Ko'qonga bormadi va qolgan umrini Kitobda kechirdi. O'zining yozishicha, Kitobda uning qarindoshlari va ozmi-ko'pmi yer-suvi bo'lgan.

Hakimxon to'ra yirik tarixshunos olim sifatida zo'r shuxrat qozongan. U **«Muntaxab ut-tavorix»** (**«Saylanma ta-rix»**) asarining muallifidir. Asar to'la ravishda Kitobda 1843 yilning 29 may kuni yozib tamomlangan. «Muntaxab ut-tavorix»da qadimiy zamonalr (islomiyat-dan avval

o'tgan payg'ambarlar, qadimgi Eron podsholari, Xitoy va Yevropaning qadimiy podsholari va xalifayi ro-shidindan to Mavarounnahring Mang'it va Ming sulola-sidan chiqqan olyi hukmdorlar zamonigacha kechgan) tarixi bayon etiladi.

Asarda Qo'qon xonligining xonlik asoschisi Shohruh-xon (1709—1721 yy.)ning o'g'li va toj-taxt vorisi Abdura-himxon (1721-1724 yy.) zamonidan to Norbo'taxon, Olim-xon va Umarxon davrigacha kechgan tarixi haqida hikoya qili-nadi. Ayniqsa, Norbo'taxon, Olimxon va Umarxon davri tarixi yaxshi yoritilgan. Asarda muallifining Rossiya, Tur-kiya, Iroq, Shom (Suriya) va boshqa mamlakatlarga qil-gan sayohati chog'ida olgan taassurotlari va o'sha mamlakat xalklarining ijtimoiy-siyosiy hayoti, tarixi va hayat tarzi haqida keltirgan ma'lumotlari ham diqqatga sazovordir.

«Muntaxab ut-tavorix»ning qo'lyozma nusxalari kam. Uning Dushanbe (Tojikiston)da, prof. A. A. Semyonovning uy-mu-zeyida saklanayotgan forscha nusxasining fotonusxasi to-jikistonlik yirik sharqshunos olim Ahror Muksitorov ta-rafidan 1983 yili ikki kitob qilib, Dushanbeda chop etilgan. Asarning o'zbekcha nusxasi ham bo'lib, hozirda O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. № 594) saqlanmoqda.

**Axmad Donish.** Haqiqiy ismi: Ahmad ibn Nosir ibn Yusuf al-Xanafiy al-Buxoriy (Ahmad kalla nomi bilan ham mash-hur); XIX asda o'tgan ko'zga ko'ringan mutafakkir shoir, adib, tarixnavis olim va diplomat; 1827 yili Buxoroda tug'ilgan. U yoshligidan yaxshi o'qib tarix, mumtoz adapbiyat, riyoziyot (matematika), ilmi nujum (astronomiya), musiqa va tibbiyot ilmlarini yaxshi o'rgangan; husnixat va musav-virlik sirlarini ham egallagan.

Ahmad Donishning faoliyati xattotlikdan boshlangan va 50 yil (XIX asr) boshlarida amir Nasrullo xizmatiga qabul qilingan, 1870 yili iste'foga chiqib, ilmiy fao-liyat bilan mashg'ul bo'lgan.

Ahmad Donish 1857 yili amir Nasrullo, 1869 va 1874 yillari amir Muzaffar (1860—1885 yy.) elchiligi tar-kibida Peterburgda bo'ldi va Rossiyaning iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti bilan yaqindan tanishdi. Bu safarlar olimning dunyoqarashiga katta ta'sir ko'rsat-di. Pekin u Buxoroning Rossiyaga qaraganda qolokligi-ning haqiqiy sabablarini tushunib yetmadi. U jamiyatni mavjud qonun va tartiblarni takomillashtirish yo'li bilan, odil podshohning qo'li bilan qaytadan qurish mum-kin, deb hisoblardi. Olimning bu qarashlari uning «**Navodir ul-vaqoye**» (**«Nodir voqyealar»**) asarida (1875—1882 yillar orasida yozilgan) o'z aksini topgan. Axmad Donish mazkur asarida amirga davlatni boshkarish ishlarini qay-tadan qurishni maslahat berdi. Lekin amir bundan darg'a-zab bo'ldi va 70-yillar oxirida Ahmad Donish poytaxtdan uzoklashtirildi va G'uzorga qozi qilib yuborildi. 1885 yili, amir Muzaffar vafotid:in keyin, u Buxoroga qay-tib keldi va umrining qolgan qismini ilmiy mashg'ulot-lar bilan kechirdi. Ahmad Donish 1897 yili vafot etdi.

Ahmad Donish ilohiyot, ilmi nujum, geografiya, adapbiyat va tarixga oid 20 ga yaqin asar yozib qoldirdi. «Mano-zir ul-kavokib» (**«Sayyoralarining manzaralari»**), yuqori-da qayd etilgan «**Navodir ul-vaqoye**», **«Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif az amir Doniyol to asri amir Abdulahad»** (**«Buxoroyi sharif amirlarining tarjimai ahvoli»**) Amir Doniyoldan to amir Abdulahadgachha asarla-ri shular jumlasidandir.

Uzbekistonning XIX asrdagi ijtimoiy-siyosiy xayotini o'rganishda olimning so'nggi asari — «Tarjimayi ahvoli amironi Buxoro» (1885 yildan keyin yozilgan) katta ahami-yatga ega. Asarda, katta so'z boshi (sayyoralarining inson taq-diridagi ahamiyati, din va uning o'rni) dan keyin qisqa tarzda amir Doniyor (1758-1785 yy.), Shoxmurod (1785-1800 yy.), Haydar va amir Nasrullo hukmronligi yillarda bo'lib o'tgan voqealar bayon etiladi.

Asarning katta va so'nggi qismi amir Muzaffarga ba-g'ishlangan. Bu qismda Buxoro xonligining XIX asr ik-kinchchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, chor Rossiysi qo'shini tomonidan Jizzax (1866 y.) hamda Samarkand (1868 y.)ning ishg'ol qilinishi voqealarini ba-tafsil bayon etilgan.

«Tarjimai ahvoli amironi Buxoroyi sharif»ning qo'lyozma nusxalari Toshkent, Samarkand, Buxoro, Dushanbe kutubxonalarida saklanadi. Asarning matni mashxur sharqshunos olim prof. Abdug'ani Mirzayev tomonidan chop etilgan. Uning qisqartirilgan ruscha tarjimasi ham Du-shanbeda nashr qilingan (1960 y.).

**Mirzo Abduazim Somiy Bo'stoniy (1838/39-1914 yildan keyin)** — buxorolik mashxur tarixshunos olim va shoir. Boshlang'ich ma'lumotni ona yurti Bo'ston qishlog'ida (Bu-xoroning shimolida, undan 40 km narida) olgan, so'ngra Buxoro madrasalaridan birida o'qigan; so'ng dastlab viro-yat hukmdorlari (hokimlar) qo'liga kotib, amir Muzaffar taxtga utirgandan keyin uning shaxsiy kotibi (munshiysi) bo'lib xizmat qilgan. Amir Abdulahad hukmronligi (1885-1910 yy.)ning so'ngida (1898 yoki 1899 yilda) podsholikka qarshi fikrlari uchun saroydan chetlatilib, umrining oxi-rini nochorlikda kechirgan.

Somiy Bo'stoniy bir necha adabiy va tarixiy asar yozib qoldirgan. «Mir'ot ul-xayol» («Xayol ko'zgusi»), «Insho», «Tuhfayi shohiy» («Podshohning tuhfasi»), «Tarixi sa-lotini Mang'itiya» («Mang'it hukmdorlari tarixi») shu-lar jumlasidandir. Olimning yuqorida zikr etilgan asarlaridan eng muxi-mi so'nggi ikki tarixiy asardir. Lekin «Tuhfayi shohiy» (1900—1902 yillar orasida yozilgan) ham, «Tarixi saloti-ni Mang'itiya» (1907 yili yozib tamomlangan) ham bir davr tarixiga, Buxoro xonligining amir Muzaffar davridagi tarixiga bag'ishlangan. Biroq, ular ma'lum darajada bir-biridan farq qiladi. Masalan, «Tuhfayi shohiy» to'laroq, lekin oly hukmdorni ko'klarga ko'tarib maqtash (panegi-rizm) ruhiha bitilgan. «Tarixi salotini Mang'itiya» esa nisbatan xolisona yozilgan. Asarning ilmiy ahamiyati shun-daki, unda Buxoro amirligining O'rta Osiyoning Rossiya tarafidan bosib olinishi arafasidagi iqtisodiy va siyo-siy ahvoli, shuningdek, Buxoro-Rossiya munosabatlari bir-muncha keng yoritilgan.

Asarning qo'lyozma nusxalari ko'p. Uning o'zbekistonlik sharqshunos olima L. M. Yelifanova tomonidan qilingan ruscha tarjimasi, so'z boshi va zarur izohlari bilan birga, 1962 yili, Moskvada chop etilgan.

**Mirza Salimbek** (to'la ismi: Mirza Salimbek ibn Mu-hammad Rahim) XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr-ning birinchi choragida o'tgan tarixshunos olim. Hayoti va ilmiy faoliyatiga haqidagi faqat quyidagilar ma'lum: 1850—51 yillari Buxoroyi sharifda tavallud topgan; badavlat va nufuzli xonadonga mansub; 1871 yili Naxrpoy (Nor-poy) va Ziyovuddin hokimiga kotib bo'lib ishga kiradi, lekin olti oydan keyin amir Muzaffarning farmoyi-shi bilan Toshkentga kuzatuvchi (rus ma'murlarining xat-ti-harakati va ayniqsa Buxoro xususida tutgan

siyosati-ni kuzatib boruvchi) qilib yuborildi. Mirza Salimbek Toshkentga choyfurush qiyofasida keldi va bu yerda 12 yil istiqomat qildi. 1880-1883 yillari u amir huzurida, 1884-1885 yillari Turkiston general-gubernatori huzu-rida Buxoro vakili bo'lib xizmat qildi. 1885 yili Mirza Salimbek Somjin tumaniga amlakdor qilib tayin-landi. Shundan keyin uning martabasi yil sayin ortib bordi: 1888-1893 yillari Buxoro shahrining mirshabi, 1893-1920 yillari Yakkabog', Nurota, Boysun, Sherobod, Shaxrisabz, Chorjo'y viloyatlarining hokimi va bosh za-kotchi vazifalarida turdi. 1920 yilgi inqilobdan keyin Mirza Salimbek sho'ro tashkilotlarda, Buxoroda tash-kil etilgan «Anjumani tarix» («Tarixshunoslar jamiya-ti»)da xizmat qildi. Mirza Salimbekning vafot etgan yili ma'lum emas.

Mirza Salimbek bir necha yirik tarixiy va adabiy asar-lar yozib qoldirgan. «Kashkuli Salimiyy» («Salimiining kashkuli»), «Jomi' ul-gulzor» («Gulzorlar majmui»), «Ka'b al-axbor hikoyalari», «Hikoyati Abdulla ibn al-Muborak», «Tarixi Salimiyy» («Salimiining tarixi») shular jumla-sidandir. Tarixchilar uchun eng muhimi uning so'nggi asari — «Tarixi Salimiyy»dir. Asarning yozilgan yili noma'lum. Tad-qiqotechilardan biri (N. Norqulov)ning fikriga Karaganda, asrimizning 20-yillarida yozilgan. Uning bosh qismi (Chingizxonidan to amir Muzaffar davrigacha) kompilyasiya bo'lib, mustaqil ahamiyatga ega emas. Asarning 1860—1920 yillar voqealarini o'z ichiga olgan katta kismi asl nusxa bo'lib, muallifning o'zi bu voqealarining guvohi bo'lgan.

Asarda amir Muzaffar davrida Hisor, Ko'lob, Baljuan, Qorategin va Darvozda bo'lib o'tgan isyonlar, Buxoro-Qo'qon va Buxoro-Rossiya munosabatlari, shuningdek, Buxoro amir-ligining XIX asning ikkinchi yarmidagi umumiy ahvoli va ma'muriy tuzilishi haqida qimmatli

«Tarixi Salimiyy» asarining qo'lyozma nusxalari ko'p. Asar 1968 yili N. Norqulov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan, lekin hali chop etilmagan.

**Muhammad Solih Toshkandi** (to'la ismi sharifi Mu-hammad Solih domla Rahim Qoraxoja o'g'li). Toshkentlik yirik tarixshunos olim; taxminan 1830 yili tug'ilgan; vafot etgan vaqtida noma'lum. Boshlang'ich ma'lumotni bo-bosi mulla Abdurahimxoja (u Qiyot mahallasida joylashgan Bekmuxammadbiy masjidida imom bo'lgan)dan olgan, so'ng Beklarbegi va xoja Axror madrasalarida o'qigan. Farg'ona-ning Qo'qon (1853 y.), Marg'ilon, Namangan va O'sh (1853 y.) shaharlarida, keyinchalik Buxoro, Samarkand, Qarshi, Shaxrisabz va boshqa shaharlarda bo'lib, madrasada olgan bilimini kengaytirdi. 1863 yildan boshlab ilgari bobosi imomlik kilgan masjidda imom bo'lib xizmat qildi, ayni paytda dare ham berib turdi.

Muhammad Solihturli ilmlar (tarix, geografiya, ada-biyot, tibb)dan xabardor bo'lgan keng ma'lumotli kishi edi, lekin uning tarixga rag'batli ko'proq bo'lgan. U Abu Tohir-xoja (XIX asr)ning «Samariya»siga o'xshash Toshkent, uning tarixi va osori-atiqalariga bag'ishlab bir asar yozishni ko'pdan orzu kilib yurgan va nihoyat, 1863—1888 yillari maqsadiga erishgan. Bu asar «Tarixi jadidayi Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi») deb ataladi va ikki jidd-dan iborat. Birinchi jilda qadim zamonlardan to XV asr oxirigacha Sharq mamlakatlarda, shuningdek O'rta Osiyoda bo'lib o'tgan voqealar, ikkinchi jilda esa Qo'qon xonli-gining XV asr oxiridan (Zahiriddin Muhammad Bobur dav-ridan) to XIX asning 80-yillarigacha bo'lgan ijgimoiy-siyosiy ahvoli, madaniy hayot haqida kimmattli ma'lumotlar uchratamiz.

Asar hali biron tilga tarjima kilinmagan. Qo'lyozma nusxalari mavjud. Faqat Toshkentda, O'zR FA Sharqshunoslik institutida, uning uch nusxasi (inv. № 7791, 11072—73, 5732) saklanadi.

**Kitobi Mullazoda(«Mullazoda kitobi»)** — Buxoroyi Sharifning XIV—XV asrlardan qolgan osori-atiqlarini va mashhur ziyyaratgoxlari, u yerda dafn etilgan valiyilar, shay-xlar, umuman mashhur kishilar haqida ma'lumot beruvchi asar. XIV asr oxiri—XV asr boshlarida yozilgan.

Muallif haqida ma'lumotlar kam. Ismi sharifi: Axmad ibn Mahmud bo'lib, mo'yin ul-fuqaro (faqirlar tayanchi) taxallusi bilan ham mashhur bo'lgan. Asar yaqin-yaqinlargacha ko'pchilik tadqiqotchilarga ma'lum emas edi. Bunga uning qo'lyozma nusxalari ma'lum bo'lma-ganligi sabab bo'lgan. 1960 yili asarning forsha matni Teh-ronda Gulchin Ma'oniy tarafidan chop etilgandan keyin il-miy jamoatchilik orasida asarga qizikish birmuncha kuchaydi. Asar 1992 yili rus tilida R. L. G'ofurova tarafidan e'lon qilindi.

«Kitobi Mullazoda» — kabristonlarni erkak va ayollar ziyyarat qilsalar bo'ladi va bu ziyyaratni qanday ado etish haqidagi ikki maxsus bob va ikki qismidan iborat asar. Birinchi qismida shahar ichidagi va uning tashqarisida, sha-hardan yarim farsax masofada dafn etilgan ulug' shaxslar (shayxlar, din ulamolari) va ularning muqaddas mozorla-ri haqida ma'lumot beradi. Bular ichida mashhur shayx, imom va ilohiyot olimi xoja Abu Hafs kabir (xoja Abu Hafs Ahmad ibn Hafs ibn al-Zabarkan ibn Abdulloh ibn al-Bahr al-Ijliy al-Buxoriy; 767-832 yy.), shogirdi xoja Abdulloh Safidmuniy, Saflariya imomlarining mozor-lari, yirik imom, muhaddis Abu Hafs kabir, Chashmayi Ayubdag'i mozorlar, Ismoilija imomlarining mozorlari. Talli xoja Chorshanbadagi mozorlar, Safidmun va xoja Jandi qishlokdiradagi mozorlar shular jumlasidandir.

Asarning ikkinchi qismida Buxoroyi sharifning mashhur qishloklaridan Fathoboddagi muqaddas ziyyarat-gohlar, masalan, shayx Abulmaoliy (1190—1261 yy.), uning ikki o'g'li Xovand Jaloliddin va Xovand Muta-hiruddinlarning mozorlari va o'zlari haqida ma'lumot keltiriladi. Shu qismida joy olgan Buxoro sadrlari (Burhoniyalar) haqida keltirilgan ma'lumotlar ham o'ta muhimdir.

*Ikki og'iz so'z Buxoro sadrlari haqida. Aslida ular kim edilar? Buxoro sadrlari bir xonadonga (Abdulaziz ibn Umar Moz xonadoniga) mansub bo'lgan va muctasib (rais) lavozimini egallagan oliy nasab shaxslar edilar. «Kitobi Mullazoda»da ularning kelib chiqishi (shaja-rasi) haqida, hayoti va vafot etgan yillari haqida kim-matli ma'lumotlar keltiriladi.*

Buxoroyi sharifida o'tgan buyuk shaxslar: xoja Abubakr tarxon, mavlono Hofzuddin Kabir, Abu Abdulloh Mu-Hammad al-Buxoriy, yetti qozi (Abu Zayd Abdulloh Umar ibn Iso ad-Dabusiy, Abu Ja'far Muhammad ibn Amr ash-Sha'biiy, Ismoil Mustamoliy va b. q.) haqida keltirilgan ma'lumotlar ham diqqatga sazovordir. Masalan, imom Abu Zayd Ubaydulloh Umar ibn Iso ad-Dabusiy ham yirik fiqh va ilohiyot olimi bo'lgan. Uning musulmon qonunchiligiga oid «Omad al-Aqso» («So'nggi hudud») o'z zamonasida juda mashhur bo'lgan. Abu Zayd Abdulloh Umar 1038 yili 63 yoshida vafot etgan.

Pirovardida XVIII asrga oid va Samarcanddag'i ziyo-ratgoxlari va shahar toponimikasiga oid yana bir kitob — Abu Tohirxojaning «Samariya» asari haqida qisqacha ma'lumot keltirmoqchimiz. Asar muallifi Samarcand qozisi Abu Sa'id ibn Abdulla-hayning o'g'lidi. Abu Tohirxoja otasi ham, bobosi mavlo-no Mir Abdulla-hay ham o'qimishli kishilar bo'lishgan. May-

*lono Mir Abdulhay (1755—1827 yy.) Samarcandda 40 yil qozikalon mansabida turgan. Shu bilan birga u bir talay ilmiy asarlar yozib qoldirgan. «Havoshi shofy bar sharhi Bayzaviy», «Sahibi Buxoriy»ning forscha sharxi, «Zaburi Dovudiy»ning forsycha sharhi, «Axloqi Bahodurxon» shu-lar jumlasidandir. Otasi Abu Sa'idxoja (1849 yil 28 av-gustda vafot topgan) ham keng ma'lumotli kishi bo'lgan. Fiqh va kalom (diniy aqidalarni isbotlash ilmi)da benazir bo'lgan.*

**«Samariya»** 11 bob, muqaddima va xotimadan iborat bo'lib, Samarcand shahrining buniyod etilishi, shaharning «Samarkand» deb atalishining sabablari, shaharning geografik holati, ob-havosi, uning XIX asming uchinchi choragiiga kadar saklanib qolgan osori-atiqalari va mashhur kishilar haqida ma'lumot beradi. Asarning o'zbekcha tarjimasi 1921 yili samarcandlik yosh, salohiyatl olim Abdulmo'min Sattoriy tarafidan amalga oshirilgan edi. Lekin, og'ir xastalik va bevakta o'lim (1925 yil 23 iyulda) unga tarjimani chop qilishga imkon bermadi. Atokdi yozuvchi va olim Sadreddin Ayniy 1925 yili o'sha yillari maorif noziri bo'lib ishlab turgan Abdurauf Fitratning taklifi bilan, uni taxrir qilib, nashrga tayyorlagan edi. Lekin asar chop etilmay qoldi. Ayniy domlaning qo'lyozmasi hozirda O'zR FA ShI fondida 600-raqam ostida saqlanmoqda. Asar A. Juvonmardiye bilan birga qayta nashrga tayyorlandi va chop etildi (Toshkent, 1991 y.).

**«Majmu' al-g'aroyib»** («G'aroyibotlar majmu'asi») 1569 yili Balx xoni Shayboniy Pirmuhammadxon 1 (1546—1566/ 67)ning topshirig'i bilan yozilgan. Asar muallifi balxlik olim Sulton Muhammad bo'lib, uning haqida bizga faqat quyidagilar ma'lum. Otasi mavlono Darvish Muhammad Balx-ning o'qimishli va katta nufuzga ega bo'lgan kishilaridan biri edi. Shayboniy hukmdorlardan Xurramshoh sulton (1506-1511) va Kistinqora sulton (1526-1544) davrida Balxning mustiysi lavozimida xizmat qilgan. Eski o'zbek tilida she'rlar ham bitgan. She'rlaridan ayrim parchalar «Majmu' al-g'aroyib»da keltiriladi. Darvish Muhammad mustiy 1550 yil 19 fevralda vafot etgan. Asar muallifi Sulton Muhammad Balxiy ham zamonasining keng ma'lumotli kishilaridan bo'lgan. U xususan tarix, geografiya, astrologiya, mineralogiya, ilohiyot, fiqh (musulmon qonun-shunosligi) va adabiyot ilmlaridan boxabar kishi bo'lgan. Otasi vafotidan keyin uning mansabida turgan Sulton Muxammad 1573 yil 12 may kuni vafot etgan. «Majmu' al-g'aroyib»ni yozishda Sulton Muhammad al-Balxiy o'zidan avval o'tgan olimlarning asarlaridan, shuningdek Balx mamlakati bo'ylab qilgan sayohatlari pay-tida to'plagan ma'lumotlardan keng foydalangan. Olim foydalangan asarlar ichida yetib kelmaganlari va kam ma'lum bo'lganlari ham ko'p. «Op al-mutaqaddimin» («Salaf-larning fikrlari»), «Tarixi saqoliba» («Slavyanlar ta-rixisi»), «Onis ul-vaxdat va jolis ul-xilvat» («Yolg'izlar dusti va xilvatda o'liruvchilar suhbatdoshisi») kabi asarlar shular jumlasidandir. «Majmu' al-g'aroyib» ilm axli orasida keng tarqalgan asar. Uning hozirgacha sakdangan nusxalari 80 dan ortiq. Uning ma'lumotlaridan juda ko'p olimlar foydalangan. Ulardan mashhur «Abdullahoma» asarining muallifi Hofizi Tanish Buxoriy, «Ajoyib at-tabaqot» kitobining musannifi mavlono Muhammad Tohir va XVII asrda o'tgan qomusiy olim Mahmud ibn Vali shular jumlasiga kiradi.

### I.3. O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar birinchi yarmi tarixiga oid turkiy tilidagi manbalar

Turkiy tilda yozilgan manbalar O'rta Osiyo turkiy tilli "Chug'atoy tilli" yoki "eski o'zbek tili" sifatida ham anglashiladi. Bu davr uchun o'ziga xos asarlar turkiy vakillari – hukmdorlar topshirig'iga ko'ra yoxud turkiy tilli muarrixlar, shoirlar, yozuvchilar tomonidan yozilganligi muhim xarakterga egadir. Quyida mazkur asarlarning ayrimlariga to'xtalib o'tilinadi:

**Zahiriddin Muhammad Bobur va uning "Boburnoma" asari.** 1483-yil 14-fevralda Andijonda tug'ildi. Bobur Vatanimiz tarixidagi takrorlanmas siymlardan biridir. U nafaqat yirik adib, buyuk tarixchi, ulkan olim, balki mohir sarkarda va davlat arbobi ham edi. Uning ijodi mana shu sohalar bilan chambarchas bog'liq holda yuzaga keldi. Uning mustaqil siyosiy faoliyati juda erta – otasi Umarshayx mirzoning kutilmaganda vafot etishi munosabati bilan boshlandi. O'shanda u bor-yo'g'i 12 yoshda edi. Bobur bobosi Amir Temur davlatining poytaxti – Samarqand shahrinis ishg'ol qilish uchun bir necha marta urinib ko'rdi. Dastlabki muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritdi. Shunga qaramay, uni qo'lda tutib turishning imkonini topa olmadi.

Keyinchalik u o'z she'rlaridan birida shunday deydi:

*Davron meni o'tkardi sari somondin,  
Oyirdi meni bir yo'li xonumondin,  
Gah boshima toj, gah baloyi ta'ma,  
Nelarki, boshima kelmadi davrondin.*

Zahiriddin Muhammad Boburning yagona maqsadi yirik va mustahkam markazlashgan davlat tuzishdan iborat edi. Bu maqsad amalga oshdi. Biroq u o'zi tug'ilib o'sgan yurtda – Movarounnahrda emas, balki undan ancha olisda – Hindistonda amalga oshdi. Adibning o'zi bu hodisadan doimo iztirobda bo'lganligi asarlarida juda yorqin tarzda aks etgan:

*Tole yo'qi jonimg'a balolig' bo'lди,  
Har ishniki aylадим, xatолиг' bo'lди.  
О'з yerni qо'yub Hind sori yuzландим,  
Yo rab, netayin, ne yuz qаролиг' bo'lди.*

Zahiriddin Muhammad Boburdan bizga uning devonlari, "Boburnoma"si, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta'limiylu ruhdagi asarlaridan iborat meros qoldi. U Xoja Ubaydullohning "Risolayi volidiya"sinini o'zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid "Mubayyin" nomli masnaviyini yaratdi, "Xatti Boburiy"ni ixtiro qildi.

Bir necha muddat oldin podsholikni Humoyunga topshirigan Bobur 1530-yil 26-dekabrda, 47 yoshida o'zi asos solgan saltanat poytaxti Agrada vafot etdi va o'sha yerda



dafn etildi. Keyinchalik, 1539-yil, vasiyatiga muvofiq, xoki Kobulga keltirilib, o'zi bunyod ettirgan "Bog'i Bobur"ga qo'yildi.



*(XVI asr jang tasviri. "Boburnoma" miniaturasidan)*

Asardan *parcha*: Dizak haqida, "Semiz etlar va mayda etmaklar arzon, chuchuk qovunlar va yaxshi uzunlar farovon, Andoq usrattin mundoq arzonliq va andoq baliyatting mundoq amonlikka keldik".

Zahiriddin Muhammad Bobur O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng o'z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomida universitet, teatr, kutubxona, milliy bog' ("Bog'i Bobur") bor. Bobur milliy bog'i majmuasida "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi, shoirning ramziy qabr-maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida va Bobur bog'i idagi yodgorlik majmuyida shoirga haykal o'rnatildi. Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek, Toshkentdag'i istirohat bog'i va ko'chaga, Andijon viloyati. Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berildi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Bobur nomidagi medali ta'sis etildi.

1993-yil 23-dekabrdagi tashkil etilgan Xalqaro Bobur jamg'armasi Bobur ijodini o'rganishda katta ishlarni amalgalashdi. Jamg'armaning ilmiy ekspeditsiyasi 10 dan ortiq Sharq mamlakatlari bo'ylab ilmiy safarlar uyuştirib, Bobur va boburiylar qadamjolari, ularning ilmiy merosiga oid yangi ma'lumotlar to'plab, ularni ilmiy iste'molga kiritdi. Mazkur ma'lumotlar asosida 10 dan ziyod ilmiy, hujjatli, badiiy asarlar, 10 ga yaqin hujjatli, videofilmlar yaratildi. Jamg'armaning Lohur (Pokiston), Haydarobod (Hindiston), Abu Dabi (BAA), Moskva (RF), O'sh (Qirg'iziston), Toshkent, Namangan shaharlarida bo'limlari mavjud ("Adabiyot" (Boqijon To'xliyev, Bahodir Karimov, Komila Usmonova. O'rta ta'lim muassasalarining 10-sinf va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining o'quvchilari uchun darslik-majmua; "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2017).

**Muhammad Solih (taxm. 1455 —1535 yy.).** Hayoti va faoliyati haqida quyidagilar ma'lum: turkiyabon bilkut qabilasidan chiqqan; Shohruh va Ulug'bek davrida zo'r nu-fuzga ega bo'lgan amir Shoxmalikning nabiris. Otasi amir Hyp Saidbek ham yirik amirlardan bo'lib, Mirzo Ulug'-bek, so'ngra Sulton Abu Sayd mirzo xizmatida bo'lgan; 1464-1467 yillari Xorazmda hokim bo'lgan va 1467 yili Sulton Abu Saidning farmoni bilan qatl etilgan. Mu-hammad Solihning yoshligi Hirotda kechgan va o'sha yerda o'qib nash'u namo topgan, so'ngra Sulton Husayn, 1494 yildan Samarqandda katta nufuzga ega bo'lgan Temuriy amirlardan Darvish

Muxammad tarxon va xoja Ubaydulla Axrorning o'g'li xoja Muhammad Yahyo, 1500 yildan esa Shayboniyxonning xizmatida bo'lgan; 1500-1504 yillari mazkur xonning Buxoro va Chorjo'ydag'i noibi bo'lib, shun-dan keyin, to vafotiga qadar, Shayboniylardan Mahmud sulton (1505 yili vafot etgan) va Ubaydullaxonning ko-tibi bo'lib xizmat kilgan.

Muhammad Solih Shayboniyxonning hayoti va olib bor-gan urushlari haqida hikoya qiluvchi she'riy «Shayboniy-noma» nomli asar yozib qoldirgan. Asar Shayboniyxon tu-g'ilgandan boshlab, to 1505 yilgacha Dashti qipchoq. Mavarounnahr hamda Xorazmning ijtimoiy-siyosiy tarixidan bahs yuritadi. Asarda ko'chmarchilar qo'shinlarining yovuz-liklari, mehnatkash xalqning og'ir ahvoli, Qorako'l, Qar-shi va Huzorda Shayboniylarga qarshi ko'tarilgan qo'zg'onlonlar haqida ham qimmatli ma'lumotlar uchratamiz. Asar geografik va etnografik ma'lumotlarga ham boydir. «Shayboniy-noma» 1505 yildan keyin yozilgan. Uning qo'lyozma nusxalarini kam, hozirgacha asarning faqat ikkita nusxasi aniklangan: ulardan biri Vena (Avstriya)da, ik-kinchisi esa Sankt-Peterburg universiteti kutubxonasida sakdanadi. Asar uch marta (1885, 1908, 1961 yy.) nashr etilgan<sup>10</sup>.

### **“Ahsan ut-tavorix”**

“Ahsan ut-tavorix” 12 jilddan iborat umumiy tarix yo'naliishida yaratilgan yirik asar bo'lib, uning muallifi XVI asrda o'tgan eron tarixchisi Hasanbek Rumludir. Tarixchi yirik harbiy sarkarda oilasiga mansub bo'lib, bobosi Amir Sulton (1539-1540 yili vafot etgan) o'z vaqtida Qazvin hamda Soujbuluoq hokimi bo'lgan<sup>11</sup>. Hasanbek 1530-1531 yillari Qum shahrida tug'ilgan, yaxshi o'qib ta'lim olgan va 1541-1542 yildan boshlab otasi bilan birga qurchi bo'lib shoh Tahmosib (1524-1576 yy.)ning harbiy yurishlarida qatnshgan va asarida yozilgan voqealarning ko'plarini o'z ko'zi bilan ko'rgan.

XII jildli “Ahsan ut-tavorix” asarining faqat XI-XII jildlari saqlanib qolgan bo'lib, ularda 1405-1577 yillar orasida Eronda, shuningdek, Mavarounnahr, Hindiston, Turkiya, Ozarbayjon va Gurjistonda bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar yilma-yil bayon etilgan. Asarning 12 jildi butunlay yangi hisoblanadi va unda asosan Eronning 1495-1577 yillardagi syosiy tarixini o'z ichiga oladi. Asar 1572-1577 yillari yozib tamomlangan.

Hasanbek Rumluning asarida Safaviyalar sulolasiga mansub shohlar ta'riflanadi, ularning faoliyati va bosqinchilik urushlari bir tomonlama yoritiladi. Asarda 1495-1577 yillar orasida qo'shni mamlakatlar, shuningdek, O'rta Osiyo xonliklari, Buxoro, Xiva bilan bo'lgan siyosiy munosabatlariga oid qimmatli ma'lumotlar ko'p. Bobur bilan shoh Ismoil o'rtaida Shayboniylarga qarshi tuzilgan harbiy-siyosiy ittifoq, Shayboniylar bilan Eron shohlari o'rtaida Xuroson uchun uzoq yillar davom etgan qurolli kurash va uning oqibatlari, Xorazmning XVI asrning birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli haqidagi maxlumotlar ana shular jumlasidandir.

“Ahsan ut-tavorix” dan ayrim parchalar rus va gruzin va nemis tillariga o'girilib, to'plamlarda chop etilgan. Forscha matni, inglizcha tarjimasi bilan birga, 1931 va 1934 yillari Ch.N.Seddon tarafidan Hindistonning Baroda shahrida chop qilingan.

<sup>10</sup> Manbushunoslik. Toshkent, Turon-Iqbol, 2019. – B. 228-230.

<sup>11</sup> Zamonov A. Buxoro xonligi tarixi. Metodik qo'llanma. Toshkent, Bayoz, 2021. B. 12-15.

### **“Akbarnoma” yoki “Iqbolnoma”**

“Akbarnoma” yoki “Iqbolnoma” nomli asar muallifi Abulfazl Allomiydir. U XVI asrda Hindistonda yashagan yirik tarixnavis olim va davlat arbobidir. Olimning nomi Abulfazl ibn Muborak bo’lib, bilim doirasi juda keng bo’lgani uchun Allomiy, bilimlar sohibi deb atashganlar. U 1551 yil 14 yanvarida Agrada tug’ilgan. Otasi shayx Muborak ibn Xizr o’z davrining mashhur ilohiyot olimlaridan hisoblangan. Akasi Abulfayz yirik shoir va olim bo’lgan.

Abulfazl Allomiy 1574-1602 yillari Boburning nabirasi Jaloluddin Muhammad Akbar (1556-1605 yy.)ning Bosh vaziri bo’lgan va Hindistonning XVI asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o’ynagan. 1602 yil 22 avgustda Dekan subasidan qaytib kelayotganida, shahzoda Sulton Salim, bo’lg’usi Jahongir yollagan qotil tomonidan yo’l kstida o’ldirilgan.

Abulfazl Allomiyning asosiy asari “Akbarnoma” yoki “Iqbolnoma” Hindiston va Afg’onistonning XVI asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixidan baxs yuritadi. Ma’lum darajada “Vaqoe” yoki “Boburnoma” asarini davomi sifatida yaratilgan bu ulkan asar uch kitobdan iborat. Birinchi kitobda Akbarning tug’ilishi, ota-bobolari – Bobkr, Humoyun, shuningdek Akar podshohligining dastlabki 17 yil ichida bo’lib o’tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar bayon qilinadi.

Ikkinchi kitob Hindiston va qisman Shimoliy Afg’onistonning 1573-1601 yillardagi tarixini o’z ichiga oladi.

Uchinchi kitobda Boburiylar davlatining tuzilishi, Hindistonning ma’muriy tarkibi, aholidan yig’iladigan soliq hamda jarimalar va ularning miqdori, hindlarning dini va urf odatlari kabi masalarga keng o’rin berilgan. Uchinchi kitob mustaqil mazmunga ega va uni “Oyini Akbari” (“Akbar qonunlari”) nom bilan ataladi.

“Akbarnoma” asarining matni 1872-1877 yillari, G. Beverij tomonidan inglizchaga qilingan tarjimasi 1903-1921 yillari Kalkuttada chop etilgan.

“Akbarnoma” Boburiylar saroyida mutazam yuritilgan maxsus kundalik davtar, rasmiy davlat hujjatlari, shuningdek, bo’lib o’tgan voqealarning ishtirokchilari bo’lgan, yoki o’sha voqealarni bilgan kishilarning og’zaki axborotlari asosida yozilgan. Asarning noyobligi va qimmatligi ham shundandir.

Abulfazl Allomiy asari Boburiylar davlati va Buxoro xonligi o’rtasidagi siyosiy va madaniy munosabatlarni o’rganishda muhim manbalardan biri hisoblanadi.

Abdulla Nasrullohiy. XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning birinchi yarmida o’tgan balxlik tarixshu-nos olim. Haqiqiy ismi-sharifi: Abdulla ibn Muham-mad ibn Ali Nasrullohiy. Hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma’lumotlar kam. XV asrning 80-90-yillarida Balx hokimi Temuriyzoda Badiuzzamon mirzoning xizmati-da bo’lgan. Hirot Shayboniyxon tomonidan ishg’ol etilgan (1507 y.)dan keyin uning xizmatiga kirgan. Shayboniyxon halok bo’lgandan keyin, uning o’g’li Muhammad Temur sulton huzuriga, Samarqandga kelgan. Bobur mirzo qizilboshlar bilan ittifoq tuzib, Movarounnaxrga bostirib kirgan (1511 yil yanvar oyida), Shayboniy sultonlar bilan birga Toshkentga kelgan va Suyunchxo-jaxonning

xizmatiga kirgan. Oradan ko'p vaqt o'tmay, Abdulla Nasrullohiy Suyunchxojaxonning o'g'li, Shohruhiya<sup>1</sup> hokimi Sultan Muhammad (ko'pincha Keldi Mu-hammad nomi bilan mashhur)ning xizmatiga yollangan va 1525 yili uning topshirig'i bilan o'zining «Zubdat ul-asar» («Solnomalar sarasi») nomli kitobini yozgan.

«Zubdat ul-asar» umumiylar tarix yo'nalishida yozilgan va qadim zamonlardan to 1525 yilgacha musulmon mamlakatla-rida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy voqyealarini qisqacha bayen qildi. Asar 11 qism (fasl)dan iborat bo'lib, uning faqat so'ngti, o'n birinchi qismi asl nusxa hisoblanadi. Unda XVI asrning birinchi choragida Xuroson va Movarounnahrda so-dir bo'lган voqyealar birmuncha keng yoritilgan. Ayniqsa, Shayboniy sultonlar (Suyunchxojaxon, Ko'chkunchixon, Jo-nibek sulton, Ubaydullaxon, Muhammad Temur sulton) bilan Zahiriddin Muhammad Bobur va uning ittifosqehilar bo'lmish qiziboshlar o'rtasida Movarounnaxr uchun davom etgan qurolli kurash; Suyunchxojaxon bilan Sultan Said-xon (1512—1514 yy.) o'rtasida toju taxt uchun bo'lgan kurash va Farg'onanining ko'chmanchi o'zbeklar tarafidan qaytadan bo'ysundirilishi; Shayboniyarning 1514, 1520, 1524 yil-lari Xuroson ustiga qilgan harbiy yurishlari va Balxniig bo'ysundirilishi (1526 y.); Shayboniylar bilan qozoqsul-tonlari, xususan Qosimxon (1511—1523 yy.) o'rtasida Sir-daryo bo'yida joylashgan shaharlar (Yassi, Savron, Suzoq, Sayram va b.) uchun olib borilgan kurashlar tarixi birmuncha keng bayon etilgan.

«Zubdat ul-asar»ning qo'lyozma nusxalarini juda kam. Ma-salan, undan faqat ikki nusxa sakdanib qolgan. Ulardan biri Toshkentda, ikkinchisi esa Sankt-Peterburgda saq-lanmoqda. Afsuski, ularning har ikkalasi ham mukammal emas, masalan, Toshkentda, Sharqshunoslik instituti ku~ tubxonasida saqlanayotgan nusxa (inv. № 608) asarning faqat 8, 9, 10 va qisman 11-fasllarini o'z ichiga oladi.

Tarix 1512 yil voqyealari bilan uzilib qolgan. Sankt-Peterburgda Rossiya Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg bo'limi kutubxonasida sakdanayotgan nusxa (inv. № D 104) esa fakat asarning 10-va 11-fasllarini o'z ichiga oladi.

Abdulloh Nasrullohiyning mazkur asari juda kam o'rga-nilgan. Undan faqat ayrim parchalar rus tilida ba'zi ilmiy majmualarda chop etilgan.

### **“Tarixi Muqimxoniy”**

“Tarixi Muqimxoniy” nomli tarixiy asar muallifi XVII asrda o'tgan yirik olim Muhammad Yusuf Munshiyidir. Asarida keltirilgan ma'lumotlarga qaraganla, asli balxlik bo'lgan va Subxonqulixon (1651-1680 yillari Balx, 1680-1702 yillari Buxoro xoni) hamda Muhammad Muqimxon (1697-1707 yillari Balx xoni) saroyida munshiy bo'lib xizmat qilgan.

Muhammad Yusuf Munshiy Muhammad Muqimxonga bag'ishlangan “Tarixi Muqimxoniy” nomli asarini yozgan. Mazkur asar 1697-1704 yillar orasida yozilgan bo'lib, Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy tarixini bayon etadi. Muhammad Yusuf Munshiy agar “jahon hodisalarining kuchli shamoli uning (Muhammad Muqimxonning) hayot o'tini o'chirmasa, yo'qsizlik dengizining to'lqinlari o'ynoqi otini o'z girdobiga tortib ketmasa” ushbu asarining ikkinchi qismini ham yozish niyatida ekanligini aytadi. Lekin “Tarixi Muqimxoniy”ning ikkinchi kitobi yozilmay qolgan.

Fikrimizcha, bunga qandaydir kutilmagan hodisa, balki muallifning biron falokatga uchrab qolganligi sabab bo'lgan.

"Tarixi Muqimxoniy" muqaddima va uch bodan iborat.

Muqaddimada turkiy xalqlarning afsonaviy onasi Alan quva, Chingizxonning otabobolari, mo'g'ul qo'shinlari tomonidan Movarounnahr, Balx va Badaxshonning bosib olinishi tarixi qisqacha bayon etilgan.

Asarning birinchi bobi Shayboniylar davrida Movarounnahrning umumiyligi ahvoldan hikoya qiladi.

"Tarixi Muqimxoniy"ning yangi va muhim qismi uning II-III boblaridir. Ikkinchini bobda Balx va qisman Buxoro xonligining XVII asrdagi ijtimoiy-siyosiy ahvoli, shuningdek, Buxoro va Balx xonliklarining Hindiston, Eron, Turkiya va Koshg'ar bilan bo'lgan siyosiy munosabatlari, uchinchi bobda esa 1702-1704 yillar voqealar, xususan Buxoro bilan Balx o'rtaida boshlangan qurolli kurash o'rinni olgan.

Asarda xonlar va katta yer egalari to'g'risida, mexnatkashlar og'ir ahvoli to'g'risida ayrim qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

"Tarixi Muqimzoniy" asarining qo'lyozma nusxalari ko'p va Sankt-Peterburg, Toshkent, shuningdek, xlodiy mamlakatlarning kutubxlnalarida saqlanmoqda. Asar to'la o'zbekchaga 1861 yili tarjima qilingan, unday ayrim parchalar frantsuz va rus tillarida e'lon qilingan. 1956 yili to'liq ruscha tarjimasi chop etilgan.

#### **"Ubaydullanova"**

"Ubaydullanova" XU11 asrda o'tgan Mir Muhammad Amini Buxoriy asaridir. U o'qimishli va fozil kishilardan bo'lib, 1645 yilda tug'ilgan, vafot yili ma'lum emas. Ashtarxoniylardan Subxonqulixon va Ubaydullaxon (1702-1711 yy.) saroyida bosh munshiylilik vazifasida xizmat qilgan.

"Ubaydullanova" Buxoro xonligining 1702-1716 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayoti haqida hikoya qiladi. Asar 1716 yildan keyin yozilgan, muqaddima, xotima va 80 bobdan iborat.

Muqaddimada muallifning hol-ahvoli, ya'ni Subxonqulixon hukmronligining so'nggi yillarda xizmatdan chetlashtirilib, og'ir ahvolga tushib qolganligi va Uaydullaxon xizmatiga qabul qilinishi, Abdulazizxon va SubxInqulixon davrida Buzoro xonligining ijtimoiy-siyosiy ahvoli qisqa tarzda bayon qilingan.

1-80- boblarda Buxoro xonligining qariyb 15 yillik (1702-1711 yy.) ijtimoiy-siyosiy tarixi batafsil yoritilgan. Muallif mazkur asarida katta yer egaligi, aholidan yig'iladigan soliq va jarimalar, Buxoro xonligining ma'muriy tuzulishi, tarqoqlikning kuchayishi, mamlakat boshiga tushgan iqtisodiy qiyinchiliklar va uning aksariy sabablari kabi masalalarga keng o'rinni bergan. Asarda geografik va etnografik ma'lumotlar ham ko'p.

Xotimada muallif bilan zamondosh bo'lgan va Buxoroda istiqomat qilgan olimlar, shoirlar, masalan, Sayido Nasafiy, Qosixoja, mulla Sarfaroz, Fitrat, Mulham, mashhur qozilar haqida qisqacha, lekin e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

“Ubaydullanova” asarining 10 dan ortiq qo’lyozma nusxasi mavjud. Asar A.A.Seménov tomonidan rus tiliga tarjima qilingan va 1957 yili Toshkentda nashrdan chiqarilgan.

**Abulgoziy Bahodirxon.** Xiva xoni (1643-1663 yy.); yiriktarixchi olim. 1603 yil 23

avgustda Urganchda tug’ilgan va 1619 yilga-cha ana shu shaharda istiqomat kilgan.

*(N.Qo’ziboyev tomonidan chizilgan rasm, 1968-yil)*



So’ngra inilari Habash va Ilbors bilan toju taxt uchun bo’lgan kurashda mag’lubiyat-ga uchrab, Buxoroga qochib bordi va Imomqulixon (1611—1642 yy.) saroyida panohtopdi. Akasi Isfandiyor xon bo’lgach (1623 y.), yana Xorazmga qaytib bordi va Urganchga hokim etib tayinlandi. Lekin, oradan ko’p vaqt o’tmay (1627 y.), u yana o’zaro kurashda, bu safar Isfandiyorxonning uzi bilan bo’lgan kurashda mag’lubiyatga uchradi. Bu safar Abulg’ozixon Turkistonga qochib bordi va qozoq xonlaridan Ishimxon (1598—1628 yy.) huzuridan

panoh topdi. Oradan bir yil chamasi vakt o’tgach, 1628 yili, yana bir qozoq xoni — Tursunxon uni Toshkentga olib ketdi va Abulg’ozixon Toshkent-da 1630 yil oxirigacha istiqomat kiddi. Oradan ko’p vakt o’tmay, Abulg’ozixon Xiva turkmanla-rining taklifi bilan yana Xorazmga kaytib bordi, lekin oradan olti oy o’tar-o’tmas, Isfandiyorxon uni Niso va Darunga bosqinchilik yurishi uyuştirganlikda ayblab xibsga oldi va Eronga, shoh Safi’ I (1629—1642 yy.) huzuriga omonat tariqasida<sup>1</sup> berib yubordi. Abulg’ozixon o’shanda Is-fahondagi Taborak qal’asiga qamab qo’yiddi va shu tarzda Eronda 10 yil atrofida kun kechirdi. 1639 yili Abulg’ozzi qamoqsan qochdi va ko’p mashaqqatlar chekib, 1642 yili ona yurtiga qaytib keldi. 1643 yili, Isfandiyorxon vafotidan bir yil o’tgach, Orol o’zbeklari uni xon qilib ko’tardilar. O’sha yili Abulg’ozixon Xivadagi raqiblari ustidan ham g’alaba qozondi va Xiva taxtiga o’tirdi. Abulg’ozixon keng ma’lumotli bo’lishi bilan bir qatorda, feodal hukmdor ham edi. U o’z faoliyati bilan ana shu ekspluatator sinfga xizmat qildi, uning mak-sad va manfaatlarini himoya qildi; boshqa xalkdar va mamlakatlar ustiga bosqinchilik yurishlari uyuştirdi. Masalan, u 1646—1653 yillari Tajan, Bomi Bovurma, Atrok va Jurjon turkmanlari ustiga yurish qilib, ular-ni ayovsiz talon-toroj qildi, ko’plab begunoh kishi-larning yostig’ini quritdi; 1658 va 1661 yillari Buxoro ustiga qo’shin tortdi va uning talaygina shahar va qish-loqlari (Chorjo’y, Qorako’l, Vardanzi va b.)ni talon-toroj qildi. Abulg’ozixon 1663 yili toju taxtni o’g’li Anusha (1663—1687 yy.)ga qoldirib, umrining oxirini butunlay ilmiy ishga bag’ishladi. U 1664 yili vafot etgan.

Abulg’ozixon tarix sahifasida katta yer egasi, hukmdor sifatida emas, balki keng ma’lumotli katta tarixchi olim sifatida qoldi. U «Shajarayi turk va mo’g’ub» hamda «Sha-

jarayi tarokima» nomli ikki yirik tarixiy asar yozib qoldirdi. «Shajarayi tarokima» turkman xalqi va Turkmanis-tonning o'rta asrlardagi tarixini o'rganishda bosh manba rolini o'taydi. «Shajarayi turk va mo'g'ul» esa O'zbekis-tonning XV—XVII asrlardagi tarixini o'rganishda muhim o'rinn tutadi. «Shajarayi turk va mo'g'ul» 1664 yili yozilgan, lekin Abulg'ozixonning og'ir dardga chalinib qolishi va tez ora-da vafot etishi sababli tamomlanmay qolgan. Asar IX bo'bining davomi, ya'ni 1644—1663 yillar voqealarini Anu-shaxonning topshirig'i bilan Maxmud ibn mulla Muxam-mad Urganjiy degan olim tomonidan yozilgan. Asarning I—IV boblari ham o'sha Mahmud ibn Muhammad Urganjiy-ning qalamiga mansubdir.

«Shajarayi turk va mo'g'ul» qisqacha muqaddima va 9 bob-dan iborat. Muqaddimada asosan asaming yozilish sababla-ri haqida ran boradi. I bobda Odam Atodan to Mo'g'ulxonacha, II bobda Mo'g'ulxonadan Chingizxonacha, III bobda Chin-gizxonning tug'ilishidan to vafotigacha, GV bobda Ugaday qoon va uning Mutulistonoda hukmronlik qilgan avlod, V bobda Chig'atoyxon va uning Movarounnaxrda podsholik kil-gan vorislari, VI bobda Elxoniylar, ya'ni Eronda hukm-ronlik qilgan Chingiz avlod, VII bobda Jo'chixon va uning Dashti qipchokda podsholik kilgan avlod, VIII bobda Shay-boniyxon va uning Movarounnahr, Qozog'iston, Sibir va Qirimda hukmronlik kilgan farzandlari va, nihoyat, IX bobda Shayboniyxonning 1511 yiddan Xorazmda podsholik kilgan avlod bilan bog'liq voqealar bayon etilgan.

Asarning I—VIII boblari kompilyasiya bo'lib, Rashidud-dinning «Jome ut-tavorix», Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlari, shuningdek, 18 ta boshqa tarixiy kitoblar asosida yozilgan. Uning fakat IX bobi asl nusxa hisoblanadi va unda Xorazmning 1512—1663 yillar orasi-dagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng va atroflicha bayon eti-ladi. Bundan tashkari, asarda muallif zamonida obod bo'lgan Xorazm shaharlari (Urganch, Vazir, Tirsak, Yangi shahar, Buldumsoz, Bag'dod, Kot, Durun, Qumkent, Mizdarkhan, Dorugan ota, Baqirg'on, Xos minora, Is'm Mahmud ota, Chi-lik), Amudaryo va dare o'zanining o'zgarishi, xivallik turk-manlarning og'ir axvoli, XVI—XVII asrlarda Xiva xonligi bilan Buxoro o'rtasidagi siyosiy munosabatlari haqida ham kimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Abulg'ozixon va uning «Shajarayi turk va mo'g'ul» asari tez orada ilmiy jamoatchilikning diqqat-e'tiborini qozondi. U XVIII asrdayoq bir necha Yevropa tillariga: ne-mis va fransuz (1726 y.), rus (1770 y.) va ingliz (1780 y.) tillariga tarjima kilindi. O'tgan asrda bu asar nemis (G. Ya. Kyor), rus (Ya. O. Yarsev va G. S. Sablukov), fransuz (P. I. Demezon), turk (Axmad Vefiq posha) tillarida chop kilindi. Asar 1897—1913 yillari yana turk (tarjimon Rizo Nur) 1935 yili fors tillariga tarjima kilindi. Asarning G. S. Sablukov (1906 y.) va P. I. Demezon (1871—1874 yy.) amalga oshirgan nashrlari mukammal va zo'r ilmiy qimmatga egadir.

O'rta Osiyo xonliklari: Buxoro, Xiva va Qo'qon xon-liklarining davlat arxivni o'tgan asrda, ya'ni 1865, 1876 yillardan keyin, ya'ni xonliklar rus armiyasi tomoni-dan bosib olingandan keyin, Rossiyaga olib ketildi va mu-zeylar hamda kutubxonalarida saklandi. Ularning bir qismi — ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid qismi, 1960 yildan keyin Toshkentga — Uzbekistan Markaziy tarix arxiviga kaytarildi. Davlat faoliyatini bilan bog'liq qismi qaytma-gan bo'lsa kerak, chunki xonliklarning arxivida saklana-yotgan hujjatlar asosida

amalga oshirilgan tadqiqotlar va ularning mazmuniga bag'ishlangan kitob va maqolalarda asosan ijtimoiy-iqtisodiy hayotga oid masalalar yoritil-gan.

Xiva xonligining arxivi va uning materiallari asosida asrimizning 60-yillarida ozmi ko'pmi ilmiy ishlar olib borildi. Biz bu yerda Xiva Davlat arxiv ustida ko'p ish olib borgan P.P. Ivanov, M.Y. Yo'ldoshev, A.K. Borovkov, Yu.E. Bregel, A. Shayxova va b.q. tadqiqotchilarini nazarda tutmokdamiz<sup>1</sup>.

Bu tadqiqot va tarjimalar arxiv va uning mazmuni ko'tarilgan masalalar haqida dastlabki ma'lumotlar be-radi.

O'rta Osiyo xalqlarining ijtimoiy-iqtisodiy va siyo-siy tarixini o'rganishda Quqon xonligi Davlat arxivining ahamiyati ham benihoyat kattadir. Bu muhim arxiv ham o'z vaqtida (1876 yiddan keyin) Sankt-Peterburgga olib ketilgan va imperator muzeyi (hozirgi Sharqshunoslik institut) va Sankt-Peterburg xalq kutubxonasi fond-larida joylashtirilgan edi. Mazkur arxivga tegishli huj-jatlar prof. A. L. Troiskaya tarafidan o'rganilib, katalogi chop etilgan<sup>1</sup>. Yirik tarixchi olim R. N. Nabiiev o'zining muxim asarlaridan birini<sup>2</sup> yozishda mazkur arxivda sakla-nayotgan hujjatlardan foydalangan.

Buxoro xonligining Davlat arxivining eng eski davlat arxivlaridan biri hisoblanadi. Uning bir kismi, Buxoro-Rossiya diplomatik va savdo munosabatlariga doyr qismi shu kunlarda Moskvada, «Qadimgi hujjatlар Markaziy Davlat arxivida»; yana bir kismi «Uzbekiston markaziy Davlat tarix arxivida» sakdanmokda. Moskvada sakdanayotgan huj-jatlar Buxoro, Xiva va Balx xonliklarining Rossiya, Hin-diston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan siyosiy va ikti-sodiy aloqalari tarixini o'rganishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mashhur qushbegi arxivining ham hozirda Uzbekiston Davlat tarix arxivining fondida (№ I-126) sakdanadi. Ushbu arxiv xonlikning ijtimoiy-siyosiy tarixi, iqtisodiyoti va boshka masalalarni o'rganishda muhim manba rolini o'ynaydi. Lekin bu fond hali yaxshi o'rganilmagan. Fond-ning ayrim hujjatlaridan P. P. Ivanov, A. A. Semyonov, M. A. Abduraimov, K. M. Mirzoyev va Halim To'rayev foydalan-ganlar. Xususan Abduraimov M. A., o'z shogirdlari bilan birga qushbegi arxivini to'la o'rgandi va uning ilmiy tav-sifini nashr tayyorladi. Afsuski, og'ir xastalik va bevakt o'lim tufayli u o'zining bu muhim tadqiqotini nashr etishga ulgurmadi.

So'nggi tadqiqotchi, shogirdimiz Halim To'rayev esa qush-begi arxividan o'zining «Tanhoh» atalmish katta yer egaligi ynstitutiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotini yaratishda keng foydalandi.

Tarixga oid hujjatlar respublika davlat tarix arxividan tashqari Samarkand o'lkashunoslik muzeyida va boshqa yerlarda ham mavjud. Lekin ularni kidirib topish, ayniqsa tizimga solish va o'rganish ishi yaqinda, asrimizning 20-yillari-dan boshlandi. Shundan beri o'tgan kariyb 70 yil ichida hunarmandchilik, savdo-sotiq, ijara va yer egaligi masa-lalariga doyr ayrim hujjatlar, matni va tarjimasi bilan qo'shib, chop etildi. «Materialы по истории Узбекской, Таджикской и Туркменской ССР» (1938), «Документы по истории аграрных отношений в Бухарском ханстве» (1954), «Из архива шейхов Джуябари» (1938), «Хозяйство Джуябарских шейхов» (1954), «Самаркандские документы XV-XVI vv.» (1974), «Письма — автографы Абдурахмана Джами из «Альбома Навай» (1974) то'plam-lari shular jumlasidandir.

Temur va temuriylar, shayboniyalar, ashtarkoniylar davrida ham kitoblar bilan savdo qilish to'xtagan emas. Vaqt-i vaqt bilan kitob savdosi avj olib, goh tanazzulga uchrab turgan, bunga u yoki bu davlatning umumiy madaniy yuksalishi va hayot-saoliyatni ta'sir qilgan.

Ayniqsa, XVIII asrning boshlaridan e'tiboran kitob savdosi keng avj olgan. Markaziy Osiyoda kitob savdosi bo'lmaydigan shaharlarni topish amri mahol edi. Faqat Yettisuva Zakaspiy viloyatlarida kitob savdosi aytarli yo'lga qo'yilmagan. Buxoro shahri kitob bozorlarining ko'pligi bilan azaldan tanilib kelgan. Samarqandda ham, Farg'onada ham, Qarshiда ham, boshqa shaharlarda ham bunchalik keng kitob bozorlari yo'q edi. Faqat Samarqand Temur va temuriylar davrida kitob bozorlarining ko'pligi jihatidan Buxoroga yaqinlashib olgan. O'sha vaqtarda shahar siyosiy va madaniy jihatdan gullab-yashnadi, adabiyot, fan va san'at ravnaq topdi. Katta kitob bozorlarida hamisha qo'lyozmalar va bosma nashrlarni sotadigan maxsus qatorlar (rastai kitobfurushon) bo'lgan. Ana shu kitob rastalarida badiiy jihatdan yaxshi bezatilgan va miniyatyraschlari bilan ziynatlangan eski qo'lyozmalarini, xilma-xil mazmundagi kitoblarni, Yaqin va O'rta sharqdagi turli mamlakatlardan olib kelingan asarlarni topish mumkin edi.

«Ajoyib ut-tabaqot» («Yer qatlamlarining ajoyibotlari») — daliliy ma'lumotlarga boy, kam o'rganilgan geo-kosmografik asar. Bir kancha tarixiy, geografik va kos-mografik asarlar hamda sayyoxdarning esdaliklari va mual-lifning shaxsiy kuzatuvlari asosida yozilgan bo'lib. O'rta Osiyoning XVI—XVII asrlardagi tarixi va geografik sharo-itiga oid ma'lumotlarga boy.

«Ajoyib ut-tabakrt» mavlono sayyid Muhammad Tohir tarafidan Balx xoni Ashtarkoniy Nadr Muhammadxon (1606—1642 yy.) ningtopshirig'i bilan yozilgan. Muallif-ning hayoti va ilmiy faoliyati haqida aniq ma'lumotlarga ega emasmiz. Mazkur asarning mukaddimasida keltiril-gan ayrim ma'lumotlarga Karaganda, u mazkur xon saroyi-da xizmat qilib turgan olimlar jumlasiga kirgan. «Ajoyib ut-tabaqot»ning yozilish tarixini quyidagi dalillarga asoslanib belgilash mumkin. Muhammad Tohir asarining «Balx» qismida Xoja hayron qishlog'idagi haz-rat Ali (656—661 yy.) mozori tepasiga qurilgan hashamatli bino hijriy 886 yilda atokdi shoir va tarixchi olim Kamoliddin Binoiy va uning otasi usta Muhammad Sabz tarafidan kurilganligini aytadi va shundan beri 172 yil o'tdi, deb yozadi. Shu 172 ga 886 (binoning qurilgan yili)ni qo'shadigan (172+886) bo'lsak, 1058 hosil bo'ladi. 1058 ni milodiy yilga o'giradigan bo'lsak, 1648 yil kelib chiqadi. Shunga asoslanib, asar hijriy 1058 (milodiy 1648) yili yozilgan deb aytish mumkin.

Muhammad Tohir mazkur asarini yozishda yuqorida tilga olingan «Majmu' al-g'arayib» dan tashqari al-Battuniy (852—929), Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas'udiy», «Ja-vohirnomá», shuningdek, Abdulmalik Marvarudiy, Nosi-ruddin Tusiy, Narshaxiy va boshqa olimlarning asarlari-dan foydalangan. «Ajoyib ut-tabaqot» kam o'rganilgan; nashr etilmagan. Uning uchinchisi qismi (tabaqo) ilmiy qimmatga ega. Unda O'zbekistonning Samarqand, Toshkent, Andijon, Termiz va boshqa shaharlari, shuningdek Sharqiy Turkiston (Kosh-g'ar) va Afg'oniston haqida qimmatli ma'lumotlar uchrata-miz. Asarning yana bir qimmatli tomoni bor. U chiroyli nas'h xati bilan bitilgan. Unvon va sarlavhalari rangli va tillo suvi berib yozilgan: Ka'ba va

payg' ambarimiz Muhammad alayhissalomning Madinadagi muborak qabri tasviri ham keltirilgan. Shaharlar tavsifi baholi imkon to'liq berilgan. So'zi-mizning isboti uchun Balx va Qubodiyon shaharlari haqida berilgan tavsifni keltiramiz.

«Balx — ulug' shahar, Xurosonga kdraydi; to'rtinchı iklim-ga kiradi. Uni qadimgi Eron podsholaridan Kayumars kurgan, Taxmuras obod qilgan, Luhrosip Qaytadan qurib, te-varak-atrofini pishiqlikdevor bilan o'rattirgan. Bir rivo-yatga ko'ra, uni birinchi bonyod qilgan kishi Qobil ibn Odam... boshqa rivoyatga ko'ra shoh Gishtosip Ayyub payg' am-barning amri bilan qurdirgan... Uchinchi rivoyatda keltiri-lishicha, (uni) Minuchehr ibn Iroj bino qilgan. «Tarixi Balx» kitobida yozilishicha, Balxning qal'asi (ko'p bor) vayron kilingan va 22 marta qaytadan tiklangan. Balxning eng so'nggi imorati bir vaqqlar Xuroson hokimi bo'lib turgan Abu Muslim Marvoziy tarasidan qurdirilgan. Undan ke-yin shahid etilgan Abdulmo'minxon<sup>2</sup> shaharning g'arbiy va janubiy taraflaridagi devorni ta'mirlatgan. Uning uzun-ligi 20 ming qadam.

Shahar ikki qismidan: tashqi shahar (shaxri birun) va ichki shahar (shaxri darun)dan iborat. Ichki shahar arkdan iborat. Ark shaharga asos solingan-dan beri ulug' podsholar va qudratli xonlarga makon bo'lib xizmat qilgan... Hozirgi kunlarda ham shunday. Balx shaha-rida Mexrobi sangin deb ataluvchi bir masjid bor. Ushbu rivoyatni aytguvchining hikoya qilishicha, shaharga mo'min-lar hukmdori hazrat Alining (xudo undan rozi bo'lsin), maktubini olib kelganlarida, uni balandroq bir joydan ovoza qilmoqchi bo'ldilar, toki uning mazmunidan hamma baxtiyor bo'lsin. Baxta qarshi shu payt qattiq shamol turib, maktubini uchirib ketdi. Bir payt mo'minlar Makkani ziyo-rat etib yurganlarida bir (sehrli) tosh va undagi yozuvga ko'zları tushgan. Yozuvda (hazrat Alining) o'sha maktubi bi-tilgan ekan. (Shu sababdan) toshni mukaddas xisoblab, (Balx-ga) olib kelganlar va o'sha masjidning mehrobiga o'rnatgan ekanlar. Boshqa bir rivoyatda bunday ran bor: toshni olib kelganlaridan keyin uni uch qismga bo'lganlar va bir bo'la-gini o'sha masjidda (Mehrobi Sangipda) qoldirganlar, yana bir parchasini tashqi shaharning (shahri birunning) janubiy tarafida, shahardan bir milya<sup>3</sup> narida joylashgan Mas-jidi xoja No'h gunbadon masjidiga olib borib o'rnatganlar. Ma'lumki, No'h gunbadon nur taratuvchi manzil bo'lib, Qa'b al-axbor hazratlarining, undan xudo rozi bo'lsin, zikr etilgan mozorda bino qilingan. No'h gunbadon masji-di go'zal va mustahkam bir binodir. Aytishlaricha, Chingiz-xon xurujiga paytida Balxbob daryosini shaharga burib yubor-ganlar. O'shanda masjid olti oy suv ostida qolib ketgan. Lekin uning krlidiklari hali hanuz saqlanib qolgan. Zikr etilgan toshning uchinchi qismini shaharning kun chiqish tarafida, undan ikki farsang narida joylashgan Xoja Xay-ron qishlog'ida bino etilayotgan masjidning mexrobiga o'rnatdilar. Qishloqning kun chiqish tarafida, undan 100 zira<sup>1</sup> masofada mo'minlar amiri Ali ibn Abu Tolibning qabri topilgan. Va haq yo'lga tushib olganlar namunasi ja-nob mavlono Binoiyki, ma'lumotli va binokorlik ilmida tengi yo'q kishi edi, avvalgi binokorlarning harakati bexuda ketgan va bino bo'sh qurilgan deb hisoblab, hijriy 886 yili, padari buzrukvoril bilan birgaliqsa o'sha mu-qaddas mozorda pishiq g'ishtdan baland bir bino qurdi. Lekin, o'sha bino, qurilganiga 170 yil o'tganiga kara-may, uning biron joyi buzilmagan. (Ollo)

tarafidan) mag'rifat qilingan marhum Vali Muhammadxon (1601 yili) Balxga hukmdor etib tayinlangandan keyin balandligi taxminan 30 zira', aylanasi bir jarib<sup>2</sup> bo'lgan bir oliy bino qurdirdi va uning (tevarak-atrofini) obod qiddi. Atrofida (go'zallikda) Chin sanami bilan bellasha oladi-gan bir chorborg' va uning ichida 18 ta chamanzor qurdirdi. Usha chorborg'ning shimoliy tarafida jannat bulog'iga o'xsha-gan bir hovuz ham qurdirdi. Balxning tashqi shaharida (shaxri birunda) va valiylar Qutbi xoja Abu Nasr Porsoning obod mozori bor. Bu mo-zorning aylanasi taxminan 15 jarib. Ushbu muqaddas maqbaraning kun botish tarafida ikkita katta masjid bor. Har chorshanba kuni, peshin nomozidan keyin, o'sha saodatli maq-baralar tevaragida donishmand kishilar, ulamo va shuaro ibo-dat uchun yig'ilishadi. So'fiylar bosh egib, yarim ohangda (bir-birlari bilan) suhabatlashadilar, ulamolar bahslasha-dilar, shuaro mushoira va hazil-mutoyibaga bel bog'laydi. Suhbat shu zaylda kechgacha davom etadi. Va yana o'sha tashqari shaharda (shahri birunda) shayx Shaqiqi Balxiy hazratlarining shuningdek jabrlangan xoja Is'hoq va boshqa valiylarning maqbaralari joylash-gan. Va yana shaharning kunbotar tarafida Sulton Ibrohim-ning to'ng'ich o'g'li Adham Soqaning nurga cho'mgan maqbarasi joylashgan. Shu kunlarda bu maqbara Xoja rushnoyi nomi bilan mashhur. Va yana mazkur shaharning janub tarafida xoja Sulton Axmad Hazraviya janoblari va ul kishining yostikdoshi Bibi Fotimaning ma'qullangan makbaralari joylashgan. Va yana shaharning kunchikar tarafida xoja Ukkosha ja-noblarining maqbul maqbarasi joylashgan. Qubodiyon. Movarounnaxrnning katta kishloklaridan; to'rtinchı ikdimga kiradi. Qayqubod ibn Iroj asos solgan. Aytishlaricha, Zol o'g'li Rustam Qayqubodni o'sha yerdan Eron-ga olib kelib taxtga o'tqizgan. Bu viloyat qadimda Qubodo-bod deb atalgan. Keyincha Qubodiyon nomi bilan shuxrat toptan. Hozirgi paytda oliy hazrat, Ollohning yerdagi soyasi Nadr Muxammadning adlu ehsoni tufayli u shu qadar obod bo'ldiki, har kim u viloyatdan o'tadigan bo'lsa yelkasi devor va daraxtlarning soyasi ostida bo'ladi. Ob-havosi yumshoq. U yerda turli navdag'i shirin-shakar mevalar ko'p yetishtirila-di. Xususan, anori ko'p mashhur. U viloyatda qovun va uzum sotish va sotib olish odati yo'q. Ularni bir xarvardan kam bo'lsa pulga sotmaydilar va sotib olmaydilar, balkim har-kim istaganicha olishi mumkin. Egalar bunga monelik kil-maydilar. Xalqi mehribon va mehmondo'st. Mehmon uchun alohida xona tutadilar. Odamlari o'qishga ixlosmand, aksariy kish-lokdarida Madrasa va mudarris bor. «Ajoyib at-tabaqot»da Toshkent, Andijon, Farg'ona, Samarkand va O'zbekistonning boshqa shaharları haqida ham mana shunday ma'lumotlar uchratamiz. Mazkur asarning yana bir muhim tarafi shundaki, unda qimmatbaho toshlar va metallar (filizzot) va ularning konlari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar bor. Shuni ham alohida ta'kidlab o'tish lozimki, mazkur asarda Abu Rayhon Beruniyning «Javohirnomá» asari-ning bizning zamонимизгача yetib kelgan nusxalarida tu-shib qolgan parchalar uchraydi. Bu parchalar buyuk olimning mazkur yirik asarini qaytadan nashr qilishda juda zarurdir. «Dili g'aroyib». Geo-kosmografik xiddagi, ko'p jihat-dan ko'chirma asar bo'lib, 1831—32 yili xivalik olim Xu-doyberdi ibn Qo'shmuhammad tarafidan Rahmonquli inoq-ning topshirig'i bilan yozilgan. Muallifning hayoti va fa-oliyati haqida juda kam ma'lumotga

egamiz. Bir joyda u o'zini So'fizoda deb ataydi. Shunga Karaganda, otasi Qo'shmu-hammad ibn Niyozmuhammad Xiva masjidlaridan birida so'filik qilgan va Kubroviya tariqatiga mansub bo'lgan. Xudoyerdi ibn Qo'shmuhammad keng ma'lumotli, arab va fors tillarini yaxshi bilgan kishi bo'lib, asosan tarji-monlik bilan shug'ullangan. U asosan tarixiy va geografik asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilish bilan shug'ullan-gan. Masalan, u Shermuhammad Munisning topshirig'i bilan Sharafuddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»sini fors-chadan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilgan (1823—1826 yy.). «Dili g'aroyib» ko'chirma asar, ya'ni yuqorida nomi tilga olingen Mahmud ibn Valining «Sirlar dengizi» va mavlono Muhammad Tohirning «Ajoyib at-tabaqot» asarlariga taqlid qilib yozilgan asar bo'lsa-da, unda aniq ma'lutlar ham uchraydi. Ular Xorazm va uning shaharlari xaqidagi ma'lumotlardir. Undan ba'zilarini misol tariqasida keltiramiz.

**Xorazm mamlakati.** U kagga mamlakat. Bir tarafdan Say-hun daryosi bilan, ikkinchi tarafdan hozirgi paytda Ba-qirton nomi bilan mashhur bo'lgan Oq qo'rg'on bilan, uchin-chi tarafdan cho'l bilan va to'rtinchisi tarafdan bir zamon-lar Faridun tarafidan qazdirilgan nahrning shimoliy tarafida joylashgan O'nguz otli manzil bilan tutash. Xo-razmnning yana bir tarafida Saroy sulton joylashgan. Bu hadlar orasida katta-kichik qal'alar va kentlar joylashgan. Xorazmnning janubiy tarafida Qizilqum bo'lib, unda saksovul usadi. Qadimda Xorazmnning o'n to'rt darvozali shaharlari ko'p bo'lgan. Shulardan biri Jurjoniya, ikkinchisi Urganch bo'lgan.

**Jurjoniya.** Jurjoniyaga suv Sirdaryodan olib kelingan. Bu shaharning joylashgan o'mini quyidagicha belgilagan-lar. Uning kunchiqish tarafida Bag'lon va shimal tarafida Oqcha dengizi, kunbotishida Gurlan, janub tarafida Kot joylashgan. Ularning (Gurganjning) xarobalikka yuz tutishi, aytishlaricha, suv bo'lmay qolishi sababdan bo'lgan. Sirdaryodan kelib turgan suv zirotiga yetmay qolgan. Shu sababli uch qirni oshib nahr qazdirib Amudaryoning suvi-ni burib olib kelganlar. Amu Gurganjni suv bilan ta'-minlab, Unquzning janubidan Urganchga qarab oqar va janub bo'ylab oqishni davom ettirib va janubiy-sharqiyo tarafidan Abulkxon tog'larini aylanib o'tib, O'g'irchagacha yet-gan va so'ng Mozondaron dengiziga' borib quyilgan. Jurjoniyaning tevarak-atrofi mahkam qilib mustah-kamlangan joylar, ekinzorlar va bog'lar bo'lgan. Vaqt utishi bilan Jurjoniya qal'asi suv ostida qoldi va shahar xarobalikka yuz tutdi. Aytishlaricha, undan faqat bitta minora qolgan, keyincha uni Boynazar so'fi ismlik bir avliyo buzdrib tashlatib, o'miga masjid qurdigan. Bu masjid hozir ham o'z o'mida turibdi. Yazir alayhissalom va Yumaloq avliyo qabri o'sha yerda. Saksondon oshgan va bular-ning hammasini ko'rgan yoki (kimdandir) eshitgan keksa-larning so'zlariga qaraganda, minorani buzayotganlarida unda bir yozuvga ko'zlarini tushgan. Yozuvdan ma'lum bo'lishicha, maz-kur minora shu joydag'i jum'a masjidining kichik mino-rasi bo'lgan; tevarak-atrofdagi odamlarni namozga chorlov-chi minoraning balandligi 100 qaridan kam bo'limgan. Bu yerda qur'on tilovat qiluvchi qori, imom, muazzin (so'fi) va faroshning maoshi har biriga 300 oqchadan belgilangan. Masjid yonida Madrasa, bozor va karvonsaroy ham bo'lib, ularning barchasi suv ostida qolgan. (Xorazmnning) yana bir shahari Gurganj bo'lib, Chin-gizxon tarafidan vayron etilgan. Ushbu zolim kelganga qadar uning 12 jum'a masjidi bo'lib,... ularning har biri uch tanobdan maydonni egallagan edi. Uning tevaragida daraxtlar ichida cho'mgan (obod) namozgohlar bo'lib, ularning

har biriga (namoz kunlari) uch-to'rt lak<sup>1</sup> xalq to'pla-nar edi. Ularning har birida 1000 tadan odam xizmat qilgan. Shahar aholisining katta qismini Ya'qub payg'ambar-ning... avlodlari tashkil qiladi. Uning o'g'li Shamunning muqaddas mozori hozirda Xoja eli (Xojayli) deb atalmish Mizzaxkandadir. Shu kunlarda Urganch vayronagarchilikka yuz tutgan, jabr yetgan shayx Najmuddin Kubro va xoja Ali Azizon janob-larinng maqbaralari Gurganjdadir. Xorazmning yana bir shahari Ramldir. Unga (qadimgi Eron podsholaridan) Som ibn Narimon asos solgan... Uni otasining<sup>2</sup> kemasiga o'xshatib qurdirgan. Hozirda Xivaq nomi bilan ma'lum. Aytishlaricha, bu so'zda («Raml» so'zida — B. L.) Paqlavon Mahmud hazratlarining vafot etgan yili tarixi yashiringan. Shu bois bu tarix shaharga nom bo'lib qolgan... Va yana aytadilarki, Xivaqko'p bor vayron qilingan va qayta tiklangan. U a'lo hazratlari xonning (Olloqulixonning — B. A.) otasi (Olloh tarafidan mag'-firat qilingan) Abulg'oz Muhammad Rahimxon<sup>1</sup> va uning og'asi marhum Kutlug' Murod inoq tarafidan obod qilin-gan. Ularning sa'y-harakati bilan shabarda oliy Madrasa bino qilingan. Bunga nomi yuqorida zikr etilgan inoq-ning katta xizmatkorlaridan biri Sher devonbegi va va-ziri a'zam Muhammad Rizo devonbegilarning hissalarini katta bo'lgan. Jannatmakon xonning amri bilan yana bir karvonsaroy, tim va ularning o'rtaida [yana bir] katta Madrasa qurildi], [Xivak] qal'asida sayyid Alouddin Xi-vaqiy va uch yuz mashhur shayx dafn etilgan. Shahar tashqa-risida shayx Abulvafo Xorazmiy janoblari, yonida esa mingdan ortiq avliyolar dafn etilgan. Shaharning janubi-sharqiy tarafida, undan 200 qadam narida, hazrat shayx Husayn Boboning ... manzilgohi joy-lashgan. U yerda soyasalqin berib turuvchi gujum otli katta birdaraxtbor... Xivaqning qovuni va gurunchi juda mazali. Uning ob-havosi yaxshi, odamlari xushfe'l, lekin qishi sovuq kela-di. Eng sovuq kunlari bir oy davom etadi. Shu paytda yermi taxminan uch qarich muz qoplaydi. Gurlan, Xo'jayli va Qo'ng'irotda uch-to'rt gaz qalinlikda qor yog'adi. Jurjoniyaning o'mida hozirda suv oqadi va u Sir (den-gizi)ga borib quylindi. Uning oqibatida Gurganj xaro-balikka yuz tutdi va cho'lga aylanib qoldi. Bu hodisa hij-riy 984 yili sodir bo'ldi. Sir (dengizi) hyech vaqt to'lmaydi. Qayiklarda ov qilib yurgan baliqchilar «(dengiz) tubida toshdan qurilgan bi-nolarning qoldiqlarini ko'radilar. Shuningdek, katta bir qal'aning qoldig'i ham bor», deb aytadilar... Xorazmda mevalar va g'alla yaxshi yetishadi, xususan qovun shunday yetishtirilgan: qovun urug'ini yantoq o'zagiga joy-lashtirib, uni mahkam qilib bog'lab qo'yanlar. U suvsiz, yantoq tomiridan nam olib, yetishgan. Lekin juda shirin bo'lgan. Xorazmning, xususan Xazoraspning olmalari juda shirin. Aytishlaricha, bu shaharga (Xazorasp — B. A.) Sulay-mon payg'ambar asos solgan. Xazoraspda asosan sholi yetishtirilgan. Xorazmning o'riklari va uzumi (ham) ko'p bo'ladi. Ma-salan, Chinkning pastida bir qishloq bor, nomi Ekin-lik. Uning uzumidan shirin uzum (boshqa yerda) uchramaydi. (Xorazmning yana bir shahari) **Zamaxshar**. Xivaning kun botish tarafida, undan bir kunlik yo'lda joylashgan. Jannatmakon, oliy janob xon (Olloqulixon)ning otasi u yerga suv olib kelib uni obod qilgan. Asarda Gurlan va uning osori atiqalari, Xivaning kun-chiqish tarafida qurilgan katta yangi bozor haqida ham qiziq ma'lumot keltirilgan. Muallifning guvohlik be-rishicha, bu bozor shu yerdagi katta bir ko'l ustiga qurilgan. «45 kun ichida,— deb yozadi Xudoyberdi ibn Qo'shmu-hammad,— maydoni besh-olti tanob keladigan ko'l ko'mib tashlandi». Asar o'zbek tilida. O'zR FA Shl kutubxonasida uning

uch qo'lyozma nusxasi saqlanadi. Ulardan biri (inv. № 1335) to'la va muallifning o'z qo'li bilan yozilgan nusxa deb hisoblanadi.

**Majmu'ayi maktuboti Sayyid Amir Haydar Bahodirxon.** Mang'itlar sulolasi (1753-1920) ning ko'zga ko'rigan namoyandalaridan biri amir Haydar (1800-1826) ning o'zi-ning yakin amirlaridan Muhammad Hakim inoqqa<sup>1</sup> (key-incha oliy qushbegi<sup>2</sup>) yo'llagan turli masalalarga doyr mak-tublari (muboraknomalar<sup>3</sup>, inoyatnomalar<sup>4</sup>, yorliklar «a b. q.» to'plami. Hammasi 900 atrofidagi hujjatni o'z ichiga olgan; 464 varakdan iborat; yaxshi nusxasi Uzbekistan Respublikasi Fanlar Akademiyasi Sharkshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida 2120/N tartib raqами bilan saklanmokda. XIX asrning birinchi yarmida ko'chirilib, kitob shakliga keltirilgan. To'plam mazkur amirning 10 yil (1814-1824) mobaynida yozgan maktublarini o'z ichiga oladi.

Hakimbiy inoq ko'p yillar davlat xizmatida bo'lib, amir Haydarning ishonchini krzongan. Uning o'limidan (1826 y.) keyin taxt vorisi shahzoda Umarga xiyonat qilib, Ark darvozasini 1723 yildan beri Qarshida hokim bo'lib o'ltingan shahzoda Nasrulla to'raka ochib bergen. Hakimbiy qushbegi 1739 yili Eron gyudshosi Nodirshoh (1736-1747) askariga Qarshini, keyin Buxoroyi sharifni topshirgan.

Maktublarda Buxoro amirining ma'muriy-xo'jalik fa-oliyati, shuningdek uning davrida amalda bo'lган qonun-qoidalar, yer egaligining turlari (suyurg'ol, tanho, mulki xurriy xolis) hamda soliklar (xiroj, zakot, ushr va b. q.) haqida muhim ma'lumotlar uchratamiz.

Quyida misol tariqasida, o'sha maktublardan ba'zila-rini keltiramiz.

«Xoqonning hurmatiga sazovor bo'lgan, davlatning ishon-chli odami Muhammad Hakimbiy mehtar<sup>1</sup> bilsinlarki, yak-shanba kuni sihat-salomat Qarshiga kelib qo'ndik. Inshool-lo, (kelasi) yakshanba kuni Samarcandga jo'naymiz. Bizga lozim bo'lgan va (janoblariga) tayin qilingan narsalarni olib, agar Qarshiga kelolmaydigan bo'lsalar, O'rta cho'l va Xuzor Bug'a orqali huzurimizga yetib kelsinlar. Madrasayi oliyga vaqf etilgan «Xazonayi mustadiyn» otlig' kitobni mehtardan talab kilib olsinlar va tolibi ilmlarning kuliga topshirsinlar».

«Amirlik panohi, vazirlikdan ogohbo'lgan, xoqonning yakin odami, marhamatga loyiq... xoqon hazratlarining mar-hamati tufayli zo'r hurmat topgan Muhammad Hakimbiy inoq bilsinlarki, Abdurasul to'qsabo<sup>2</sup>, Safar bahodir. Ol-muhammad bahodir, Husayn, Alibek yasovul<sup>3</sup>, Farmonboy, Xolboy, Norbo'ta, Murod, Shomurod va Toshniyoz, hammala-ri o'n kishi bo'lib, zakot<sup>4</sup> yig'ish uchun jo'nab ketishgan. Ular-dan qaysi biri olti tillo yiqqan bo'lsa, yozib yuborsinlar».

«Amirlik tayanchi, vazirlik ahvoldan ogoh bo'lgan, xo-qonning yaqin odami, baland martabalik Muhammad Hakim-biy inoq, xoqonning marhamatidan sarfaroz bo'lganlar, bilsinlarki, alhamdulilloh hol-ahvolimiz sog'-salomat-lik va shod-xurramlik darajasidadir; muborak xotiri-miz jamuljamdir.

Soniyan, maxfiy qolmasinki, qutlug' uzangiga yuborgan arznama yetib keldi. Uning mazmunidan ogoh bo'lib, xursan-dlik hosil bo'ldi. Va yana (bilsinlarki), Pashog'ir tepasiga Xo'qand lashkari kelib tushgan edi. Biz tarafdan unga qar-shi lashkar yuborganimizdan keyin (dushman) zafar asar lashkarning qorasini ko'rishi hamono, yuzini

chechinish sari o'girdi va bizga doxil bo'lishga tob berolmay orqaga chekin-di. (Va yana) Yalangto'shxon huzuridan ikki nafar cho'ri kel-gan ekan, ularga qarab tursinlar.

Va yana, qachonki, biz tarafdan ul vazirlar tayanchi ta-rafga (Yalangto'shiby tarafga — B. A.) odam yuboriladigan bo'lsa, yoki u tarafdan inoyatnoma kelsa, unga ruxsat berib o'tkazib yuborsinlar. Inoyatnomada yozilganlarga amal qil-sinlar. U tarafdan yuborilgan sarupo va sovg'almi ehti-yot qilib bir ming tanga zakot va 1080 tanga xiroj<sup>1</sup> hiso-bidan bizga tegishlisini berib yuborsinlar. Va yana, Eshmurod o'nboshiga javob berdi. Ko'rgan-bil-gan va eshitganlari xususida o'zi so'zlab beradi».

*Hijriy 1229 yil.*

«Vazirlik suyanchig'i, amirlik o'rni, xoqon hazratlari-ningyaqin odami... Muhammad Hakimbiy inoqbilsinlarki, oliv ostonaga yuborgan arznomalari yetib keddi. Uning mazmunidan ogoh bo'lganimizdan keyin, alhamdulilloh muborak xotirimiz har vajdan xotirjam bo'ldi.

' Xiroj — asosiy soliqlardan; daromad solig'i, odatda da-romadning uchdan bir qismini tashkil etgan.

Va yana (shuni ma'lum qilamizki) chorshanba kuni, maz-kur oyning 25-kuni holimizga qarab xalifalik eshigi (bo'lmiss) Kattaqo'rg'onga jo'naymiz. Sarkarda, maxram, xos-sabardor, qalmoklar va boshqa amaldorlarga mehribonlik ko'rsatib, Buxoroyi sharifga borishlari uchun ijozat ber-dikki, biron kishi ularga daxl qilmasin».

*Hijriy 1248 yil.*

«Vazirlik tayanchi, amirlik o'mi, (hazrat) xoqonning yaqin kishisi... Muhammad Hakimbiy inoq, xoqon hazrat-larining marhamatlardan sarfaroz bo'lganlar, bilsinlarki mulla Solihboyni, Sharif to'qsoboni, Xudoyer-di mirzaboshini<sup>1</sup>, Sharifxoja va Musobekni, Lochin mah-ram<sup>2</sup> mulla Muhammad mulla Vosc' o'g'liga ruxsat berib jo'natdik, Qarshiga yetib borgandirlar. Yozib yuborilgan (ko'rsatma)ga amal qilsinlar».

*Hijriy 1231 yil, muharram oyining 17-si.*

«Vazirlik tayanchi, amirlik o'rni, (hazrat) xoqonning yaqin do'sti... Muhammad Hakimbiy inoq, hazrat hoqonning marhamatlari bilan sarfaroz etilgan edilar, bilsinlarki, Urganchdan kelgan elchilar to eson-omon Buxoroyi sharifga yetib olgunlaricha (ularga oziq-ovqat va yem-xashak bersinlar... Boshka gaplarni humoyun egar qoshidan tutganlarida aytildi. Vassalom».

«Vazirlik tayanchi, amirlik ko'makchisi... Muhammad Hakimbiyinoq, xoqon (hazratlari)ning marhamatlardan sarfaroz etilganlar, bilsinlarki, sayyodat panoh Muhammad Siddiqxoja sudurni<sup>3</sup> xonning farzandi hisoblab, am-lok bilan siyladik»...

*Hijriy 1229 yil.*

Mirzaboshi — xoqon devonidagi mirzalar boshlig'i.

Mahram — xonga yaqin, uning hamma yig'inlarida qatnashish huquqiga ega bo'lgan mansabdar.

Sudur — barcha vaqflar mutasaddiysi; mamlakat sadrlarining boshlig'i.

Ayrim muhim hujjatlar va yozishmalar haqida ma'lumotlar tarixiy va memuar asarlarda,

shuningdek mano-qiblarda ham uchrab turadi. «Badoye' ul-vaqoye'» (q.), «Sil-silat as-salotin» (q.) va «Ravzat ar-rizvon» (q.) asarla-ri fikrimizga misol bo'lishi mumkin.

Masalan, «Silsilat as-salotin»da Shayboniyalar va Ashtarxoniyalar hukmronligi davrida Buxoro va Balx xon-lari, Eron podsholari (Safaviylar) va Hivdistonni ido-ra qilib turgan Temuriylar (Boburiylar) o'rtasida olib borilgan diplomatik yozishmalardan ayrimlarining nus-xalari keltirilgan. Ular quyidagilar:

1) Hindiston podshosi Akbarshoh (1556-1605) ning 1586 yili Buxoro xoni Abdullaxon II (rasman 1583-1598) ga o'z elchilari Hakim Xumom va Sadr Jahon orqali yuborgan maktubi;

2) Eron podshosi shohAbbos I (1587—1623) ning 1590—91 yili elchi Yodgor sulton eramli orqali Balx xoni Shayboniy Abdulmo'minxon (1582-1598) ga yuborgan xati;

3) Akbar podshohning 1591 yili Buxoroga Abdullaxon II nomiga yuborgan maktubi;

4) Turkiya sultoni Murod II (1574-1595) ning 1592 yili Balx xoni Abdulmo'minxonga yuborgan xati;

5) Balx xoni Abdulmo'minxonning Eron podshosi Ab-bos I nomiga elchi Ali Yorbek orqali 1597 yili yuborgan xati;

6) Eron shohi Abbos I ning 1598 yili Balx xoni Ab-dulmo'minga (o'sha yili u otasi o'rniga xon etib saylan-gan edi) yo'llagan javob maktubi;

7) Shoh Abbos I ning 1598-99 yili u elchi Zulfiqor-bek Zulqadar orqali Niso va Obivard hokimi Shayboniy Dinmuhammad sultonga yuborgan xati;

8) Shoh Abbos I ning 1611 yili Buxoro xoni Ashtarxo-niy Imomquli (1611-1642) nomiga yuborgan xati;

9) Imomqulixonning shoh Abbos I nomiga 1611 yili elchi O'zbakxo'ja dodxoh orqali yuborgan javob maktubi;

10) Hindiston podshosi Nuriddin Jahongir (1605-1627)ning 1611 yili Buxoroga, Imomqulixon nomiga yo'llagan xati;

11) Hindiston podshosi Shahobiddin Shoxjahon (1627— 1667) ning 1628 yili Imomqulixon nomiga elchi Hakim Xozikdan berib yuborgan maktubi;

12) Eron podshosi shoh Safi' I (1629—1642) ning Buxoroga, Imomkulixon nomiga 1629 yili elchi Donish mun-shiydan berib yuborgan xati;

13) Hindiston podshosi Shoxjahonning 1628 yili Balxga elchi Tarbiyatxon orqali yuborgan maktubi;

14) Buxoro xoni Ashtarxoni Nadr Muxammadxon (1642— 1655) ning Shohjahon nomiga elchi Nadribiy Shaboyat orka-li berib yuborgan xati;

15) Hindiston podshosi Shoxjahonning Nadr Muxam-madxonaga 1645 yili shahzoda Murod Baxsh orqali yo'llagan javob maktubi;

16) Shoxjahonning 1646 yili Nadr Muhammadxonaga yuborgan maktubi;

17) Buxoro xoni Ashtarxoni Abdulazizzon (1645— 1680)ning 1666/67 yili Hasan qushbegi elchiligi orqali Eron podshosi shoh Safi' nomiga yo'llagan xati;

18) Hindiston podshosi Avrangzeb Olamgir (1658— 1707) ning Buxoro xoni Ashtarxoni Subxonqulixon (1680—1702)ga elchi Yakkatozxon orqali 1671 yili yo'lla-gan

maktubi;

19) Buxoroxoni Subxonqulixonning Hindistonga, podshoh Avrangzeb Olamgir nomiga 1687 yili elchi Nadrdevonbegidan berib yuborgan maktubi;

20) Hindiston podshosi Shoxjahonning Balx ustiga qo'shin tepasida yuborilgan shahzoda Murod-baxsh va Asolatxon nomiga Nadr Muxammadxonning o'g'li shahzoda Xusrav sultonga hurmat-extirom va mehribonlik qilish hakida yuborgan xati.

#### «Tarixi Shohuhiy»

«Tarixi Shohuhiy» («Shohruh (bek) tarixi») nomli asar muallifi XIX asrda o'tgan farg'onalik tarixchi olim Niyoz Muhammad Xo'qandiyidir. U taxminan 1803 yili Qo'qonda yirik harbiy xizmatchi oilasida to'g'ilgan, Xudoyorxon qo'shinida lashkarnavis, ya'ni harbiy kotib lavozimida xizmat qilgan, 60-yillar boshlarida iste'foga chiqib, ilmiy faoliyat bilan mashg'ul bo'lган.

Niyoz Muhammad keng ma'lumotli kishi bo'lib, «Niyoziy» taxallusi bilan she'rler ham yozgan. Lekin, yirik tarixiy asari «Tarixi Shohuhiy» bilan ko'proq mashhur. Bu asar Qo'qon xonligining 1709-1876 yillar orasidagi tarixi to'g'risida mukammal ma'lumot berib, unda ushbu xonlikka qaram bo'lgan boshqa Toshkent, hozirgi Qirg'iziston, Qozog'istonning janubiy viloyatlari hududlarining ijtimoiy-siyosiy tarixi ham bayon etilgan. Unda Qo'qon xonligining Buxoro, Sharqiy Turkiston va boshqa mamlakatlar bilan bo'lgan iqtisodiy, siyosiy va madaniy aloqlari haqida ham e'tiborga molik ma'lumotlar keltirilgan.

**Munis** va Ogahiy. XVIII asming so'nggi choragi va XIX asrda o'tgan xorazmlik yirik shoir, tarjimon va tarix-shunos olimlar.

**Munis** (asl ismi: Shermuhammad ibn Avazbiy) 1778 yili Xorazmning Kot qishlog'i (qadimda yirik shahar)da dunyoga kelgan; Xiva madrasalarida tahsil ko'rgan; 1800 yiddan boshlab xon saroyida sarkotib bo'lib xizmat kilgan. U 1829 yili 51 yoshida vafot etgan.

Munis atroflicha ma'lumot olgan, turli fanlar, xu-susan adabiyot va tarixdan keng xabardor bo'lgan yetuk olim va iste'dodli shoir sifatida tarixda qoldi. U 1806 yili Eltuzarxon (1804-1806)ning topshirig'i bilan «Firdavs ul-iqbol» («Jannat bog'i») asarini yoza boshlaydi. Lekin asar, ayrim sabablarga ko'ra, tugallanmay qolgan.

Munis zo'r tarjimon sifatida ham ma'lum. U Mirxond-ning yuqorida tilga olingan «Ravzat us-safo» asari tarji-masini ham boshlab bergen va uning birinchi jildini tarjima qilib tamomlagan.

**Ogahiy** (haqiqiy ismi: Muxammad Rizo ibn Erniyoz-bek) ham asli kotlik. 1809 yili tug'ilgan. Yuqorida zikr etilgan Munisning jiyani va uning qo'lida tarbiya topgan. Yaxshi o'qib, turli fanlarni, xususan tarix va adabiyotni chuqur egallagan. Munisning vafotidan (1829 y.) keyin saroyni tark etib, ota kasbi — miroblik bilan kun ke-chirgan. Ogahiy 1847 yili vafot etgan.

Ogahiy ham iste'dodli shoir, tarixnavis olim va tarjimon sifatida shuhrat topdi. U tog'asi boshlagan «Firdavs ul-iqbol»ni oxiriga yetkazdi. Undan tashkari, «Riyoz ud-davla» («Davlatning jannat bog'i»), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar sarasi»), «Jomi' ul-voqyeoti sultoniy» («Sulton voqyealarining majmuasi»), «Gulshan ud-davlat» («Davlat gulshani») kabi

asarlar ham yozgan. Undan tashqari, Ogahiy 19 asarni fors tilidan o'zbek tiliga tarjima kil-gan. Mirxondning «Rayuatus-saf»si, Sharafuddin Ali Yaz-diyning «Zafarnoma», Zaynuddin Vosifiyning «Badoi' ul-vaqoiy» asari shular jumlasidandir.

Munis va Ogahiy Xorazmning qadim zamonlardan to Qo'ng'irot sulolasidan<sup>1</sup> chiqqan Olloqulixon (1825—1842 yy.) zamonigacha bo'lган tarixidan bahs yurituvchi «Fir-davs ul-iqbol» («Iqbol bog'i») nomli muhim asar ham yozib qoldirganlar.

«Firdavs ul-iqbol» muqaddima va besh bobdan iborat. 1806 yili boshlangan va 1840 yili yozib tamomlangan. Muqaddimada Eltuzarxon nomiga hamdu sano o'qiladi; Munisning mazkur xonning xizmatiga kirish sabablari aytildi, shuningdek, asar mundarijasi keltiriladi.

Asarning I—II boblari islomiyatdan avval o'ttan pay-g'ambarlar, eski tarix kitoblarda turkmog'ul qabilalari-ning ajdodi hisoblangan Yofas ibn Nuh va qo'ng'irot amir-larining ilk tarixiga bag'ishlangan.

Uchinchi bobda Burtajon va Chingizzon tarixi, Mo'g'ul imperiyasining Chingizzon zamonidan to Oltin o'rda xoni Berdibek (1357-1361 yy.) davrigacha bo'lган tarixi bayon etilgan.

To'rtinchchi bob Xorazmning Shayboniyalar davri (1511—1804 yy.)dagi ijtimoiy-siyosiy tarixi haqidadir.

Beshinchchi bob Xiva xonligining 1804—1825 yillar ora-sidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'z ichiga oladi.

Munis va Ogahiy mazkur asarining asosiy ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qariyb 300 yillik (1511-1825 yy.) tarixi yaxlit, xronologik tartibda bayon etilgan. Qolaversa, asar turli mavzudagi daliliy ma'lumotga niho-yatda boy. Asarda, masalan, Xorazm (Xiva xonligi) o'ramida istiqomat qilgan turkman, qoraqalpoq va qozoq xalklari va ularning mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o'rni, katta yer egaligi, ekspluatasiya va mehnatkash xalkning og'ir ahvoli (masalan, xalkdan undiriladigan so-liq va jarimalar: xiroj, zakot, peshkash, tansuqot va hoka-zolar; o'n to'rt urug'ning tarqatib yuborilishi, 1714, 1722—1723 va 1768 yillari sodir bo'lган ocharchilik va qahatchi-lik va hokazo); Xorazm shaharlari (Urganch, Kot, Vazir, Yangi shahar, Tirsak, Gandumkon, Hazorasp, Shohobod va b.)ning umumiylahvoli; turkmanlar va Xorazm o'zbeklari-ning etnik tarkibi; Xiva xonligining boshqa mamlakat-lar, xususan, Eron, Buxoro xonligi va Rossiya bilan bo'lган iqqisodiy va siyosiy munosabatlari xususida qimmatli ma'lumotlar uchratamiz. «Firdavs ul-iqbol» kam o'rganilgan, nusxalari hali chop etilmagan. Uzbekistan, Rossiya va xorijiy mamlakatlar-ning kutubxonalarida sakdanadi.

**Mirza Olim Toshkandiyy.** To'la ismi: Mirza Olim ibn domla Mirza Rahim Toshkandiy; hayotiga oid ma'lumotlar yo'q, «Ansob us-salotin va tavorix ul-xavoqin» («Sulton-lar shajarasi va xoqonlar tarixi») asari bilan mashhur. Asar XIX asr so'ngida yozib tamomlangan. Shunga Karaganda, olim XIX asrning ikkinchi yarmida o'tgan va keng ma'lumotli kishilar jumlasidan bo'lgan. «Ansob us-salotin» Farg'onaning XV—XIX asrlar ora-sidagi tarixini o'z ichiga oladi. Muallif ayniqsa 1842—1875 yillar tarixini keng yoritgan. Asar chop qilinmagan. Uning qo'lyozma nusxalari O'zR FA Sharqshunoslik instituti xazinasida (inv. № 3753, 7515, 9841, 1314) ham saqlanadi.

Xorazmning keng kamrovli tarixshunos olim va iste'-dodli shoirlaridan biri **Muhammad Yusuf ibn Bobojonbek Bayoni** (1858—1923) dir. Bayoniying naslu nasabi Xiva xonligini ko'p yillar idora qilgan Qo'ng'irotlar sulola-siga borib ulanadi. Otasi Bobojonbek Xiva xoni Eltuzaxon (1804—1806) ga nabira bo'ladi.

Muxammad Yusuf Bayoni yoshligidan yaxshi tarbiya top-di, keng ma'lumot oldi. Arab va fors tillarini yaxshi o'rgandi, adabiyot, tarix, tibb va musiqa ilmlarini egal-ladi. Shu bilan birga xatgotlik ilmini ham yaxshi o'rgandi. U, ayniqsa xatlarning rayhoniy, suls, kufiy va shikasta turlari bo'yicha mohir xattot, musiqa ilmida, ayniqsa tanbur va g'ijjak chalishda mahoratli sozanda bo'llib yetishdi. Bayoni yumtoz adabiyotni, xususan she'r ilmini xam puxta egalladi, o'z zamonining shoiri sifatida dong taratdi. U mumtoz she'riyatning barcha turlarida ijod qiddi. O'zidan bir she'riy to'plam (devon) qoldirdi. Devoni O'zR FA ning Sharqshunoslik instituti kutubxonasida saqlanmoqda. Bayoni yosasan yirik tarixshunos olim, Munis va Oga-hiyalarning davomchisi sifatida shuhrat qozondi. U ikki yirik asari: «**Shajarayi Xorazmshohiy»** va «**Xorazm tarixi**» asarlarining muallifidir. «Shajarayi xorazmshohiy» da Xorazmning turklarning qadimgi podshosi Yofas o'g'lon (Yofas ibn Nuh)dan to Qo'ng'irot sulolasigacha kechgan ta-rixi bayon etilgan. Asarning eng qimmatli qismi Muham-mad Rahimxon I (1806-1873) va Asfandiyorxon (1910-1918) davrigacha bo'lgan so'nggi qismidir. Olimning yana bir ta-rixi asari «Xorazm tarixi» deb ataladi. Unda Xorazmning 1910—1918 yillar orasidagi ijtimoiy-siyosiy tarixi keng yoritilgan. Muhammad Yusuf Bayoni mohir tarjimon sifatida ham nom qoddirgan. U ko'pgina muhim tarixiy asarlarni arab va fors tillaridan o'zbek tiliga tarjima qilgan. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariyning «Kitob rasul va-l muluk va-l xulofo» asari. Darvesh Ahmadning «Sahoyif ul-akbar», Kamoliddin Binoiyning (q). «Shayboniyoma» kitoblari shular jumlasidandir. Olimning «Shajarayi xorazmshohiy» asarining (1911-1913 yillari yozib tamomlangan) bir qismi, ya'ni Muham-mad Rahimxon II zamonidan sayyid Asfandiyorxon hukm-ronligi davrini o'z ichiga olgan 15- va 16-boblari sharq-shunos olma Iqboloy Azizova tarafidan, so'zboshi va zarur izohlar bilan, 1991 yili «Meros» to'plamida nashr etilgan.

## II BOB. O'RTA OSIYONING XVI-XIX ASRNING BIRINCHI YARMI TARIXIGA OID RUS VA YEVROPPA TILLARIDAGI MANBALAR

### II.1. Rus manbalari tavsifi va ularning manbaviy ahamiyati

**Asosiy tayanch tushunchalar:** *Rus va Yevropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi* (I.D. Xoxlov axboroti, "Книга Большому Чертежу", aka-uka *Pazuxinlar hisobotlari*, V.N. Tatishevning "История Российской" (1720—1739) va «Лексикон российский исторический, географический, политический и гражданский» (1744—1746) asarlari, D. Gladishev va I. Muravin ma'lumotlari, Danila Rukavkin safarnomasi. P.I. Richkovning "Топография Оренбургской губернии" (1762) asari, F. Efremov, I. Georgi, T. Burnashevning O'rta Osiyo safari xotiralari (XVIII asrning ikkinchi yarmi).

Bu davrda Rus va Yevropa davlatlaridan O'rta Osiyoga elchilur kelishi ko'paydi. Vizantiya imperiyasi qulagan zamondan (1453) beri diplomatiya ishi ancha faollahshdi. Chet ellarga elchi yuborish uchun hukumatlar asosan, ko'pni ko'rgan, turli texnik ma'lumotlarga ega bo'lgan kishilarni tanlar edilar. Ulardan o'zları vakil qilib yuborilgan mamlakatlardagi saroy ahllarining niyat va rejalarini to'g'risidagina emas, balki o'sha mamlakatning ichki hayoti, xalqining mashg'uloti va urf-odati, boyligi, mol ishlab chiqarish darajasi, ayrim guruhlar o'tasidagi ichki kurash va nizolar to'g'risida ham mukammal ma'lumotlar keltirishni talab etar edilar. XV-XVI asrlardagi vakolatxona elchi va agentlarining aksari etnograflar, geograflar, tarixchilaridan iborat bo'lgan.

"Risola" nomli asarni X asrning birinchi yarmida yashab o'tgan arab sayyohi va jug'rofiy fanlar bilimdoni olim va yozuvchi Ahmad ibn Fadlan yozgan. Ibn Fadlanni 921-922 yillari Bulg'or, ya'ni Volga bo'yisi podshohining iltimosiga binoan, bulg'orlar orasida islonni mustahkamlash, bulg'or podshohligini qo'shni xazar hoqonlarining hujumidan himoya qilish uchun qal'alar bino qilishda yordam berish uchun xalifa Muqtadir (908-932 y.) Bag'doddan yuborilgan elchi bilan uning kotibi vazifasida Bulg'orga yubordi. Bag'dod elchilari Bulg'orga Hamadon, Ray, Domg'on, Nishopur, Marv, Poykand, Buxoro, Xorazm, Ustyurt, O'yiq (Urol) orqali bordilar. Ibn Fadlan ana shu sayohat vaqtida ko'rgan va eshitganlari haqida "Risola" deb ataluvchi bir kitob yozib qoldirgan. Asar etnografik ma'lumotlarga boy, unda turli xalqlar, ularning turish-turmushi, mashg'ulotlari xususida qimmatli ma'lumotlar bor. Ibn Fadlanning ushbu asari XII-XIII asrlardan buyon jamoatchilikning diqqat e'tiborini tortgan, tarixchi olimlar undan birinchi manba sifatida foydalanganlar. "Risola"ning aslidan ayrim parchalar O'qut Hamaviyning "Mo'jam ul-buldon" asarida saqlanib qolgan. 1923 yili uning qisqartirilgan tahriri qo'lyozmasi Mashhad kutubxonalarining birida topilib, asarni yaqindan, bevosita o'rganishga yo'l ochildi. Ibn Fadlan "Risola"ning arabcha matni 1823 yili Peterburgda, O'qut Hamaviy asarida saqlangan parchalar asosida va 1959 yili Damashqda nashr qilingan. Asar rus tilida (tarjimon A.P.Kovalevskiy) 1939 yilda nashr qilingan<sup>12</sup>.

<sup>12</sup> Manbahunoslik. Toshkent, Turon-Iqbol, 2019. — B. 278-280.

### **“Risolat ul-avval”**

“Risolat ul-avval” (“Birinchi risola”) nomli kitob muallifi Abu Dulaf. X asrda yashab o’tgan adib, sayyoh va geograf olimdir. Uning to’la Mas’ar ibn Muhalhil al-Hazrajiy al-Yanbuiyidir. Madinaning mashhur hazraj qabilasiga mansub bo’lib, asli Qizil dengizning port shahri Yanbulikdir. Abu Dulaf X asr boshlarida Buxoroga kelgan va shoir sifatida Nasr 11 ibn Ahmad Somoni (taxm. 914-943) xizmatiga qabul qilingan. 942 yili Buxorodan qaytayotgan Xitoy elchilariga hamroh bo’lib, Sharqiy Turkiston orqali Xitoy poytaxtiga borgan, u yerdan Hindistonga o’tgan. Muallif Buxorodan Xitoy va Hindistonga qilgan safari vaqtida ko’rgan-bilganchi haqida “Risolat ul-avval” asarini yozgan.

Olimning Ozarbayjon, Armaniston va Eronning shaharlari va osori atiqalari haqida “Risolat ul-uxro” (“Ikkinchi risola”) asari ham Eronda o’sha vaqtida yozilgan. Ulardan ayrim parchalar O’qut Hamaviy hamda Zakariya ibn Muhammad Qazviniy asarlari ichida saqlangan. Bu parchalar nemischa tarjimasi bilan birga F.Vyustensfeld (1942) hamda K.Shlyotser (1844) tomonidan chop etildi. Abu Dulaf va uning asarlari mashhur sharqshunos olimlar diqqat e’tiborini qozongan. “Risolat ul-uxro” rus tiliga tarjima qilingan (1860).

### **I.D.Xoxlov elchiligi hujjatlari**

Ivan Danilovich Xoxlov XVII asrda o’tgan iste’dodli rus diplomatidir. Uning hayoti va faoliyatini o’rgangan yirik rus sharqshunosi olimi N.I.Veselovskiy (1848-1918 yy.) keltirgan ma’lumotlarga ko’ra<sup>43</sup>, I.D.Xoxlov asli qozonlik bo’lib, aslzoda (boyarin) oilasida dunyoga kelgan. Uning haqidagi dastlabki ma’lumot XVI asrning 90- yillariga tegishli. I.D.Xoxlov o’sha vaqtida og’asi Vasiliy bilan birga, davlat xizmatida bo’lgan va Qozondagi o’qchilar qismiga bosh bo’lib turgan. 1600 yili yurtiga qaytib ketayotgan Eron elchisi Pirqulibekni Qozondan Saratovgacha (shaharga 1590 yili asos solingan) kuzatib qo’yan.

1606 yili I.D.Xoxlov og’asi Vasiliy hamda voevoda Golovin bilan birligida Terekka, uning xalqini yangi podshoh Vasiliy Ivanovich Shuyskiy (1606-1610 yy.)ga qasamyod qildirish uchun .boriladi. Lekin terekliklar yangi rus podshohini tan olmaydilar, I.D.Xoxlovn bo’lsa qattiq do’pposlab, qamab qo’yadilar. Ma’lum vaqt o’tib terkliklar I.D.Xoxlovn soqchi qo’shib Astraxanga jo’natib yuboradilar. Shu tariqa u Astraxanda yetti yil, 1613 yilgacha qamoqda o’tirdi. 1617 yili Astraxanda hokimiyat ataman I.V.Zarutskiy qo’liga o’tdi va u I.D.Xoxlovn ozod qilib, Erona shoh Abbas I (1587-1629/30 yy.) huzuriga elchi qilib yubordi. Ataman Zarutskiy shohdan pul, oziq-ovqat va askar bilan yordam berishini so’radi va Moskvani egallagandan keyin Astraxanni unga in’om qilajagini bildirdi. Shoh Abbas I boshda bunga ko’ndi va atamanga 12 tuman naqd pul va katta miqdorda oziq-ovqat yuborishini va’da qildi. Lekin keyincha o’z elchisi xoja Murtazodan ataman Zarutskiy isyonib barbob bo’lgani va toj-taxt Mixail Fyodorovich qo’liga o’tganini, Erona Rossiyadan Aleksey Buxarin va Mixail Tixanov boshliq yangi elchilar kelgani haqidagi xabarni eshitgandan keyin, sikridan qaytdi. Shoh Rossiya elchilarini katta sovg’ a-salomlar bilan qaytarib yubordi. O’shanda I.D.Xoxlova ham

ketishga ijozat berdi. Lekin, Vladimirga yetganlarida podshohning amri bilan uni tutib qoldilar. 1615 yilning iyul oyida, Astraxanda Zarutskiy isyonи bartaraf qilingandan keyin, I.D. Xoxloving gunohidan kechdilar va uni qo'yib yubordilar. I.D.Xoxloving taqdiri 1620 yilgacha qanday bo'lgani bizsha ma'lum emas<sup>13</sup>.

Ehtimol, shu davr ichida u Qozon hokimi (voevodasi)ning xizmatida bo'lgan.

1620-1622 yillari u podshohning farmoni bilan Markaziy Osiyoda, Buxoro va Xiva xonliklarida bo'ldi. 1622 yil 12 dekabr kuni Rossiyaga qaytgandan keyin I.D.Xoxlov bir muncha vaqt Moskvada istiqomat qildi, 1623 yilning boshlarida unga Qozonga qaytishiga ijozat berildi hamda voevoda Odoevskiyning xizmatida bo'ldi. Uni 1624 yilning 8 dekabrida yana Moskvaga chaqirib oldilar va Buxoro va Xiva xonliklari haqidagi ma'lumotlarni tartibga solish haqida topshiriq oldi.

I.D.Xoxloving hayotga oid so'nggi ma'lumot 1629 yilga tegishli. O'sha yili Eron elchisi Muhammad Silibek va Eronning savdo karvonini Qozondan Moskvagacha va Moskvadan Qozongacha kuzatib qo'ygan.

I.D.Xoxlovdan ikki muhim hujjat; podshohning maxsus topshirig'i (nakaz) va I.D.Xoxloving Buxoro va Xiva xonliklarining ahvoli haqida podshohga yozgan axboroti (Stateuyu spisok) qolgan.

Birinchi hujjatda elchilik zimmasiga yuklatilgan vazifalar haqida so'z boradi. Uning vazifasi eng avvalo, har ikki xonlik hukmdorlarini Rossiya bilan do'stlashish, savdo va bordi-keldi aloqalarini o'rnatishga ko'ndirish, xonlarni Rossiya qudratli davlat ekanligi va uning boshqa nufuzli mamlakatlar bilan yaxshi munosabatda ekanligiga ishontirish, xonliklardagi rus asirlarini ozod qilish, har ikkala xonlik o'tasidagi mayjud munosabatlar, xonliklarning Eron, Turkiya va Gruziya bilan munosabatlar qanday ekanligini aniqlash, tabiiy boyliklari va harbiy qudratini aniqlashdan iborat bo'lgan.

I.D.Xoxloving Elchilar mahkamasi (Posolskiy prikaz)ga yozgan axboroti (Stateuyu spisok)ga qaraganda, u o'ziga yuklatilgan vazifaning katta qismini bajargan.

Masalan, Imomqulixon o'z ixtiyoridagi 23 rus asirini ozod qilgan. Boy-badavlat kishilar, amirlar va savdogarlar qo'lidagi asirlar xususida Imomqulixon elchiga «ularni qidirishga hozircha fursat yo'q, xizmatkor (Toshkent hokimi Tursunxon) isyonini bostirgandan keyin imperator janobi oliylarining bu iltimosini bajaramiz va topganlarimizni o'zimiz yuboramiz», deb va'da bergen.

Har ikkila xonlikdagi ichki vaziyat haqida ham Rossiya elchisi ko'p ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lgan. Elchingin axborotida, masalan, quydigilarni o'qiyimiz; «...(biz Buxoroda bo'lgan paytda) Buxoro xoni bilan Toshkent hokimi o'tasida urush borayotgan edi. Xon unga qarshi o'zining katta amiri Nadr devonbegini 40 ming askar bilan jo'natdi. Shulardan 10 ming navkarini Toshkent hokimi urushda halok qildi. Shundan keyin Imomqulixonning shahzodalari borib Tursun sultonning yigitlarini mag'lubiyatga uchratdilar. Ikki o'tadagi urush hali bir yoqlik bo'lgani yo'q...»

<sup>13</sup> <https://fayllar.org/manbashunoslik-va-tarixshunoslik.html?page=4>

Imomqulixon Rossiya elchisi kelib-ketgan vaqt ichida o'zaro urushlar va isyonlar tufayli Balx bilan Samarqandda turdi. Shu vaqt ichida elchiuni ikki marta borib ko'rdi, birinchi marta, Buxoroga kelgandan o'n kun keyin, ikkinchi marta yurtiga qaytib ketishi, ya'ni 1622 yil 3 avgust oldidan. I.D.Xoxlovnning axborotida o'qiymiz: «Xon o'sha vaqtarda Samarqandda emas edi. Inisi Nadr huzuriga qochib borib turgan edi.» Imomqulixon Samarqandga I.D.Xoxlov Buxoroga kelgandan bir hafta o'tgandan keyin, qaytib keldi. Lekin qattiq og'rib qoldi. Rus elchisi bilan muzokarani Nadr devonbegi olib bordi. Muzokaralarda ko'tarilgan asosiy masala qalmoqlar, no'g'aylar, shuningdek rus asirlarini ozod qilish masalasi bo'ldi. Rus asirlari xususida Nadr devonbegi elchiga bueday javob berdi: «Imomqulixon sizga quyidashilarni aytishimni buyurdi. Boshqalarini inshoalloh, Tursun sulton bilan urush tugagandan keyin qidirtirib topadi va yurtiga jo'natib yuboradi. Sizning podshohingiz ham shu tarzda ish tutib, qo'lidagi Imomqulixonning odamlarini bo'shatib yuborsin».

Buxoro va Xiva xonliklarining ichki ahvoli haqida ham I.D.Xoxlov muhim ma'lumotlar to'plagan. Uning ma'lumotlaridan ma'lum bo'lishicha, mamlakat o'zaro urushlar iskanjasida qolgan, Balx, Toshkent va Samarqand ustida turgan noiqlar markaziy hukumatga bo'y sunishdan bosh tortib, o'zlarini mustaqil tutayotganliklari natijasida Buxoro hukumati kuchsizlanib qolgan.

Xiva xonligida ham aynan shunday vaziyat hukm surar edi. Bu yerda Arab Muhammadxon (1602-1623 yy.) bilan uning o'g'illari Avanesh va Ilbors o'rtaida toj-taxt uchun kurash borardi. I.D.Xoxlovnning Elchilar mahkamasiga yozgan axborotida o'qiymiz: «Urganch zaminida isyon boshlangan. Arabxonning o'g'illari Avanesh va Ilbors (otasini) tutib olib ko'ziga mil tortganlar. Arabxonning boshqa o'g'illari; Abulg'oz bilan Sharif Sulton Buxoro xoni huzuriga qochib ketganlar».

Rossiya elchisi Xiva xonligi hududlariga O'yiq (O'rol) kazaklari va qalmoqlarning tez-tez qilib turgan talonchilik xurujlari haqida muhim ma'lumotlar keltiradi. Bu haqda I.D.Xoxlovnning ma'lumotnomasida mana bularni o'qiymiz: «Ivan Bovatda (Bog'otda) tutqinda turgan paytda Urganchga qarashli ko'chmanchi xalq ustiga bosqinlar rus kazaklari Trenka Us va uning odamlari bostirib kirib, turkmanlarni talon-taroj qildilar, ko'p odamlarni o'ldirdilar, ko'plarini asir olib ketdilar...Urganch yerlariga qalmoqlar ham ko'p bor bostirib kirib, ko'plarini o'ldirgan».

Rossiya elchisi xabarnomasida Buxoro, Xiva shahar va qishloqlarining umumiyligi haqida ham muhim ma'lumotlar keltiriladi. Ular elchi kelgan paytda ancha xarobalikka yuz tutib qolgan edi. Elchingin so'zlariga qaraganda, bunga tinimsiz o'zaro urushlar, toju taxt uchun kurash va qozoq, qalmoq va yoyiq kazaklarining tez-tez qilib turgan xurujlari sabab bo'lgan. Ma'lumotnomada bojxona to'lovlar haqi I.D.Xoxlova qimmatli ma'lumotlar uchratamiz. Bojxona haqi, birinchidan, mamlakatdan mamlakatga o'tgandagina emas, balki bir mamlakatning o'zida bir viloyatdan ikkinchi viloyatga o'tganda ham olingan. Ikkinchidan, u naqd pul bilan ham, mol bilan ham to'langan. Masalan, har bir yukdan 33 parcha mato hajmida boj olingan.

Shuningdek, I.D.Xoxlov Buxoro va Xiva xonliklarining Hindiston va Eron bilan bo'lgan munosabatlari haqida ham ayrim ma'lumotlar to'plagan. Masalan, uning xabarnomasida bunday gap bor; «Imomqulixonning, Balx xoni Nadr Muhammadning qizilboshlar podshohi shoh Abbas bilan aloqasi yomon. Ular (bir-birlari bilan) urush holatidadir. Hozirgi paytda ular orasida urush bo'layotgani yo'q. Tinchlik ham o'rnatilmagan. Urushning yo'qligi sabab, shoh bilan Hindiston o'ttasida (Qandahor uchun) urush bormoqda». Buxoro va Balx xonlari bilan Hindiston o'ttasida ham munosabatlар aynan shu vaqtida yaxshi bo'lmagan. Buning sababini Rossiya elchisi bunday sharhlaydi: «Buxoro xoni Imomqulixon Hindiston podshosiga lochin yuborgan edi. Balx xoni Nadr Muhammadxon bo'lsa uni (Buxoro elchisidan) tortib oldi. Shu sababdan Hindiston podshohi u bilan savdo aloqalarini o'zdi, savdogarlarni Balx bilan Buxoroga yubormay qo'ydi, Buxoro savdogarlariga Hindiston mollarini olib ketishni man qildi...»

I.D.Xoxlovnинг guvohlik berishicha, Xiva xonligi bilan Eron o'ttasidagi munosabatlар ham o'sha paytlarda yaxshi bo'lmagan. U, masalan, yozadi: «Urganchliklar shoh Abbas bilan yaxshi munosabatda emaslar. Ivan (Xorazmda turgan) xonzoda Ilbars qizilboshlarga qarashli Obivardga hujum qilgan, obivardliklarning otlari va tuyalarini tortib olgan. Shuningdek, 100 odamini asir qilib haydab ketgan...»

#### Aka-uka Pazuxinlar elchiligi to'g'risida manbalar

Aka-uka Pazuxinlar Markaziy Osiyo xonliklarining umumiyligi ahvoli, xonliklarga, Eron va Hindistonga Astraxan orqali olib boradigan karvon yo'li haqida keng ma'lumot jamlaganlar.

Aka-uka Pazuxinlar kelib chiqishi aslzoda (dvoryan) avlodni. Katta Pazuxin – Boris Andreevich Pazuxin 1667-1673 yillari stolnik mansabida davlat xizmatida bo'lgan va inisi Semyon Ivanovich bilan birgalikda 1669-1671 yillari Buxoro, Balx va Urganchga yuborilgan rossiya elchiligiga boshchilik qilgan. Oradan sakkiz o'tgach, 1679 yili Qrimga elchi qilib yuborilgan. O'lda isyonchi rus kazaklarining hujumiga duehor bo'lgan va olishuv paytida o'ldirilgan.

Aka-uka Pazuxinlar (elchilik tarkibida 10 kishi bo'lgan) Buxoroga O'yiq-qalmoq ulusi va Xiva orqali borganlar, qaytishda esa Eron-Shemaxa va Boku orqali qaytishgan.

Elchilar Buxoro va Xivada hammasi bo'lib ikki yarim yil turganlar.

Podshoh va elchilik mahkamasi tarafidan berilgan hujjatlardan ma'lum bo'lishicha, Aka-uka Pazuxinlar elchiligi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan;

1)har ikki davlat; rossiya va O'rta Osiyo xonliklari o'ttasidagi do'stlik va savdo aloqalarini mustahkamlash. Podshoh Aleksey Maxaylovich (1645-1676 yy.)ning Buxoro xoni Abdulazizxon (1645-1680 yy.) nomiga yo'llagan maktubida o'qiyimiz; «...biz otabobolarimizning (ishlarini) o'zaro do'stlik va izzat-hurmatda bo'lish, bordi-keldi aloqalarini davom ettirish haqidagi ko'rsatmalarini esda tutib, sizning savdogarlariningizga bizning mamlakatimizga, bizning savdogarlarimiz Sizning mamlakatiningizga bemalol borib kelishlarini yaxshilaylik.»

2)Buxoro, Balx va Xiva xonliklarida saqlanib turgan rus asirlarini ozod qilishga harakat qilish. Elchilik mahkamasi (Posolskiy prikaz) bergen yo'riqnomasi (Nakaz)da bunday deyiladi; «Buxoro, Balx va Urganchga qarashli yerlarda saqlanayotgan rus asirlari (barcha choralar bilan) ozod qilinsin. Shuni ham aytish kerakki, elchilikka «Podshoh olyi hazratlariga tegishli kishilarni, aslzoda (dvoryan va boyar)larning bolalarini qidirib topib ozod qilishga» alohida e'tibor berish topshirildi.

3) O'rta Osiyo xonliklarining ichki va xalqaro ahvolini, ulardan qaysilariga suyanish mumlinligini aniqlash. Xususan, Elchilik mahkamasining yo'riqnomasida (Nakazida) mana bunday gaplar bor; «(xonliklardan) qaysinisi kuchliroq va ishonchliroq bo'lsa, o'shanisi bilan aloqa o'rnagish lozim. Boris va uning hamrohlari Buxoro, Balx va Urganchda bo'lganlarida ularning xonlari hozirgi paytda Turkiya sultonni, Eron shohlari va Gruziya bilan qanday munosabatda ekanligini, kimlar bilan aloqasi yo'qligini, shu kundarda Korazm taxtida kim o'tirganini har qanday yo'l bilan aniqdasinlar; Buxoro, Balx va Urganch xonlarining xazinasi boyimi, askari kuchlimi, shularni ham aniqlasinlar».

Moskva hukumati aka-uka Pazuxinlarga ham Buxorodan Hindistonga olib boradigan qulay yo'lni aniqlash vazifasini yuklagan edi. Ular bu vazifani bajarish uchun tarjimonlar Nikita Medvedev va Semyon Izmaylovlarni Balxga jo'natdilar. Ulardan faqat Nikita Medvedev Pazuxinlar huzuriga qaytib keldi va Balxdan Hindiston poytaxti Shohjahonobodga olib boradigan yo'l haqida ma'lumot keltirdi. U bunday deb yozgan; «Hindistonga olib boradigan yo'l Balxdan aholi yashab turgan qishloqlar oraqlari o'tadi. O'lda hech qanday odobsizlik, talon-taraj va boj olish degan narsalar yo'q». Tarjimon Shohjahonobodga yo'l Xinjon, Parvon, Kobul, Peshovar orqali o'tishini aytgan. Yana u yozgan; «Xinjon bilan Parvon oralig'ida Hind tog'lari (Hindikush) yotadi. To'g'ri yo'lidan, tog' orqali borilganda masofa olti kunlik, tog'ni aylanib borilganda -to'rt haftalik yo'l». Ikkinchisi tarjimon Semyon Izmaylov Kobulda qolgan edi.

Aka-uka Pazuxinlarning ma'lumotnomasida O'rta Osiyo xonliklarining iqtisodiy ahvoli haqida quyidagilar keltiriladi. Zaminining boyligiga qaramay, g'alla kam yetishtirilishi va shu sababdan g'alla tanqisligi mayjudligi aytildi; «Buxoro, Balx va Xivada g'alla kam ekiladi. Fallasi yil sayin kamayib borayotir». Shuning bilan bir qatorda, xonliklarda pilla yetishtirish yaxshi yo'lga qo'yilgani va ipakni hatto Turkiya orqali Germaniyaga olib borib sotilayotganini ma'lum qiladi. Chunki, elchilikka Osiyo ipagi savdosini Rossiyaga burib yuborish xususida maxsus topshiriq berilgan edi. Xususan, «O'riqnomada bu to'g'risida «Buxoro va boshqa shaharlarida xom ipak yetishtiriladi. Uni Eron va Turkiya orqali Gkrmaniyaga eltib sotadilar, Astraxan va Moskvaga esa olib bormaydilar». Shu sababdan aka-uka Pzuxinlarga xom ipak ishlab chiqaruvchilar va bu maxsulot bilan savdo qiluvchilarni qanday bo'lmasin, «maxsulotni Astraxan va Moskvaga olib borishga ko'ndirsin», deyilgan.

Xonliklardi iqtisodiy ahvol xususida berilgan axborotlar ichida mana bu ma'lumot ham o'ta muhimdir; «Xonning xazinasi g'arib, chunki hamma qishloqlardan undiriladigan

xiroj harbiylar va mansabdorlarga maoshi uchun (tanho) taqsimlab berilgan». Boshqa so'z bilan aytganda, soliqlardan keladigan daromad kamayib ketgan.

Aka-uka Pazuxinlar O'rta Osiyo xonliklaridagi mavjud harbiy-siyosiy ahvol haqida ham muhim ma'lumotlarni to'plaganlar. Elchilik mahkamasiga (Posllskiy prikazga) berilgan axborotdan ma'lum bo'lishicha, Buxoro bilan Balx xonlari o'rtasidagi ziddiyatlar nihoyatda kuchayib ketgan. Elchilar kelgan 1669 yili Balx xoni Subhonqulixon Buxoroga itoat etmay qo'yan va mamlakatning mustaqilligini e'lon qilgan edi. Natijada ikki o'rtada urush xavfi tug'ildi. Subhonqulixon daryoning so'l qirg'og'ida katta qo'shin to'pladi. Abdulazizxon ham shunday qildi. Amurdaryoning o'ng sohiliga qo'shin yubordi va xon o'rdasini Buxorodan Qarshiga ko'chirtirdi. Balx xoniga qarshi Xiva xoni bilan ittifoq tuzdi. Anushaxon (taxm. 1663-1687 yy.) 1670 yili katta qo'shin bilan Balx ostonasida paydo bo'ldi va Balxga qarashli barcha qishloqlarni talon-taroj qildi. O'shanda Abdulazizxon ham, Subhonqulixon ham qo'shin bilan daryo yoqasida bir yarim yildan ortiq turdilar, lekin daryodan o'tishga botina olmadilar.

Axborotda (Stateyniy spisok) O'rta Osiyo xonliklarining, xususan, Buxoro xonligining, ma'muriy va davlat tuzilishi haqida ham diqqatga sazovor ma'lumotlar keltirilgan. Unda, xususan, yuqori mansabda turgan amaldorlar, masalan otaliq, devonbegi, mehtar, parvonachi, dodxoh, yasovul, bakovul, to'pchiboshi, dorug'a va ularning vazifalari va mavqeい haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, dorug'a bilan mehtarga elchilarni zarur oziq-ovqat, ot-ulov, yem-xashak bilan taxminlash vazifasi yuklatilgan. Devonbegi «otaliqdan keyin turgan va elchilarni, ular o'zi bilan olib kelgan maktublar (va sovg'a-salomlarni) qabul qilgan», «to'pchiboshilar esa zambaraklar va piyoda askarlarga boshchilik qilgan».

Axborotnomada o'zbek xonlari saroymda amalda bo'lган qabul marosimlari haqida ham ma'lumotlar keltiriladi. Unda, xususan, bueday dkymjadi: «(Ark) darvozasi oldida Boris va uning hamrohlarini Malaybek (to'pchiboshi) kutib oldi. Boris va uning hamrohlari (to'pchiboshi olib kelgan) otlarga mindilar. Podshoh qasriga yetganda ularni otdan tushirdilar, chunki podshoh qasriga otliq kirish man' etilgan. Borisning o'ng tarafiga Buxoroning atoqli zotlari, xon avlodidan bo'lган xoda va xonning yaqin mulozimlari, chap tarafda, katta amir (boyarin) xonning yaqin mulozimlari va boshqa lavozimdag'i mansabdorlar, (umuman) 100 dan ortiq kishi joy oldilar... Abdulazizxonning o'ng tarafidan xojalar, ruhoniylar va ulamolar o'r'in oldilar. Xonning oldiga uning qilichi, o'q-yoyi va qalqoni qo'yilgan edi. Uning orqasida 12 nafar nayza va qilich ko'targan uy xizmatkorlari turgan edi. Xonning old tarafida 200dan ortiq yasovul (va qo'riqchilar) tik turar edilar...»

Aka-uka Pazuxinlarga berilgan yana bir muhim topshiriq -O'rta Osiyo xonliklarida tutqinlikda bo'lган rus asirlarini aniqlash va ularni ozod qilishdan iborat edi. Pazuxinlar ba masalada ham ba'zi ishlarni amalga oshirdilar, xususan Buxoro, Balx va Xiva xonlarining shaxsiy xo'jaliklarida 3000 dan ortiq rus asiri mehnat qilayotganini aniqladilar. Shunday 22 nafarini 685 so'm oltin hisobida to'lab ozod qilishga muvaffaq bo'ldilar.

Axborotnomada ko'rsatilishicha, Pazuxinlar badavlat kishilarning qo'lidagi rus asirlari sonini aniqlay olmaganlar. Rus elchisi Elchilar mahkamasiga (posolmkiy prikazga) taqdim qilgan «Xabarnoma»da xususan mana bularni o'qiyimiz; «Buxorolik mansabdarlar qo'lida, shaharda va uluslarda ularni aniqlash mumkin bo'lmadi. Qishloqlardan kelib turgan odamlarning so'zlariga qaraganda, ular ko'p.» Qulga aylantirilgan rus asirlari asli Qozon, Ufa, Simbir uezdidan va Volga bo'y'i qishloqlaridan bo'lganlar va boshqirda hamda qalmoq bosqinchilari ularni tutib Astraxanga olib borib xivaliklarga pullab turganlar. Aka-uka Pazuxinlarning mana bu guvohliklari ham diqqatga molikdir; («boshqird va qalmoq bosqinchilaridan» ularni) xivaliklar sotib olar ekanlar. Ular maxsus rus tovarlari uchun Astraxandandan (rus yurtlariga), qalmoq va boshqird uluslariga borar, ba'zi hollarda u yerlarda rus asirlarini kutib ancha vaqt turib qolardilar. So'ng rus asirlarini olib o'z yurtlariga haydab borardilar. Boris va uning hamrohlari Xivaga borayotganlarida qalmoq udusidan rus asirlarini haydab kelayotgan xivaliklarni uchratdilar. (Xivaga haydab kelinayotgan) asirlarning soni 200, balki undan ortiqroq edi. Ularning har birini 40 yoki undan sal ortiqroq so'mga sotib olardilar. Ularning ko'pchiligin Eron va Hindistonga olib borib sotar edilar».

#### V.A. Daudov va Muhammad Yusuf elchiligi to'g'risida manbalar

Vasiliy Aleksandrovich Daudov asli fors (erlonlik) bo'lib, 1653 yili Qozonda xristianlikni qabul qilgan, Rossiya davlatining xizmatiga kirgan ham stolnik va voevoda lavozimida xizmat qilgan<sup>44</sup>. Muhammad Yusuf esa asli musulmon (tatar). U ham ruslarning xizmatida bo'lgan.

Avvalo shuni alohida ayтиб о'tish kerakki, har ikkala elchi – V.A.Daudov va M.Yu.Qosimov Buxorogacha yuirga borishgan bo'lsalar-da, elchilar mahkamasidan alohida-alohida topshiriq olganga o'xshaydilar, chunki V.A.Daudov va M.Yu.Qosimovga berilgan yo'riqnomalar (nakaz) bizgacha yetib kelmagan. U 1800 yilgacha Rossiya tashqi ishlar mahkamasining arxivida saqlanar edi. 1806 yili o'tkazilgan tekshirish paytida u turgan joyidan topilmagan. Shu sababdan V.A.Daudov va M.Yu.Qosimov qanday vazifalarni ado etganliklarini aniq bilmaymiz. Buni V.A.Daudovning elchilik mahkamasidan olgan yo'riqnomasi (nakaz)dan taxminan bilib olish mumkin. Ular quyidagilar:

- 1.Buxoro va Xiva xonliklarining Moskva hukumati bilan diplomatik aloqalarini rivojlantirishga xohishi bormiyo'qmi, shuni aniqlash;
- 2.Xonliklarda yashab turgan rus asirlarini ozod qilish;
- 3.Ikki davlat, Rossiya, Xiva va Buxoro xonliklari o'rtaisdagi savdo va elchilik karvonlarining xavfsizligini ta'minlash uchun Kaspiy dengizining kun chiqish tarafida, dengiz sohilidagi Saratosh tepaligida kemalar to'xtaydigan bandargoh qurishga Xiva xonining roziligini olish;
- 4.Amudaryoning boshi va o'zani, daryo sohilida istiqomat qilib turgan xalqlar, ularning mashg'ulotlari va turmush tarzi haqida ma'lumot to'plash;

5.Buxorodan Hindistonga olib boradigan yo'llar, Hindiston hukumatining Rossiya bilan savdo va diplomatik aloqalarini o'rnatishga xohishi bor-yo'qligini M.Yu.Qosimovga berilgan topshiriqda aniqlash.

Elchilik Buxoro va Xivada, yo'lga ketgan vaqtini qo'shib olaganda, Buxoroda 1675 yilning 15 mayidan – 1676 yil 2 oktyabrigacha bo'lgan.

Elchilik Buxoroga 1676 yil 20 yanvar kuni kelib tushgandan keyin M.Yu.Qosimov o'z vazifasini ado etish uchun Hindistonga jo'nab ketdi.

Garchi V.A.Daudov va M.Yu.Qosimov elchiligining hisoboti («Stateyny spisok») 1800 yildan keyin yo'qolgan bo'lsa-da, tadqiqotchilar N.Seliontov, V.V.Bartold va A.B.Pankov asarlaridan (Ocherk slujebnoy deyatelnosti i domashnoy jizni stolnika i voevodы XU111 stoletiya Vasiliya Aleksandrovicha Daudova. Letopis zanyatiy Arxeograficheskoy komissii, vyp.5, SPb.,1871, s.1-41; V.V.Bartold, Istorya izucheniya Vostoka v Yevrope i Rossii, soch.T.IX,-M.: 1977,s.372; A.B.Pankov. K istorii torgovli Sredney Azii s Rossiey v 1675-1725 g.g.,-Tashkent: 1926) ma'dum bo'lishicha, Buxoro va Xiva xonlari Rossiya bilan savdo-diplomatik munosabatlarini rivojlantirishga tarafda ekanliklarini bildirganlar va shunga harakat qilganlar. Tez orada Kaspiy dengizi sohilida Qarag'an bandargohining qurib ishga tushirilishi va Buxoro xoni o'z xo'jaligida xizmat qilib turgan rus asarlaridan 38 tasini ozod qilganligi ham yuqorida bildirilgan fikrga dalil bo'la oladi.

Xiva xoni Anushaxon bir tarafdan turkmanlar bilan qalmoqlarning tez-tez Xiva hududlariga qilib turgan talonchilik yurishlari, ikkinchi tarafdan Buxoro va Xiva o'tasidagi ziddiyatlar natijasida Rossiyaning iqtisodiy va harbiy yordamiga mutoj edi. V.A.Daudovga Buxorodan qaytishida Xivada Anushaxon otalig'i mana bu gaplarni aytgan: «Anushaxon Vasiliya Xiva xoni yaqinda podshoh oliy hazratlari ulug' knyaz Aleksey Mixaylovich do'stlik va hamkorlik munosabatlarini davom etishi va har ikki tomonidan savdo karvonlari bordi-keldi qilib turishi (zarurligi) haqida maktub oldilar. (O'z navbatida) Xiva xoni ham podshoh oliy hazratlari ulug' knyaz bilan shunday aloqalarni avvalidan ham ziyoda bo'lishini istaydilar».

M.Yu.Qosimov elchiligiga kelsak, unga Buxorodan Hindistonga olib boradigano'llar va Hindiston podshosi Avrangzeb (1658-1707 yy.)ning Rossiya bilan diplomatik aloqalarni o'rnatishga mayli bormiyo'qmi ekanligini aniqlab kelish topshirilgan edi. Shuning uchun ham u Buxoroga kelganlaridan ko'p vaqt o'tmay, Hindistonga jo'nab ketdi. M.Yu.Qosimov faqat Kobulgacha bordi. «Shoh (Avrangzeb) ulug' podshoh bilan do'stona aloqalar o'rnatishni istamagan» uchun orqaga qaytishga majbur bo'ldi va 1677 yili Moskvaga qaytib keldi.

### Filipp Nazarovning esdaliklari

Filipp Nazarovning hayotiga oid ma'lumotlar juda kam, 1789 yili Omsk shahrida Osiyo bilim yurtini tugatib, 1804 yili Tobolsk guberniyasidagi Irtish chizig'idagi Charlakovsk chegara postiga tarjimon bo'lib xizmatga kirgan. Undan keyin xizmat

yuzasidan boshqa chegara punktlariga ham borib ishlagan. Qo'qonga jo'nab ketishi (1813 yil) oldidan «Alohidha Sibir polki»da tarjimon bo'lib hizmat qilgan.

1813 yili Farbiy Sibir general-gubernatori Glazemanning maxsus topshirig'i bilan Peterburgdan yurtiga qaytishda yo'lida, Petropavlovsk (Shimoliy Qozog'iston)da o'ldirilgan Qo'qon xonining elchisi bilan bog'liq janjalni tinchitish uchun Qo'qonga yuborildi. Shu bilan birga uning xotira yozuvlaridan ma'lum bo'lishicha, unga Qo'qonga Sibir orqali olib boriladigan yo'llar, yo'l ustidagi shahar va qishloqlar, xonlikning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, uning mudlfaa salohiyatini kuzatish ham yuklatilgan.

Filipp Nazarov Qo'qonga sibirlik rus savdogarlari karvoniga qo'shilib, 1813 yil 16 may kuni jo'nab ketdi. Karvon Qozog'iston cho'llari va Janubiy Qozog'istondagi Suzoq va Chimkat orqali Toshkentga, undan 1813 yil oktyabr oyi boshlarida Qo'qonga kirib bordi. U Qo'qonda bir yil atrofida turdi va 1814 yilning avgust oyida, Qo'qon xoni Umarxon (1810-1822 yy.)ning elchisi bilan birga Petropavlovsk shahriga qaytib ketdi.

Filipp Nazarov bir yil mobaynida xonlik poytaxti Qo'qondan tashqari, Marg'ilon, Andijon, Namangan, Yangiqurg'on va Xo'jand shaharlarida bo'ldi va bu shaharlar, ularning xalqi hamda mashg'uloti haqida qimmatli ma'lumotlar to'pladi.

Bulardan ayrimlarini namuna sifatida keltiramiz:

«Qo'qon katta va aholisi ko'p shahar. Unda 400 ga yaqin masjid bor. Tekislikda joylashgan, xon saroyidan boshqa mustahkam biron imorati yo'q. Tevarak atrofi obod qishloqlar, buloqlarga mo'l jilg'a va ekinzorlar bilan o'ralgan. Zamini tuzli, ko'chalari tor. Yerga ko'proq paxta ekiladi. Uylari guvala va loydan qurilgan. Shahar o'rtasida toshdan bunyod etilgan uchta bozor bor. Bozorlarda savdo haftasiga ikki marta bo'ladi. Xon saroyi oldida arg'umoqlari uchun pishiq g'ishtdan qurilgan katta otxona joylashgan.

Qo'qon va unga qarashli yerlarda paxta yetishtiradilar, ipak qurti boqiladi. Yetishtirilgan paxta va ipakdan mato to'qiydilar va uni buxoroliklarga rossiyadan keltirilgan mollar evaziga, masalan, temirga, susar terisi, to'tiyo, bo'yoq, qozon, temir va po'latdan yasalgan uy-ro'zg'or buyumlari va boshqalarga almashadilar».

Marg'ilon. Shaharning aylanasi taxminan 300 verst. Yermozordan boshqa hech qanday harbiy istehkomi yo'q. Unda 20 000 askar turadi. (Marg'ilondagi) uylar ham loydan qurilgan, ko'chalari tor, uylarining derazasi yo'q...Bozorlari qator rastalardan iborat, haftada belgilangan ikki kun aoli kelib ertadan kechgacha savdo-sotiq qiladi. Shaharda har turli korxonalar ko'p. Ularda Eronda ishlab chiqarilgan parchalar, baxmal, sharq gazmollari ishlab chiqariladi va Buxoro va Koshg'arga olib borib sotiladi. Koshg'ardan esa choy, chinni idishlar, kumush, xitoy atlasi, bo'yoq va boshqa zarur xitoy mollar olib keladilar...Shaharliklar to'q va osuda turmush kechiradilar...

Bizlarni Marg'ilondan bir kuzatuvchi bilan kechik shahar Andijonga jo'natdilar...Andijon Koshg'ar bilan chegaradosh. Tevarak-atrofi obod qishloqlar, mevazor bog'lar bilan o'ralgan. Aholisi ipak qurti boqish, paxtadan ip-gazlama ishlab chiqarish va dehqonchilik bilan shug'ullanadi. Yaqin atrofda ko'chib yurgan qirg'izlar bilan savdo-

sotiq olib boradilar. Andijonda hokimning uyidan boshqa biron mustahkam qo'rg'on yo'q. U yerda 10 000 askar turadi.

Namangan. Andijonda ikki kun turib, u yerdan Namanganga bordik. O''lda Qo'qon hokimiga qarashli va ariqlar bilan o'ralgan (ikki betida) qamish o'sib turgan jilg'alarmi ko'rdik. Jilg'alarda ov o'ilish uchun bu yerga hokimning o'zi, mulozimlari bilan kelib turadi. Namanganning ham hokimning mahkamasidan boshqa, mustahkam imorati yo'q. Shaharda 1 500 ga yaqin kishi istiqomat qiladi...Qog'oz ishlab chiqaradigan korxonalari bor, tut daraxti kup o'sadi. Tut mevalarini Qo'qonning barcha shaharlariga olib borib sotadilar. Shuningdek, (tevark-atrofdagi) qirg'izlar bilan ham savdo-sotiq olib boradilar. O''lda bir-birlariga tutash juda ko'p qishloqlarga duch keldik. Yangiqo'rg'onning ham, ichiga 200 askar sig'adigan shahar boshlig'ining hovlisidan boshqa, biron mudosaa inshootini uchratmadik.

Yangiqo'rg'onda bir necha kun tunab, shahardan 10 verst narida oqib turgan Sirdaryodan o'tdik va taxminan 12 verst yo'l bosib Qoraqalpoq degan joyga borib tushdik. Xalqi gilam va jundan mato to'qir ekan.

1814 yili Qo'qonga qaytdik...

Qo'qon va unga qarashli boshqa shaharlarda ukumat savdogarlar o'lchov va tarozidan urib qolmasdiklari ustidan qattiq nazorat o'rnatgan. Qo'qonda bo'lganimda bir odamni matoni gazga solishda urib qolgani uchun yalang'och qilib, qamchilab shahar aylantirganini ko'rdim. Qamchi zarbidan u tez-tez «men gazdan urib qoldim», deb qichqirib bordi. Qo'qonliklar sud ishini hech qanday yozuvsiz olib boradilar. Ikki kishi guvohlik bersa va jinoyatchi qasam ichsa bas.

O'g'rilik qilgani uchun qo'lini kesadilar...»

Filipp Nazarov va uning hamrohlari Qo'qon xonligiga qarashli Xo'jand shahrini ham borib ko'rganlar. Masalan, Xo'jand haqida uning esdaliklarida quyidagilarni o'qiyimiz: «Xo'jand hajm jihatdan Qo'qondan kichik emas. U Buxoro tarafdan ba'zi yerlari nurab qolgan devor bilan, boshqa tarafdan Sirdaryo bilan himoyalangan. Shahardan ariq va kanallar o'tkazilgan. Qo'qondagiga o'xshash korxonalari va xodiq chiqaradigan yerlari ko'p...»

Filipp Nazarovning esdaliklari «Filipp Nazarov: Zapiski o nekotorykh narodakh i zemlyax Sredney Azii» nomi bilan ikki marta 1821 va 1968 yillari nashr etilgan.

Rossiya harbiylari O'rta Osiyo xonliklarini g'arb tarafdan, Astraxan, Kaspiy va Orol dengizi orqali ham taftish qildilar. N.N.Muravyov (1819-1926 yy.), G.I.Danilevskiy (1842-1843 yy.) va A.N.Butakov (1848-1849 yy.) ekspeditsiyalari shunday maqsadlarga xizmat qilgan.

### **Nikolay Muravevning Turkmaniston bilan Xivaga sayohati**

Nikolay Muravev (1794-1866) – mahalliy harbiy mutaxassis, 1812-1814 yillari Rossianing Eron va Turkiyaga qarshi olib borgan urushlarida ishtirok etgan, 1816-1828 yillari Kavkaz armiyasida xizmat qilgan. 1819-1820 yillari rus armiyasining Kavkazdag'i

bosh qo'mondoni general Yermolovning topshirig'i bilan Boku - Kaspiy dengizi - Chelekan orli - Qoraqum orqali Xivaga borgan.

N. Muravev kuzaturvchan odam edi. Mazkur safari haqida yozib qoldirgan asarida («Puteshestvie v Turkmeniyu i Xivu gvardeyskogo generalnogo shtaba kapitana Nikolaya Muravyova», ch.1-11; -Moskva: 1822) Xiva xonligi haqida muhim harbiy, iqtisodiy, tarixiy va etnografik ma'lumotlar to'plagan.

Asarda Xiva xonligining hududi, yirik shaharlari, xalqi va uning mashg'uloti va mudofaa sadohiyati (harbiy qudrati) haqida diqqatga sazovor ma'lumotlar keltiriladi. Unda xususan quyidagi larni o'qiyimiz:

«Xiva xonligi shimolda Orol dengizi va uning shimolida joylashgan cho'l bilan chegaradosh. Cho'lda qozoqlar istiqomat qiladilar. Shimoli-g'arbiy tarifi cho'l va qumliklardan iborat. Bu hududda turkmanlarning Taka qavmi istiqomat qiladi.

Farbiy tarifi 800 verstga cho'zilgan sahro bo'lib, u yerlarda Kaspiy dengizi atrofidiagi qavmlar istiqomat qiladilar».

Xiva xonligining beshta katta shahari bor. Ular Xiva, Yangi Urganch, Shovot, Kot va Gurlan.

«Xiva»-poytaxt shahar. Aytishlaricha, qadimda Xivaq deb atalgan. Amudaryo o'z o'zanini o'zgartirmasdan avval, bunyod etilgan<sup>47</sup>. U katta shahar. Mashhur imoratlari madrasa, xon saroyi va ibodat qiladigan masjid bo'lib, masjid gumbazi feruza rangli koshin bilan qoplangan. Xonning hovlisi ko'p hakm katta bo'lmay, unda ham bir necha kichik masjid mavjud. Uylari loydan qurilgan, ko'chalar tor. Shaharda bir necha kichik do'konlar ham bo'lib, (bozorida) haftada ikki marta oldi-sotdi bo'ladi. (Xivada) 3000 ga yaqin xonardon bo'lib, xalqi 10 000 jon atrofida. Shahar xonlikdagi boshqa shaharlar singari, ekinzorlar va katta bog'-rog'lar bilan o'rالgan. Bog' o'rtasida kichik-kichik qal'alar va uylar joylashgan».

Yangi Urganch – shu kunlarda xonlikning yangi poytaxti, xon noibi Qutli Murod inoqning turar joyi. U Xivadan kattaroq, xonlikning tamom savdo-sotig'i shu yerga to'plangan, aholisining ko'philigini sartlar<sup>48</sup> tashkil qiladi. Do'konlari ko'p va gavjum bo'lgan bu shaharda Sharq mamlakatlarida yetishtiriladigan har xil qimmatli matolar, zebziynat mollarini xarid qilish mumkin. Haftada bir necha kun savdo-sotiq bo'ladi. Yangi Urganchliklar boshqa mamdakatlarga va xonlikning boshqa shaharlariga ham o'z mollarini olib borib, savdo-sotiq qiladilar. Yangi Urganch mustahkam devor bilan o'rالgan».

«Shovot bilan Kot bir qadar kichikdir. Birinchisida 2 000 ga, ikkinchisida 1 500 ga yaqin xalq yashaydi. Har ikkala shahar ham mustahkam devor bilan o'rالgan.

Xonlikning beshinchi shahri Gurlan deb ataladi. Unda tijorat ahli ko'p. Uylari loydan qurilgan va g'arib. Masjiddan boshqa yaxshi binolari yo'q. Devorlarining asosi toshdan. Uylari loydan bo'lishiga qaramay, pishiqliq qilish qurilgan...

(Xorazmda) savlo-sotiqda shahardan qolishmaydigan katta qishloqlar ham ko'p. Buxoro yo'lida joylashgan Hazorasp, Qipchoq, Qo'ng'iroq, Oqsaroy, Xon qal'a, Moyjoygil va boshqalar shular jumlasidandir.

Yangi Urganch Ko'hna Urganch o'rniда emas, undan olisroqda, Xivaning g'arbiy tarafida, katta masofa ulug'vor imoratlarning vayronalari, pishiq g'isht va toshdan yasalgan buyumlarning parchalari bilan to'lib toshib yetibdi. O'sha joylarda hozir ham oltin topish mumkin. Bu hol Amularyoning eski o'zani bo'yalarida (qadimdan) shahar va xonardonlar bo'lganidan guvohlik beradi. Shulardan Luazan qal'asi, Qizil qal'a, Shilhsanam, O'tin qal'a va boshqalarning xarobalari hozir ham ko'zga tashlanib turibdi. Xivaning g'arbiy tarafidagi cho'lida saqlanib qolgan uylar va nahrlarning izlari qadimdan bu yerlarda madaniyati gullagan Xiva yoki Xorazm davlati bo'lganidan darak beradi...

Xiva xonligida istiqomat qilgan xalq ko'proq g'alla yetishtirish va bog'dorchilik bilan mashg'ul. Ularning daromadi asosan g'alladandir. Hamma yerlarda obod qishloqlar, kanal va ariqlarning bo'yalarida ekinzorlar, uzumzorlar va serhosil bog'lar...

Ularning egalari boy-badavlat va farovon hayot kechiradilar. Yetishtirilgan g'alla va meva istexmol talabi darajasidan ortiqroq. Falla va mevaning iste'moldan oshib qolgan qismini tevarak-atrofda ko'chib yurgan qabilalarga, qozoqlar va turkmanlarga, Abulxon va Mingqishloq xalqiga olib borib sotadilar.

Xivaliklar ko'proq bug'doy ekadilar va g'alla ularning yurtida yaxshi bitadi. Uning katta qismi sotuvga yuboriladi. (Xivaliklar) bug'doydan boshqa yana sholi ekadilar, lekin ko'zlangan miqdorda hosil ololmaydilar, chunki sholi suvda o'sadi, suv esa kam. Shunga qaramay, xivaliklar uni ekadilar, chunki undan tayyorlangan taom o'ta shirin bo'ladi... Lekin uni sotishga chiqarmaydilar, o'zlariga zo'rg'a yetadi. Xonlikda kunjut ham yaxshi o'sadi. Undan moy oladilar va ko'p qismini qo'shni yurtlarga olib borib sotadilar. Harakat qilsalar uni bundan ham ko'proq miqdorda yetishtirish mumkin. Kunjut moyi xonlikda ko'proq yetishtiriladi. Lekin arpa bilan kanop Xivada yaxshi o'smaydi. Shu sabadan uni kam ekadilar. Uanop moyi o'rniغا kunjut moyini ko'proq ishlataladilar...

Ot yemi uchun ko'proq yulg'un deb atalgan o't ishlataladi. Urug'i ovqat uchun ishlataladi, lekin uni ko'p qaynatish kerak bo'ladi. Bu taom ko'ja deb ataladi...

Bog'larida ko'p miqdorda turli navli uzum yetishtiriladi. Aholi uni quritib sotadilar. Biz uni kig mish deb ataymiz. Uni uzumning shunday atalgan navidan tayyorlaydilar, uning urug'i bo'lmaydi.

Xivaning bog'larida ko'p miqdorda turli navli olma ham yetishtiriladi, olmurut, bodom, nok, gilos, olcha, tut va anor, shuningdek, boshqa mevalar yetishtiriladi.

Sabzavotdan, Rossiyada o'sadigan karam, sholg'om va kartogkadan boshqa ham sabzavot yetishtiriladi. Piyoz yirik bo'ladi.

Xivaning qovuni va tarvuzi katta va shirin bo'ladi.

Xiva xonligida bundan (g'alachilik, bog'dorchilik, polizchilik va chorvachilikdan) tashqari, hunarmandchilik bilan ham shug'ullanadilar. Ular o'zlarini uchun zarur bo'lgan kiyimlardan tashqari, o'zlarini ishlab chiqargan ipak va ip matolardan va Buxorodan sotib

olib kelingan matolardan kiyim-kechak tikadilar. Ular to'qilgan gazmol chiroli va nafis bo'lmasa-da, pishiqligi bilan ajralib turadi. Korxonalar yo'qligi sababli kiyim-kechak bilan o'zlarini zo'rg'a ta'minlaydilar, boshqa yurtlarga mol chiqarolmaydilar. Xivalik turkmanlar tuya junidan chodir, arqon, chiroli va pishiqliklari shilamlar to'qiylidilar. Xivaliklar (bundan tashqari) chiroli ipak belbog'lar ham tikadilar. Lekin, u ham, boshqa qo'l mahsulotlari singari, chetga chiqarilmaydi, Xivaning o'zida qoladi. Xivaliklar boybadavlat va to'kin-sochin yashamaydilar, pullari kam. Topgani kundalik tirikchilik va xonga soliq to'lashdan ortmaydi.

Umuman olganda, xivaliklar hunarmandchilikda ko'p ham madakadi emaslar. Umuman temir idish va buyumlarni yasamaydilar, ularni rus asirlari yasaydilar. Garchi mis o'sha yerdagi konlardan qazib olinsa-da, undan buyumlar yasashni bilmaydilar. Misdan yasalgan idish-tovoq va boshqa buyumlarni rossiyadan olib keladilar. Oyna haqida esa hech narsa bilmaydilar, ko'pchilik uni hatto ko'rmagan ham. Shu sabadan Xivada oyna juda kam va qimmat».

Xiva xonligining harbiy ahvoli haqida Nikolay Muravyov mana bu ma'lumotlarni keltiradi:

«Muhammad Rahimxon<sup>49</sup> sultanat kursisiga o'lturgunga qadar qabilalar orasida avjiga mingan o'zaro urush-talashlar va tashqaridan qilingan bosqinlar oqibatida xalq, (ayniqsa) badavlat kishilar o'zini bosqin va talon-tarojdan saqlash uchun uylarini mustahkamlab qal'aga aylantirganlar. Bu mustahkamlangan (kichik) qal'alar, yoki qo'rg'onlar ko'pincha o'zlarining dalalari, yoki bog'lari o'rtasida qurilgan. Uning ichida turar joylar, hovuzlar, qo'rg'on sohibi va xizmatkorlarining uylari, tegirmon, qushxona, molxona, omborxona va boshqalar favqulodda yuz bergen hodisalar vaqtida 100-150 kishini saqlaydigan narsalar bor. Bu qal'alar to'rt burchakli, paxsadan bino qilingan, ba'zilarida devor tagiga tosh qo'yilgan. Devorining past qismi to'rt arshin<sup>50</sup>, tepe qismi yarim arshin, balandligi – uch sajen<sup>51</sup> atrofida, devor tashqarisida, (har yer-har yerda) paxsadan dumaloq suyanchiqlar qo'yilgan. Devorning tepe qismiga ko'ngiralar qilingan.

Xonlikning yuqorida tilga olingen beshta shahari Xiva, Yangi Urganch, Shovot, Kot va Gurlan ham mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan. Shu sababdan xivaliklar ularni qal'a deb ataydilar...Qal'alarda bironata ham zambarak yo'q, ularda askar ham yo'q. Shaharlarini aholining o'zi himoya qilishi kerak bo'ladi.

Xivaliklarda muntazam qo'shin yo'q. Urush chiqib qolgudek bo'lsa, qo'shin o'zbeklar va turkmanlardan tuziladi. Qo'shin asosan sipohiyilar tabaqasidan. U xonning buyrug'i bilan belgilangan yerga to'planadi va asosan otliq askardan iborat bo'ladi.

N.Muravyovning esdaliklari o'zbeklarning fe'l-atvori, tabiatini va qiyofasi haqida e'tiborga loyiq ma'lumotlar keltirilgan. Unda xususan o'qiyimiz: «O'zbeklar umuman aqlli va yoqimli, hazil-mutoyibani yaxshi ko'radigan, biron ishga jazm qilgudek bo'lsa, qarorida qat'iy, to'g'ri so'z, yolg'oni va egrilikni yomon ko'radigan, ruhi tetik, xushbichim va jismoniy kuchli xalq... Xarb ishlarida horib-charchamaydilar, qo'rmas va jasur kishilardir...»

## Dmitriy Gladishev va Ivan Muravinlar Xiva xotiralari

Sirdaryoning quiy oqimidagi shahar va qishloqlar, Orol dengizini o'rganish uchun 1740 yili davlat arbobi va tarixchi olim V.N.Tatishchevning tashabbusi bilan Xivaga poruchik D.Gladishev va kontr-admiral, yer o'lchovchi I.Muravinlar yuborilgan.

Orskda olgan ko'sratmaga binoan, ular 1717 yili Pyotr I zamonida Rossiya tobelligiga o'tgan Kichik Juz xoni Abulxayrxon (1695-1748 yy.) bilan uchrashishi zarur edi. Lekin, bu paytda Abulxayr Orolda edi. Mamlakatni esa Eron podshohi Nodirshoh bosib olgan edi. Shuning uchun Gladishev bilan Muravin Abulxayrxonning inisi Nurali va tog'asi Niyoz bilan birga Orolga jo'nab ketdilar va xon huzuriga yetib bordilar. Ertasi kuni Xivaga bordilar. O'sha vaqtida Abulxayr xon deb e'lon qilingan edi. Gladishev bilan Muravin Shovotda 9 noyabr kuni Nodirshoh huzurida bo'lganlar va unga Abulxayrxon bilan Xiva Rossiyaning tabaqalari ekanligini aytilib, Xivaga mehru shavqat qilinishini so'ranganlar. Zobitlarning so'zlariga qaraganda, ularning iltimosi ijobat topgan. Lekin ular Abulxayrxon bilan uchrasha olmaganlar. Shunday bo'lsa-da, Abulxayr shlhdan cho'chib 12 noyabrdan rus zobitlari bilan birga Orolga qo'chib ketdi. Bu yerda ko'p tortishuvvdardan keyin Nurali xon deb e'lon qilindi. Abulxayr Gladishev bilan Muravinni olib Odam ato arig'i bo'yida joylashgan eski o'rdsiga qaytdi. Gladishev va Muravin 1741 yilning aprel oyida u krdan Orskka qaytib keldilar. Ularning mazkur sayohati paytida to'plagan ma'lumotlari «Gladishev – Muravin. Poezdkii iz Orskka v Xivu i obratno 1740-1741 godax poruchikom Gladishevym i geodezistom Muravinym, IRGO, vyp.1U, -SPb., 1850, s.519-599» deb atalgan.

Gladishev va Muravin to'plagan ma'lumotlarning ahamiyati shundaki, ularda Orol dengizining sohillari, Xorazmnning Xiva, Shohtemir, Xojayli, Xonqa va Shovot shaharlari haqida, shuningdek, o'zbek, qozoq, qoraqolpoq va turkman aholisi haqida ayrim ma'lumotlar keltirilgan.

Bulardan ba'zilari keltirildi:

Gladishev hamrohlari bilan Xivaga kelishi bilan uni xon qarorgohiga olib bordilar. Unda xon bilan birga Orol biylari va xonning amirlari o'llirishgan ekanlar. Xon Gladishevdan so'radi: «Sen qaerdan bo'lasan?» Gladishev javob qildi: «Meni imperator hazrati oliylari jo'natdilar, marhamatli maktub bilan», - dedi va maktubni xonga uzatdi. Xon maktubni olib, muhrini peshonasiga surdi va uni yozib (kotibiga) uzatib, «hammaning huzurida o'qi!» deb buyurdi. Maktub o'qib bo'lingach, huzurida o'ltinganlarga qarab dedi: «Ko'rdilar engmi, umid bog'lab turgan oldimdag'i chirog'ni ko'ryapsizlarmi? Shu nur yordamida sizlarni (Nodirshohdan) himoya qilmoqchiman». Shundan keyin menqa qarab dedi: «Sening haqingda eshitganman. O''lda senga ozor yetkazibdilar. Huzurimga esonomon yetib kelishing uchun odam bilan maktub yubordim. Chunki, ma'lumki, Eron podshosi Nodirshoh Xiva shahrini egallash uchun kelayotir. Men esam o'zim ham, bu shahar ham men kabi imperator hazratlarining qo'l ostida bo'lishni istaymiz. Men uning huzuriga bormoqchiman. Sening ham uning huzuriga borishingga to'g'ri keladi. Imperator hazratlarining sen olib kelgan maktubini Xivadan unga yuboramiz, toki shaxsan men bilan

janjallashib yurmasin». Gladishev xonga javob qildi: «Ien sizning huzuringizga yuborilganman. Shunday bo'lgach, sizning amr-farmoningizda bo'laman».

Shundan keyin (Abulxayrxon) Gladishev odamlaridan ikki kishini, xususan yer o'Ichovchi Muravin bilan tarjimon Usmon Arslonovni ajratib olib va imperator oliv hazratlari jo'natgan maktubni qo'llariga berib, ularga maktub bilan to'rt odamni – orollik bir qoraqalpoq va bir qozoqni qo'shib, Eron podshohi huzuriga jo'natdi. Shoh o'sha vaqtida Xivadan 35 verst narida joylashgan Xonqada turgan edi. Ular shohga «Abulxayr)xon imperator hazratlarining tabaqasidir, ushbu shaharni ham u o'z tobelligiga qabul qildi», dedilar. Xon eshitdiki, Eron shohi Rossiya imperiyasi bilan ittifoq tuzmoqchi emish. Shu sababdan u Xivani va unga qarashli yerlarni talon-taroj qilmaydi», degan xabarni yetkazishlari lozim edi».

D.Gladishevning Xivada istiqomat qilib turgan rus asirlari haqida keltirgan ma'lumotlari ham o'ta muhimdir. U yozadi: «O'sha yerda asirda bo'lgan O'yiq kazagi Andrey Borodindan eshitdimki, Xivada Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasidan asirga tushib qolgan ruslar, qalmoqlar va boshqa yerliklarning soni 3 000 kishiga yetadi. U (Andrey Borodin) ularni yaxshi biladi. Bahorda ularni Xiva tevaragidagi ariqlarni tozalashga haydar boradilar. Orolda shunday asirlar soni 500 kishi. Taxminan shugcha asir Qozoq va Qoraqalpoq o'rdalarida yashab turibdilar...»

Sheldeltog'da ham rus asirlari turadilar. O'sha tog'da kumush va oltin konlari bor. Qazilgan rudalarni tekshirib qaraganlarida uning uchdan bir qismi sof oltin bo'lib chiqdi. Buni aniqlangan odam Sherg'ozixonga borib aytdi. Xon uni tiriklayin ko'mib tashlashni buyurdi, «toki u bu gapni boshqa birovga borib aytmasin, deb».

Xivaliklarning kasb-kori haqida ham Gladishev ayrim ma'lumotlar keltirgan: «Ular, deb yozgan edi u,-bo'g'doy, arpa, jo'xori, tariq, kunjut, paxta va tamaki ekadilar. Yeri, ba'zi yerlari qumloq, ba'zilari loyqadan iborat, sug'orib ekadilar. Uni ho'kiz bilan haydaydilar...»

Chorvalari: tuya, ot, mol, arg'umoqlar va oddiy otlar, eshak, qo'y, echki.

Qushlari: o'rdak, tovuq.

Mevadan: olma, anor, uzum, tut, shaftoli, jiyda, olmurut.

Poliz ekinlaridan: qovun, tarvuz, turp, sholg'om, karam, piyoz yetishtiriladi.

Daraxtlar: sada qayrag'och, terak, tol ...o'sadi. Shuningdek, tut meva beradi, bargi bilan pilla qurti boqiladi.

Xivada mis pul zarb qilinadi, miltiq dori tayyorlanadi...

Qamish va beda yetishtiriladi.

Daryolarida: Sirdaryo, Quvondaryoda, Ulug' daryoda kechuvalar bor. Ikki sajenlik, ikki yarim sajenlik qayiqlar mavjud. Ularda 5 boshgacha ot yuklab o'tish mumkin...Sirdaryo bilan Ulug' daryoda baliq ko'p.

Qamishzorlarda bars, bo'ri, shag'ol,tulki kabi yirtqich hayvonlar yashaydi».

Rossiya uchun Orol dengizining iqtisodiy va harbiy-strategik ahamiyati katta edi. Shuning uchun ham Orol flotiliyasining boshlig'i kontr-admiral A.I.Butakov (1816-1869 yy.) ga 1848 yili Orol dengizini o'rganish va uni tavsiflash vazifasi yuklatildi.

A.I.Butakovning kuzatishlari uning «Kundaliklar»ida (to'la nomi «Dnevnye zapiski plavaniya po Aralskomu moryu v 1848-1849 g.», podgotovka k pechatni Ye.K.Betgera-Tashkent: 1953) bayon etilgan. Uning yozishicha, «Orol dengizi tinch dengizlardan bo'lmay, ayniqsa shamol turgan paytida panoh topish qiyin». «Uning Farbiy sohilini suratga tushirishni Qumsuat qo'ltig'idan boshladik. Qumsuatzdan boshlab menga dengiz chuqurlasha boshlaganday tuyuldi...» Butakov o'shanda Orol dengizini va uni bandargoh qurish mumkin bo'lgan yerlarini qarichma-qarich o'chab chiqdi. Umuman, kontr-admiral Butkovning kuzatishlari, Rossiya hukumatiga kelajakda dengizda harbiy va savdo floti qurish mumkinligini ko'rsatdi. Bu reja podsho Rossiyasiga Sirdaryo va amudaryoda ham kemalar qatnovini yo'lga qo'yishga va bu bilan Koshg'ar va Hindistonga suv yo'lini olib berish imkonini berar edi.

## II.2. Yevropa manbalari

*Plano Karpini, Vilgelm de Rubruk, Marko Polo sayohatnomalari, Iogann Shiltberger, Rui Gonsales de Klavixo va Entoni Jenkinson kundaliklari (XIII-XVI asrlar). Florio Benevini ma'lumotnomasi (relyatsiya si), mitropolit Xrisanfning safarnoma va qaydlari.*

O'rta Osiyo, xususan, O'zbekiston tarixini yorituvchi tarixiy manbalar turi nihoyatda ko'p va serqirra bo'lib, fors, arab tillaridagi mahalliy qo'lyozmalar, qadimgi yunon, rim, xitoy, so'g'd, turkiy tillaridagi manbalar, arxiv ma'lumotlari va matbuot materiallari, xotiralar shular jumlasidandir. O'zbekiston tarixiga oid manbalarning yana bir katta mintaqaga XVII asrdan boshlab tashrif buyurgan sayyohlar safarnomalari bo'lib, ularning katta qismi rus, ingliz, nemis, fransuz tillarida yozilgan.

Mazkur mintaqaga qiziqish ayniqsa XIX asrda kuchayib, bu davrda xorijdan turli maqsadlarda ko'plab ekspeditsiyalar uyushtirildi, ko'plab tadqiqotchilar, sayyohlar tashrif buyurdilar.

### Mitropolit Xrisanfning esdaliklari

Xrisanf asli grek, venetsiyalik aslzoda dvoryanlardan, Afina yaqinida joylashgan Yangi Pator cherkovining mitropoliti bo'lib xizmat qilgan. Haqiqiy ismi sharifi Kontaripi. 1724 yili muqaddas patriarch Samuel tarafidan Istanbul atrofida joylashgan Xiroti nisan cherkoviga mitropolit etib tayinlangan. Podshoning tazyiqi oqibatida 1784 yili Istanbulga ketib qoldi. Ko'a vaqt o'tmay, Xrisanf Livon ordeniga qarashli cherkovlar bilan tanishish maqsadida Shom-Suriyaga, u yerdan Xalab-Aleppoga bordi. O'sha yerda ingliz savdogarlari bilan tanishib qoladi va ular bilan birga Frot-Yevfrat daryosi bilan Fors qo'ltig'iga bordi va u yerda kemaga tushib, Maskat orqali Hindistonning Surat bandargohiga kelib tushdi. So'ng Hindiston, Kashmir, Kobul, Balx va Samarcand orqali

Buxoroga bordi. Xrisanf O'rta Osiyoning bir qancha shaharlarda bo'ldi, bir yil Xivada turdi. So'ng 1792 yili Ashtarkonga bordi va bir fursat o'sha yerda istiqomat qildi. Keng ma'lumotli va kuzatuvchan bu odam tez orada Astraxanda ko'plarning diqqatini o'ziga tortdi. Ashtarkan yepiskopi uning haqida muqaddas sinodga axborot yuboradi. So'ng Xrisanf Moskvaga chaqirtiriladi. Muqaddas Sinod uni har taraflama tekshirib ko'rib va keng ma'lumotli odam ekanligiga ishonch hosil qilgandan keyin, Xrisanfnii Kavkaz o'llkasiga, uni batapsil o'rganish uchun yubordi. So'ng, 1796 yilning boshida, Ryazan, Tambov va Kavkaz o'lkkalarining general gubernatori graf Gudvich podshoyi oliy hazratlarining amri bilan Xrisanfnii Peterburgga, Nevskiy monastriga mitropolit Gavriil huzuriga jo'natib yuboradi<sup>15</sup>.

Mitropolit Xrisanfnning birdan poytaxtga chaqirilishi, uni yaxshi bilgan sharqshunos V.V.Grigorevning fikricha, Rossiyaning yaqin orada Eronga bostirib kirish rejalari bilan bog'liq bo'lsa kerak. Rus harbiy ekspeditsiyasining rahbari Valerian Zubovga sayyohning Eron va O'rta Osiyo haqidagi keng bilimi kerak bo'lib qolgan. Oradan bir yil o'tgach, 1797 yili Xrisanf muqaddas Sinodning farmoni bilan Yekatrinoslav yeparxiyasiga xizmatga jo'natildi. 1798 yilning 20 yanvarida Mitropolit Xrisanf Feodossiyaga jo'nab ketdi. Uning keyingi hayoti va faoliyati haqida boshqa ma'lumotga ega emasmiz.

Mitropolit Xrisanfnning O'rta Osiyoga qilgan sayohati kundaligi bir paytlar rus harbiy ekspeditsiyasiga boshchilik qilgan shraf Valerian Zubov qo'lida bo'lgan. Kundalik, ba'zi shahar va viloyatlar o'rtisidagi masofa, aholisining umumiy soni haqidagi noaniqliklarni hisobga olmaganda, katta qimmatga ega. Unda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy ahvoli, xalqining turmush sharoiti, e'tiqodi haqida, shuningdek, O'rta Osiyoda istiqomat qilib turgan eronlik asirlarning ahvoli haqidagi qisqa, lekin o'ta muhim ma'lumotlarni uchratish mumkin. Masalan, Buxoro xonligining yirik shaharlardan Samarqand, Buxoro va Balx hamda Xorazmning XVII-XIX asrlardagi poytaxti Xiva haqida Xrisanf mana bularni yozadi: Samarqand haqida: «Samarqand shu kunlarda deyarli bo'sh qolgan. Uni egallab olgan bahaybat mahluq samarqandlik noib (Rajabxon) uni ilgarigidek obod qilish uchun qanchalik urinmasin, mehnati zoe ketdi. Eshitimcha, uning tevarak atrofdaridagi tog'larda konlar bor, tabiat yoqimli... Tevarak atrofida ham o'zbeklar istiqomat qiladilar».

Buxoro haqida: «Buxoro – to'q shahar. Unda savdogarlar va boshqa (boy-badavlat) odamlar ko'p. U asosan kumush, oltin, marvardi va qimmatbaho toshlarga boy. Xon tez-tez Balx va mashhad ustiga talon-taroj yurishlari uyuشتirib turadi. Buxoroliklar jon-jahd bilan jang qiladilar».

Balx haqida: «Balx viloyati haqida gapirmasam guonhi azim bo'ladi. Agar Buxoro hukmdorlari tez-tez hujum uyuشتirib, uni talon-taroj qilmaganlarida u obod, qadratlari va boy viloyat bo'lur edi. Nodirshoh vasot etgandan beri shu vaqtgacha afg'on podsholari qo'lida. Uning qal'asi chor tarafdan (suv yuilan to'ldirilgan xandaq bilan o'ralgan) tepalikda joylashgan. Balx ataluvchi katta qal'asi bor. Qal'a hozirgacha mustaqil. Ahmadshohdan boshqa hech kimga bo'yusunmaydi. Devorlari pishiq g'ishtdan...»

<sup>15</sup> <https://uz.eferrit.com/tarixiy-atamalar-lugati>

Buxoro xonligining mineral boyliklari haqida Xrisanf quyidagi ma'lumotlarni keltiradi: «Buxoro bilan Balx o'tasida baland bir tog' bor. Unda qizil tusli marmar (parchalari)ga o'xshash tusdagi tuz konlari mavjud. O'sha viloyatda shunday tog'lar ham mavjudki, ularda har turli ma'dan konlari bor. Bu tog'larda o'zbeklarning qo'ng'iroq qavmi istiqomat qiladi. Bu tog'lar shimolda Samarqandgacha, sharqda Badaxshongacha cho'zilgan.

Buxoroda istiqomat qilib turgan asarlar haqida mana bu ma'lumot keltirilgan: «Buxoroda ko'p rus asirlari bor, eronliklardan 6000ga yaqin asir bor. Ular xo'jayinlariga qarshi qo'zg'olon ko'tarish darajasiga yetishgan».

Xiva shahri haqida o'qiyimiz: «Yerli aholi ikki toifadan: mahalliy kotliklar (Xrisanf ularni Kidity deb ataydi) va boshqa yerlardan ko'chib kelgan qo'ng'irotlardan tashkil topgan. Ular Kotdan chiqqan vazir o'ldirilgandan beri o'zaro yovlashib keladilar. Kotliklar 5000 ga yaqin xonadondan iborat. Ular o'ta kek saqlovchi xalq. Kotliklarning tayyor qo'shini yo'q. (Zarur bo'lib qolganda) kelishib odam yollaydilar. Oyiga kimga o'n so'm. kimga bir so'm beradilar. Aytishlaricha, xivaliklarning harbiy kuchi 20 000 kishini tashkil qilar emish. Lekin bu gap to'g'ri emas, masalan, o'tgan yili, men o'sha yerda ekanligimda Avazbiy Inoqning<sup>46</sup> topshirig'i bilan aholini hisob-kitob qilganlarida, mamlakatda hammasi bo'lib 3000 zrnadon borligi aniqlangan. Lekin hukmdorga yaxshi ko'rinish uchun (qo'shin sonini) 20 000 kishidan iborat deb aytadilar. Qo'ng'irotlilar jahldor xalq. Boshliqlari boy-badavlat kishilar, oddiy xalq esa qashshoq... Xivaliklarning ko'pchiligi Astraxan va Buxoro bilan savdo-sotiq olib boradi. Kotliklar kelgindilar (qo'ng'irotlar)dan qutilish uchun Rossiya bilan ittifoq tuzishni xohlaydilar, lekin (ruslarning urush ochmoqchi bo'lib turgani haqida) tarqalgan xabarning oqibatidan qo'rqrar edilar. Mingqishloq turkmanlari ham shuni istar edilar, lekin qozoqlar xavfidan qo'rqrardilar». Bunday dalil va ma'lumotlarni mitropolit Xrisanfning xotrotlarida ko'p uchratish mumkin.

XVIII asning 70-yillaridan boshlab Rossiya hukumati O'rta Osiyo xonliklari va Qozog'istonning siyosiy, iqtisodiy va xalqaro ahvolini, xususan o'sha mamlakatlarga olib boradigan yo'llarni o'rganishda keng ma'lumotli va zehn-idrokli harbiylardan ham ko'proq foydalana boshladi. Ular Rossiya hukumatiga bu haqda o'ta muhim ma'lumotlar to'plab berdilar. Ana shunday harbiy mutaxassislardan ayrimlari va ular to'plagan ma'lumotlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

### **Florio Benevini elchiligi to'g'risida manbalar**

Sharqqa katta harbiy kuch yuborish va uni quroq vositasi bilan egallash harakati Pyotr I (1682-1725 yy.) davridan boshlab kuchayib ketdi. Pyotr I Aleksandr Bekovich-Cherkasskiyi mukammal qurollangan 5000 askar bilan Xivaga, uni Rossiya homiyligiga kiritish xususida xon bilan muzokaralar olib borish uchun yubordi. Aslida bu shunchaki elchilik emas, balki xonni chalg'itib, Xiva xonligini kuch bilan bo'yundirishga qaratilgan harakat edi. Lekin Pyotr I maqsadiga erisha olmadi. Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasi

muvaqqiyatsizlikka uchradi. Sherg'ozixon (1715-1728 yy.) Rossiya podshosining asl niyatini o'z vaqtida payqadi va A.Bekovich-Cherkasskiy ekspeditsiyasini daf qildi.

Shundan keyin Rossiya Xiva va Buxoro xonliklarini bo'ysundirish payti kelmaganligini, uni osonlikcha bo'ysundirish mumkin emasligini, ularni hali ko'p o'rghanish zarurligini anglatdi.

Rossiya elchilik mahkamasining mas'ul xodimi Florio Benevini elchiligi shunday maqsad bilan O'rta Osiyoga yuborildi. Shuni ham aytish kerakki, Buxoro va Xivada A.Bekovich-Cherkasskiy voqeasidan keyin Pyotr I O'rta Osiyoga katta qo'shin yuboradi, degan xavf-xatar tug'ilgan edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Abulfayzxon 1717 yili Rossiyaga elchi yuborib, u bilan do'stona va savdo-sotiq aloqalarini o'rnatish istagini bildirdi.

Florio Benevini uchun tuzilgan va 1718 yil 13 iyul kuni Pyotr I tarafidan tasdiqlangan q'llanmada elchiga quyidagi topshiriqlar berilgan:

1) Florio Benevini Buxoro xoni huzuriga podsho hazratlarining elchisi sifatida boradi. Shu haqda uning qo'liga podsho hazratlarining Buxoro xoni nomiga yozilgan maktubi topshirildi. Elchi Peterburgdan Moskvaga qaytib borishi hamono Astraxanga jo'nab ketadi. Astraxandan Buxorogacha Abulfayzxonning uni Astraxanda kutib turgan elchisi bilan birga boradi.

2) Florio Benevini Abulfayzxonning elchisiga yo'lda o'zini tanitmeydi. O''lda, ayniqsa Buxoro xonligi hududlaridan o'tayotganda, hamma yerkarni, xususan bandargohlar, qal'alar va shaharlarni diqqat bilan ko'zdan kechirib boradi.

3) Xon bilan uchrashganda uni Eron va boshqa davlatlarning elchilari qatorida zo'r hurmat va ehtirom bilan qabul qilinishiga erishsin. Podsho hazrati oliylari u bilan do'stlik va savdo-sotiq aloqalarini ilgaridan ham ziyoda bo'lishini istayotganini xonga ma'lum qilsin.

4) Buxoroda bo'lganida, qanday bo'lmasin, Buxoro xonligi qal'alari, qo'shini, otliq va piyoda askarlarining umumiyligi soni, ularning quroq-aslahalari va qancha zambaragi borligini, qo'shinidagi umumiyligi ahvol, qal'arning qo'riqlanishini bilib olsin.

5) Abulfayzxonning Eron shohi va Xiva xonlari bilan munosabati qay darajada ekanligini aniqlasin. Xiva xoniga qarshi harbiy ittifoq tuzish taklif etilsin.

6) Buxoroda qanday tovarlar ishlab chiqariladi va udar qaerlargi olib borib sotiladi? Buxoroga dengiz yoki quruqlikdan qaysi yo'l bilan borish mumkin? Buxoroda qaysi rus tovarlariga ehtiyoj katta? Rossiya bilan savdo-sotiqni kuchaytirish mumkinmi? Mana shu masalalarni aniqlasin.

7) Amudaryoda oltin bormi? Buxoro xonini qo'riqlash uchun necha yuz gvardiyachi, yoki qo'shin yuborilsa, xon bunga rozi bo'ladimi? Shuni ham aniqlasin.

Har ikkila elchilik, Buxoro xonining Rossiyadan vataniga qaytib kelayotgan elchisi va Florio Benevini 1721 yil 6 noyayurda Buxoroga yetib oldilar. Florio Benevini va uning hamrohlarini Buxoroga 10 verst<sup>45</sup> qolganda yo'l ustida Buxoro to'pchiboshisi boshliq 50 kishidan iborat saroy mulozimlari kutib oldilar.

Rossiya elchiligi Buxoroda uch yarim yil, 1721 yil 6 noyabridan to 1725 yil 8 aprelijacha turdi va podshoning yuqoridagi topshiriqlari bo'yicha qimmatli ma'lumotlar to'pladi. Ularning eng muhimlarini quyida keltirildi.

Buxoro va xalqining quroq-aslahalari haqida Florio Benevinining o'z hukumatiga bergen ma'lumotnomasi (relyatsiya)sida shular yozilgan: «(Qal'asi) yarim vayron bo'lgan xandaq bilan o'ralsan. Shaharda loydan qurilgan 15 ming hovli-joy mavjud. Shahar markazida pishiq g'ishtdan qurilgan baland minorali xon saroyi va madrasalar joylashgan.

Juda kam o'zbekda miltiq bor. Ular asosan o'q-yoy va nayza bilan qurollangan. Shaharda hammasi bo'lib 15 nafar zambarak bor. Lekin, ularning faqat bittasidan bayram kunlarida otish mumkin».

Ma'lumotnomada Buxorodagi rus asirlari haqida ham ma'lumot bor. «Buxoroda,-deb aytildi bu hujjatda,-xon va boshqa o'zbeklar qo'lida 250 ga yaqin asir bor...Ularning umumiy soni 1000 ga yetadi. Aytishlaricha, ularning soni Buxoro xonligida 2000, Xiva bilan Orolda 1500 ga yetadi»

Mamlakatning yer osti va yer usti boyliklari haqida turli vaqtarda jo'natilgan ma'lumotnomalarda (Florio Benevini Buxoroda to'plagan ma'lumotlarini qo'lda saqlashdan qo'rqib odamlari orqali Moskva va Peterburgga jo'natib turgan) quyidagilarni o'qiyimiz:

«Amudaryoning bosh qismida oltin yo'q. Lekin unga Ko'kcha daryosi kelib qo'shilgan joyda qumloq yerlarda oltin bor, chunki Ko'kcha daryosi oltin va boshqa rudalarga boy tog'lardan boshlanadi. Ko'kchaning boshlanish qismida, xususan yoz fasilda mahalliy aholi katta-katta oltin parchalarini topib oladilar.»

«Badaxshondan tashqari, oltin, kumush, achchiqtosh, qo'rg'oshin, oliy navoi temir konlari Samarqand va Buxoroda ham bor».

«(Yuqorida) tilga olingan Sirdaryoda oltin topsa bo'ladi. Lekin Andijonda va marg'ilonda ko'proq. Boshqa yerlardagilar haqida choperimiz (Nikolay Miner) aniq qilib aytib beradi. Sirdaryo sohillarida qumdan topilgan oltin parchasini undan berib yuboroqdaman».

«O'sha daryoda (Sirdaryoda) oltin bor. (Tavarak atrofdagi) tog'larda, xususan Koshg'arda, Marg'ilonda, Andijonda va Toshkentda ham bor. Har holda biz shunday deb egitdik».

F.Benevinining mana bu ma'lumoti ham muhim: «Badaxshon tog'laridagi oltin, la'l va zahar mo'hra konlarining barchasi mahalliy beklarning qo'lida».

F.Benevini Buxoroning XVIII asrning birinchi choragidagi ichki va xalqaro ahvoli haqida o'ta muhim ma'lumotlar to'plagan. Uning o'z hukumatiga yuborgan ma'lumotnomasi (relyatsiya)sida bu haqda mana bularni o'qish mumkin: «Uni (kamerdiner N.Minerni) savdogar qiyofasida, mol bilan, Balx va Badaxshonga jo'natgan edim. Va ularidan o'tib Lohurgacha borishni buyurgan edim. Lekin yo'lida talonchilar ko'pligidan Balxdan orqaga qaytdi». «O'sha Badaxshon va Balx mamlakatlari mustaqil bo'lib olganlar. U yoki bu xonning qo'l ostida. Lekin xonlarini tez-tez almagtirib turadilar».

«...Beklarning o'zboshimchaligi tufayli butun mamlakat isyon va tug'yonlar iskanjasida qolgan».

«Xususan poytaxt shahar to's-to'palonlar va isyonlar dastidan og'ir ahvolda qolgan. Ayniqsa, Ibrohimbiy kenagas isyonni tufayli Abulfayzxon shaharni tashlab chiqishga majbur bo'lган, so'ng o'g'li bilan birlashib, Buxoro va uning atrofini talon-toroj qilib katta zarar yetkazdi». «Shahar oziq-ovqat va yem-xashak xususida shu qadar g'arib bo'lib qoldiki, oddiy xalq tirikchilik deb o'z bolalarini sotdi, ko'p odam o'lib ketdi, mol-ko'yи va ot-tuyalarini qirilib ketdi».

Buxoro xonligidagi tarqoqlik XVIII asrning boshlarida shu darajada kuchaygan ediki, masalan, Farg'ona vodiysi va Samarqand Buxorodan ajralib chiqib, Qo'qon xonligi (1709-1876 yy.) va Rajabxon boshliq Samarqand bekligi tashkil topdi. Xususan, Samarqand bekligining tashkil topishi haqida F.Benevinining 1723 yil 4 mart kuni yuborgan maxfiy axborotida bunday deyilgan: «...sobiq (Buxoro) otalig'i Ibrohimbiy Samarqand ustiga yurdi va uni egalladi. Shundan keyin boshqalar bilan qo'shib, xon avlodidan bo'lган Sharg'ozixonni Rajabxon nomi bilan (Samarqand) taxtiga o'tqazdi va uni o'ziga kuyov qilib oldi. O'zi esa otaliq lavozimini egalladi».

Bir fursat vaqt o'tib, Rajabxon maxfiy tarzda F.Benevini bilan aloqa bog'ladi. U rus elchisidan haqiqatan ham Rossiya A.Bekovich-Cherkasskiyning qasdini olmoq uchun Xiva ustiga yurishga ahd qilgan-qilmaganligini bilmoqchi bo'ldi. Bu haqda Xivaning o'ida ham gap-so'zlar yurar edi. 1723 yili Shkrg'ozixonning o'zi qalmoq xoni Ayuqdan «ruslar Saratovda askar to'playotibdilar va balki 1724 yilning bahorida Xiva ustiga yursalar kerak» degan gapni eshitgan edi. Shundan keyin, Shkrg'ozixonni Orol o'zbeklari ruslar Xiva ustiga boshlab kelmasmikan, muqobil beklari uni taxtdan tushirib, saltanat tepasiga Temur sultonni o'tqizmasmikan, degan shubha bosdi.

XVIII asrning boshlarida Buxoro bilan Xiva o'rtasidagi munosabatlar birmuncha og'irlashgan edi. Bunga, birinchi navbatda, Xiva xonlarining Buxoro, Chorjo'y va hatto Samarqand hududlarini talon-taroj qilishlari asosiy sabab bo'ldi. 1721 yilga kelib ikki o'rtada urush chiqish zavfi yaqqol ko'zga tashlanib qoldi. F.Benevinining 1721 yil 25 may kuni Moskvaga yo'llagan xabarida masalan, quyidagilarni o'qymz: «Xiva xoni haqiqatan ham buxoroliklar bilan urushmoqchi. Shunga tayyorgarlik ko'rmoqda. Lekin, katta beklari bunga yo'l bermay turibdilar. Ular hatto Sherg'ozixonni taxtdan tushirib, 15 yildan beri Buxoro xoni huzurida kun kechirayotgan Musaxonni taxtga o'tqizmoqchi bo'lmoqdalar. Shu haqda Xivaning katta beklari Buxoro xoni bilan bordi-keldi qilib turibdilar». F.Benevini Xivaning o'zi ham notinch bo'lib, ikki yirik arbob Sherg'ozixon bilan Temur sulton o'rtasida hokimiyat uchun kurash borayotgani va Rossiya Temur sultonni qo'llab-quvvatlasa foydali bo'lishini aytди. «Agar Sherg'ozixon yo'qotilsa,-deb yozadi F.Benevini,-bu yerda tinchlik o'rnatiladi, hamma yo'llar ochiq bo'ladi».

F.Benevini to'plagan ma'lumotlar Rossiya hukumati, uning tashqi siyosati uchun kelajakda qo'l kelib qoldi.

Mintaqaga tashrif buyurgan xorijiy sayyoohlari qatorida rus sayyoohlari va

tadqiqotchilarining asarlari alohida o'rinn egallaydi. Zero bu sayohatlar oddiy kuzatuvlar emas, balki tadqiqotchi olimlar tomonidan amalga oshirilgan o'ziga xos ilmiy tadqiqotlar bo'lib, mintaqqa tabiatni, iqlimi, tabiiy resurslari, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Ularning aksariyati "Rus geografiya jamiyatasi" tomonidan uyuşdırılmış edi. So'zimizning isboti uchun Rus sayyohi va geografi N.M. Prjevalskiy 1876-1885-yillarda Markaziy Osiyoga 4 marta sayohat uyuşdırilib, o'z safar taassurotlari va tadqiqotlari asosida mintaqqa hududlarning relyeñi, iqlimi, daryo va ko'llari, o'simlik va hayvonot dunyosini tafsiflab bergan. Markaziy Osiyodagi asosiy tog' tizmalarining yo'nalişini aniqlagan. Ekspeditsiyalar davrida zoologiya, botanika va mineralogiyaga doir kolleksiya, mahalliy xalqlarga va ularning turmushiga oid etnografik ma'lumotlar to'plagan. Rossiya imperiyasi 0'rtta Osiyo hududlarini bosib olishda N.M. Prjevalskiy to'plagan ma'lumotlardan unumli foydalangan. Uning asarlari ko'pgina xorijiy tillarga tarjima qilingan. Markaziy Osiyo va Alyaskadagi bir nechta tabiiy obyektlar, bir qancha hayvon va o'simlik turlari Prjevalskiy nomi bilan atalgan. "Rus geografiya jamiyatasi" raisi P.P. Semenov Tyan-Shanskiy tomonidan mintaqaga juda ko'p sayohat va ekspeditsiyalar uyuşdırılmış. Uning sayohatlari va tadqiqotlari asosida yozilgan asarlarda mintaqqa tabiatni, geografiyasi, tog' tizmalari, aholisi, xo'jaligi, iqlimi haqida (metereologik kuzatuvlarga asoslangan) qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lib, osha davr bo'yicha muhim manba hisoblanadi. Mintaqaga sayohat qilib uning tabiatini chuqur o'rgangan rus tadqiqotchilaridan yana biri N.A. Severtsov edi. U Sirdaryo, Chuy daryolari oraliq'i, Tyanshan tog'lari, Issiqko'l ko'li, Xo'jand uyezdiga 1857-1858, 1864, 1865-1868-yillarda uyuştirgan sayohatlari asosida qator yirik asarlar yozib qoldirgan. Ushbu asarlarda mintaqqa hududida zoologiya, geologiya, orfografiya, hayvonot dunyosiga oid qimmatli ma'lumotlar qayd etilgan. Yana bir rus tadqiqotchisi I.V. Mushketovning mintaqaga sayohatlari davomida o'lkaning geologik xaritasi, tabiatning ilmiy tafsifi yaratilishiga asos bo'ldi. Bulardan tashqari rus tadqiqotchilarini tomonidan turli yo'nalişlarda juda ko'p ilmiy safar, ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Ularning natijalari sifatida chop etilgan asarlar bugungi kunda muhim ilmiy ahamiyatga ega bo'lib, mintaqqa tarixi, tabiatni, iqtisodi, tabiiy shart-sharoiti, iqlimi, geologiya, mineraloj'iya, seismologiya, arxeologiya, hidrologiya, qishloq xo'jaligi /ohalari haqida muhim ma'lumotlarga ega. O'lkaza katta qiziqish bilan tashrif buyurgan, mintaqqa aholisi hayotini yoritgan sayyoohlarni asarlari tarixiy manba sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Bu awalo sayyoohlarning mutlaqo boshqa mamlakat vakili bo'lganligi, ularda siyosiy maqsadlar ('mas, o'lkanli o'rganish, bilishga qiziqish, ma'lumotga ega bo'lish istagi ustunligi sababli masalaga nisbatan xolis yondashuv, kundalik hayot tafsilotlarining ko'pligi, mahalliy mentalitet va lurmush tarziga alohida e'tibor qaratilganligi, shaxsiy kuzatuv va fikr-mulohazalarga asoslanganligi, sayyoohlarni tarixiy voqelikni o'sha davr zamondoshi sifatida tahlil etganligi, mahalliy hayotni Yevropa yoki boshqa mamlakatlar hayoti bilan taqqoslanishi, mintaqadagi bir hududdan ikkinchi hududdagi tafovutlarni shaxsiy kuzatuv asosida tahlil etilishi bilan ajralib turadi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, so'nggi o'rta asr manbalarining katta qismi saroy

tarixchilari qalamiga mansubligi sababli ularda hukmdor va amaldagi siyosat hamda mamlakat hayoti haqida xolisona fikrlar kam uchraganligi sababli sayyoohlarning safarnomalari bu boradagi axborotlarni to'ldiradi. O'lkaza tashrif buyurgan sayyoohlarni safar yo'naliishlariga qarab bir necha guruhga bo'lish mumkin:

1. Aynan Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayyoohlар.
2. Qo'shni mamlakatlarga sayohati chog'ida Markaziy Osiyo orqali o'tgan sayyoohlар.

#### **K.F. Butenevning Buxoro missiyasiga oid qaydlari.**

1842—1842-yillarda Rossiya ma'murlari tomonidan Buxoroga muhandis Konstantin Fyodorovich Butenev (1805-1869) rahbarjigida missiya kelgan. K.F. Butenev 1826-yilda Tog'-kon kadet korpusini tamomlagan, ushbu sohada faoliyat olib brogan hamda keyinroq Freybergdag'i tog'-kon akademiyasida o'qib, Germaniya, Vengriya, Transilvaniyadagi konlar va zavodlarda bo'lgan. 1832-yilda esa Tog'-kon institutiga o'qituvchi etib tayinlanadi. 1841-yilda Buxoroga yuborilgan elchilikka boshchilik qilgan. Buxorodan qaytgach, Peterburg zarbxonasida ishlab (1843), Peterburg texnologiya institutiga direktor etib tayinlanadi (1853). Keyinroq, 1858-1863-yillarda Peterburg zarbxonasini boshqargan. K.F. Butenev missiyasiga amirlikda rus kpnsligini ochish orqali Rossiya—Buxoro munosabatlariga doir bo'lg'usi hujjatlarni mustahkam rasmiylashtirish vazifasi yuklatilgan. Bu taklif amir Nasrulla tomonidan ma'qullanmagan. Missiya jo'natilgan davrda Buxoroda joususlikda ayblanib, ingliz zabitlari Stoddart va Konolli hibsga olingan edi. Angliya hukumatining iltimosiga ko'ra, Rossiya imperiyasi podsho hukumati K.F. Butenevga ularni ozod qilish bo'yicha amirga arznama qilish haqida maxsus topshiriq ham bergen. Bu arznama ham rad etilib, K.F. Butenev missiyasidan so'ng, ingliz zabitlari o'limga hukm qilingan. K.F. Butenev Tashqi ishlar vazirligiga taqdim etgan qaydlarida Rossiya—Buxoro iqtisodiy, siyosiy munosabatlarining kelgusidagi rivoji uchun qimmatli tavsiyalarni bergen. K.F. Butenev o'zining Buxoroga tashrifi natijalari va bu yerdagi mineral boyliklar, tog'-kon ishlari hamda pul zarbxonalari haqida "Tog'-kon jurnali" ("Горный журнал")ning 1842-yil sonlarida maqolalar chop ettilgan. K.F. Butenev missiyasi va uning qaydlari XX asrning 20-90-yillarida taniqli tarixchi olimlar V.V. Bartold, M. Solovyov, O.V. Maslova, N.A. Xalfin, B.V. Lunin tomonidan tadqiq etilgan.

**G.I. Danilevskiyning Xiva xonligi tavsifi (1842-1843).** 1842-yili Xivaga podvolkovnik G.I. Danilevskiy boshchiligidagi missiya yuborilgan. Uning tarkibida tabiatshunos F.I. Baziner, topograflar Zelenin birinchi va Zelenin ikkinchi, tarjimon Grigoryev va feldsher Chertorogovlar bo'lgan. Missiya Orenburgdan yo'lga chiqib, Ustyurt, Orol dengizi bo'yulari va Ko'lna Urganch, Toshgovuz orqali Xiva va Xazoraspga kelgan. Missiya mobaynida qimmatli botanik va geologik kolleksiyalar to'plandi, geografik, etnografik va meteorologik kuzatuvlar amalga oshirilgan. Qadimiy tangalar to'plangan. Xiva xonligiga oid ko'plab geografik, tarixiy ma'lumotlar yig'ilgan. Natijada "Xiva xonligining umumiyligi kartasi" shuningdek, xonlik aholi yashash qismining orqidrografik kartasi ishlab chiqilgan. Missiya faoliyati yakuni bo'yicha G.I. Danilevskiyning "Xiva xonligi tavsifi" ("Описание Хивинского ханства") nomli asari

(Sankt-Peterburg, 1851) va F.I. Bazinerning esa bir qator maqolalari nashr etilgan (Sankt-Peterburg, 1844, 1848, 1851). Mashhur geolog I.V. Mushketov o'zining "Turkiston" asarida ularni "Xiva, Ustyurt va Orol to'g'risida ajoyib ma'lumotlarni chop etganliklarini" ta'kidlagan. G.I. Danilevskiyning "Xiva xonligi tavsifi" asari 12 ta bo'limdan iborat. Dastlabki boclimalarda o'lkanning geografik va hidrografik ma'lumotlari berilgan. Beshinchi bo'limda Amudaryoning g'arbiy qismidagi aholi istiqomat qiluvchi vodiyning umumiyo'ti yoritilgan. Oltinchi bolimda xalqlarning tarkibi va soni, yettinchi bo'limda esa xonlikning 25 ta shahri hamda ularning alohida ahamiyatga ega bo'lgan binolari, masjid va madrasalari, karvonsaroylari haqida ma'lumot berilgan. Jumladan, bu bo'limda xonlik shaharlari haqida quyidagi tafsifni o'qishimiz mumkin: "Xonlikdagi barcha shaharlardan faqatgina Xiva va Yangi Urganch ko'proq aholi hamda ahamiyatiroq savdo faoliyati belgilari aloqalari nuqtayi nazaridan e'tiborga loyiq tom ma'noda shu nomga loyiq. ...Xivaliklar tarafidan qurilish uchun ishlataladigan materiallar: terakdan ishlangan ustunlar, qamish va loy, mustahkam bo'lishi uchun poxol aralashtirilgan. ...Urganchda do'konlar 320 ga yaqin; ularning bir qismi shaharda, Bozor Darvoza darvozasiga yaqin joyda, qolgan esa tashqi tarafda va uch qatorda. Mazkur joyda haftada ikki marotaba ya'ni chorshanba va yakshanba kuni bozor bo'ladi. Shahar aholisi erkak va ayollar arang 2000 ga yaqin jonni tashkil qilar, ular sart va ko'p sonli bo'limgan o'zbeklardan iborat. Badavlat xivalik savdogarlar asosan Xiva xonligining asosiy savdo va hunarmandchiligi jamlangan Yangi Urganchda joylashgan". Sakkizinch bo'limida suv va quruqlikdagi aloqa yo'llari, to'qqizinch bo'limida esa Xivaning sanoat tarmoqlari va qishloq xo'jaligi haqida so'z boradi. G.I. Danilevskiy xonlikning qishloq xo'jaligi haqida shunday ma'lumotni beradi: "Xivaning qishloq xo'jaligi g'allakorlik, bog'dorchilik, chorvachilik va ipakchilik bilan chegaralanadi. Xonlikda qolgan dehqonchilik sohalari mavjud emas". Asarning oeninch bo'limida G.I. Danilevskiy Xivaning ichki va tashqi savdosini haqida ma'lumot berib, Xivaning Qo'qon bilan Hirot va Mashhad singari to'g'ridan to'g'ri savdo aloqalari mavjud emasligi, garchi Eron karvonlari Marvdan o'tsa-da, Xiva xonligida hech qachon to'xtamay, to'g'ri Buxoroga yo'l olishini yozgan. O'n birinchi bo'limida Xiva xonligining boshqaruvi tizimi va so'nggi o'n ikkinchi qismida esa moliyasi haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. G.I. Danilevskiyning kitobi keng ko'lamli, o'lkashunoslik hamda umumgeografik ahamiyatga ega bo'lgan asarlardan biri sanaladi.

**N.V. Xanikov.** XIX asrning 40-yillarda muhim natijalar bergan K.F. Butenov ekspeditsiyasida (1841-1842) ishtirok etgan geograf N.V. Xanikov Buxoro amirligi, Qizilqum va Zarafshon vodiysi to'g'risida boy material to'pladi. Bu materiallar N.V. Xanikovning "Buxoro xonligi tavsifi" ("Описание Бухарского ханства") nomli ensiklopedik mazmunli yirik asarida ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilinib, umumlashtirildi. Asar 1843-yilda dastlab Sankt-Peterburgda nashr etilgan bo'lib, jami 229 sahifadan iborat. Nikolay Vladimirovich Xanikov (1822-1878) boshlang'ich ta'limni Sarskoseskiy litseyida ttamomlab (1837), Sankt-Peterburg universitetida 2 yil davomida ma'ruzalarda qatnashib yurgen. 1838-yilda Tashqi ishlar vazirligiga tarjimon sifatida ishga kirib, 1839-yilda

Orenburgga - harbiy gubernator huzurida o'ta muhim ishlar bo'yicha amaldor sifatida jo'natiladi. 1839—1840-yillarda Xiva ekspeditsiyasida, 1841—1842-yillarda muhandis K.F. Butenevning 8 o'y davom etgan Buxoro elchiligidagi ishtirok etgan. N.V. Xanikov 1845-yilda Kavkazorti o'lkasida arxeologik tadqiqotlar bo'yicha ishlab, 1858-yilda Afg'oniston va Xurosonga ekspeditsiya rahbari etib jo 'natilgan. 1866-yildan Parijda muqim yashab qolgan. Sankt-Peterburg universiteti unga Sharq tarixi bo'yicha doktorlik darajasini bergen. Rossiya Fanlar Akademiyasi uni muxbir-a'zolikka, qator ilmiy jamiyatlar (Parij, London, Italiya, Vengriya) esa faxriy a'zosi etib saylashgan. "Buxoro xonligi tavsifi" asarining birinchi qismida geografik, topografik, ma'lumotlar va mamlakat aholisi haqida dalillar keltirilgan. O'zbeklarning 97 ta urug'ining ro'yxati ilova qilinib (ulardan 28 tasi Buxoroda), yashash joylari ham ko'rsatilgan. "Xonlikning topografiyası" qismida Buxoro shahridagi jamoat binolari, saroylar, masjid va madrasalar, karvonsaroylar, hammomlar, bozorlar, qamoqxona haqida, Buxorodan Samarqandgacha bo'lган yo'llar, Samarqandning inshootlari va yodgorliklari, yana Samarqanddan Qarshiga eltuvchi yo'llar, Qarshining arki, madrasalari va masjidlarining tavsifi berilgan.

Buxorodagi karvonsaroylar haqida N.V. Xanikov shunday yozadi: "...Karvonsaroylarning tuzilishi, madrasalarning tuzilishiga o'xshab ketadi. Faqatgina farqi - pastida mutolaa uchun zal o'rniда ombor va mahsulotlarni sotish uchun rastalar o'rnatalgan. Buxoroda jami 38 ta karvonsaroylar bo'lib, ularning 24 tasi toshdan va 14 tasi yog'ochdan; bir nechta xususiy shaxslarga, ba'zilari davlatga qarashli va to'lov to'lashadi...". Kitobning keyingi bo'limida amirlidagi dehqonchilik, savdo va hunarmandchilik haqida, jumladan bog'dorchilik, tomorqa hamda donli ekinlar, sohaning mehnat qurollari, mahsulotlarning tannarxi, iehki savdo, Rossiya, Xiva, Mashhad, Kobul, Qo'qon, Toshkent, Koshg'ar, Yorkent bilan tashqi savdo aloqalari batafsil yoritilgan. N.V. Xanikov Buxoro amirligida tomorqa xo'jaligining taraqqiy etib, dehqonchilikda muhim o'rin egallashi haqida shunday yozadi: "...Tomorqalar bizdagidan bir necha bor farq qilib, aynan hecham jo'yaklar tortilmaydi, yerni sug'orish mumkin qadar bo'lganicha tekislاب va borona qilib, urug' sochishadi". Kitobning yettingchi bo'limida Buxoro amirligining ma'muriyati (said va xojalar, mullalar, harbiy, saroy va diniy amaldorlar) va ularning vazifalari atroflicha bayon etilgan. "...(Buxoro) xonligi eng namunali. Buxoroda o'rnatalgan tartib uncha ko'p bo'lmagan o'zgarishlari bilan Xiva, Qo'qon, Toshkent va hokazo joylarda qabul qilingan", deb yozadi muallif. Sakkizinch bo'lim "Xonlikda ta'lim" deb atalib, maktab va madrasalardagi ta'lim, ularning o'quv jarayoni, kitoblari, folbin, munajjimlar haqida sofiz boradi. Kitobning oxirida amir Nasrullohning hukmronlik tarixi haqida ma'lumot berilgan. Ilova qismida shaharlar va aholi manzillarining alisbo'ko'rsatkichi, Buxoro shahri va atroflarining plani va karta ham ilova qilingan. Mazkur asar hozirga qadar 0 'ta Osiyo tarixiy geografiyasiga oid ofz ahamiyatini yo'qotmagan yirik ilmiy-adabiy manbalardan biridir. N.V. Xanikovning 1841-yilning sentabrida Samarqandga tashrifsi asosida birmuncha keyinroq Parijda yozganlari 1868-yilning iyuni bilan qayd etilgan. Muallifning Samarqand tavsifiga bageishlangan bu ishining bazi

ma'lumotlari "Buxoro xonligi tafsifi" asaridan olingan bo'lib, qolganlari yangi materiallar asosida yozilgan. "Samarqand (Ko'zi bilan ko'rgan kishining hikoyasi)" ("Самарканд (Рассказ очевидца") sarlavhasi bilan Sankt-Peterburgdagi "Русский инвалид" (1868) jurnalida nashr etilgan.

O'zbekiston Markaziy davlat arxividagi liirkiston general-gubernatori jamg'armasida o'sha davrda Turkistonga kelgan xorijiy sayyoohlarning tashrifsi bilan bog'liq ko'pgina hujjatlar mavjud. Bu hujjatlarda sayyoohlarga ruxsat berish, ularga o'lka shaharlarida va yollarda hamrohlik qilishi kabi masalalar bilan bog'liq rasmiy hujjatlar saqlangan. Shuningdek, mahalliy ma'muriyat vakillariga sayyoohlarni qabul qilish haqida ko'rsatmalar ham saqlangan. Mazkur asarlarning katta qismi AQSH hamda Yevropa, xususan, Kembridj, Oksford va Germaniya kutubxonalarida saqlanadi. Yana bir Buyuk Britaniya fuqarosi, sayohatchi va zabit, Rossiya imperiyasining Geografiya jamiyatini a'zosi Frederik Gustavus Bernabi o'zining Londondan Kalkuttaga amalga oshirgan safari davomida Xiva shahrida o'tkazgan kunlari, Xiva xoni bilan uchrashuvi asosida 1875-yilda "A Ride to Khiva" "Travels and adventures in Central Asia" ("Xivaga tashrif. Markaziy Osiyoga sayohat va sarguzashtlar") asarini nashr qiladi. Asarda muallif Xiva xonligining soliq tizimi, bozorlari, hunarmandchiligi, qal'alarning o'lchamlari, poytaxt aholisi va ta'lim muassasalari haqida atroficha ma'lumot beradi. Bundan tashqari Frederik Gustavus Byornabi shimoldan Xiva xonligiga olib boradigan yo'llar, quduqlar haqida qiziqarli ma'lumotlarni ham keltirgan. AQSHning Rossiya imperiyasidagi elchisi, AQSH Geografik jamiyatini va Rossiya imperiyasi Geografik jamiyatini a'zosi Yujin Skayler (Yevgeniy Shuler) 1873-yilda Sankt Peterburgdan O'rta Osiyoga sayohati taassurotlari asosida 1976-yilda ikki jildli "Hirkistan" nomli asarini chop ettirdi. Asarda muallif o'z kechinmalari bilan birga, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, tabiiy va geografik sharoitlari haqida ma'lumotlar keltiradi. Bundan tashqari, muallif shaharlardagi hayot, bozorlar va savdo munosabatlarini ham qisman tasvirlaydi. Markaziy Osiyoga, keyinchalik Eronga, Hindi-Xitoy, Koreyaga, Afg'oniston va Pomirga safari, Amudaryoni tadqiq etish bo'yicha faoliyati uchun, Qirollik geografiya jamiyatining "Royal Geographical Society" oltin medali bilan taqdirlangan edi.

XIX—XX asr boshlarida Markaziy Osiyo mintaqasi fransuzzabon tadqiqotchilar tomonidan eng ko'p va tizimli ravishda o'rganilganligi bilan o'ziga xos ahamiyatga ega. Fransuz ilm va ma'rifat namoyandalari hamda sayyoohlarining aksariyat ko'pchiHgi esa mintaqaga shaxsan tashrif buyurib, bevosita ko'rgan va eshitganlari haqida yozib qoldirishgan. 1840-1917-yillarda Markaziy Osiyo mintaqasiga Fransiyadan jami 161 nafar turlicha yo'nalishlarda (elchilar, missionerlar, sayyoohlar, harbiylar, olimlar, geologlar) o'rganilib, bu ekspeditsiyalar ilmiy, harbiy, muhandislik, tijorat va turizmga oid bo'lgan maqsadlar asosida amalga oshirilgan. Mintaqaga tashrif buyurgan fransuz tadqiqotchilari sayohatchi, diplomat, muhandis, harbiy, geograf, havaskor-sayohatchi, antropolog, tarixchi kabi soha vakillari edilar. Markaziy Osiyo tushunchasi ham ilk marotaba tadqiqot natijalari

fransuz tilida nashr etilgan manbada, ya'ni Aleksandr fon Gumboldt (nemis olimi) (Alexander von Humboldt, 1769-1859) tomonidan Parijda 1843-yilda nashr etilgan "Central - Asien. Unteryuchungen veber die Gebiryzketten und die vergleichende klimatologie" nomli ("Markaziy Osiyo tog' tizmalarini tadqiq etish va iqlimini taqqoslash") uch jildlik asarida qo'llanilgan. Unda tadqiqotchi hududning sug'orish tizimi va tog' tizmalarini o'rganib, Markaziy Osiyonni mustaqil o'ziga xos mintaqasi sifatida ta'riflaydi. Kitobning dastlabki ikki jiddlari Markaziy Osiyodagi tog' tizmalarini va ularda aniqlangan yirik farqlarga bag'ishlangan, uchinchi jiddda esa yerning tortish kuchi va mintaqasi iqlimiga oid tadqiqotlar natijasi yoritilgan. Kitob asosan geografiq nuqtayi nazardan yozilgan bo'lib, unda gidrografik ma'lumotlar, tarixiy joy nomlari, toponimlar va ularning kelib chiqishi to'g'risida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Fransuz tadqiqotchisi Bonvalo Per Gabriel 1880-yilda Markaziy Osiyoga qilinadigan birinchi missiyaga javobgar shaxs edi. U Giyom Kapyu bilan birqalikda Samarqanddan Buxorogacha bo'lgan joylarni o'rganib tahlil qilgan. 1882-yil yana qaytib kelib, Zarafshon vohasida buzilgan shaharlarni o'rgana boshladи. Uning qilgan safar tafsilotlari "De Moscov en Bactriane" ("Moskvadan Baqtriyagacha") (1884) hamda "En Asie Centrale. Du Kohistan ala Cospienne" ("Markaziy Osiyoda Ko'histondan to Kaspiy dengizigacha") (1885) nomli ikki asarida jamlanib nashr etildi. Umuman olganda, sayyoohlardan tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasi haqida juda ko'p ma'lumotlar to'plangan edi. 1882-yil Buxoro amirligi va Xiva xonligiga safar uyuشتirgan tadqiqotchilar mintaqasi haqida bir olam taassurot va yangiliklar, madaniy kolleksiya namunalari bilan Fransiyaga jo'nab ketishdi. Shundan so'ng, ko'plab fransuz sayohatchi-tadqiqotchilar Markaziy Osiyonni yangidan kashf etish maqsadida ushbu mintaqaga tashrif buyurishdi. Kapyu Jan-Giyom - J. Kapyu G. Bonvalo bilan Volgadan to Permgacha, Ural, Sibirdan o'tib Balxashgacha borishdi. 1882-yil u Bonvalo va Pepin hamrohligida Turkistonga qaytdi. G. Bonvalo va J. Kapyu maqsadi Markaziy Osiyonni geografik mintaqasi sifatida etnik tarixi, flora va faunasini o'rganish edi. G. Bonvalo mintaqasi etnik tarixini, J. Kapyu esa tabiiy fanlarni o'rgandi. J. Kapyuning safar taassurotlari uning "A travers le Royaume de Tamerlan" ("Temur saltanati bo'ylab") (1892) nomli asarlarida o'z aksini topdi.

Mazkur davr tadqiqotchi-sayyoohlardan yana biri Eduard Blan (*Edouard Blanc, 1858-1923*) bo'lib, 1890-1892, 1894-1895-yillarda Markaziy Osiyoga ikki marotaba sayohat uyuشتirgan. E. Blan sayohatchi, geograf, tabiatshunos va temir yo'l qurilishi bo'yicha yirik mutaxassis edi. 1890-yildan boshlab Parij geograflari jamiyatiga a'zosи, shu yili Toshkentda o'tkazilgan ko'rgazmada mazkur tashkilot vakili sifatida ishtirok etgan. Shundan so'ng Turkiston general-gubernatorligi ma'muriyati tomonidan unga transkasbiy temir yo'llari qurilishini o'rganish va loyiҳalarini ishlab chiqishda qatnashish haqida taklif beriladi. Shu tarzda, keyingi o'n besh yil davomida ayrim uzilishlarni inobatga olmaganda E. Blan Rossiya imperiyasi va uning mustamlaka hududlarida tadqiqotlar olib boradi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida mintaqamizga tashrif buyurgan ushbu tadqiqotchilar haqiqatan ham Turkistonni Yevropa uchun yangidan ochib berishda katta

hissa qo'shdilar, garchi ular qoldirgan ma'lumotlarda ba'zi noaniqliklar uchrasa-da, fransuzlar tomonidan Markaziy Osiyo mintaqasini o'rganilishi tarixida sezilarli iz qoldirishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning har biri o'z uslubi va tadqiqot yofinalishiga ega bo'lib, Markaziy Osiyodagi turli yo'nalishlar va sohalar ularning tadqiqotlarida aks etgan. Ularning ayrimlari amirlarning g'aroyib haramlarini, afsonaviy boyliklarini ko'rish uchun kelgan bo'lsa (Sharqning ekzotik xususiyatlari), boshqalari ingliz rus raqobatini (geosiyosiy to'qnashuvlar) o'rgangan. Markaziy Osiyoda bir necha dinlar mavjud bo'lgan, sivilizatsiyalar kesishgan, jahonga mashhur sarkardalarning e'tiborini tortgan, o'rta asr madaniyatining o'chog'i sisatidagi tamaddun beshiklaridan biri ekanligini ko'rsatuvchi tadqiqotlar ham vujudga keldi.

XIX asr oxiri va XX asrning boshlarida Markaziy Osiyoga tashrif buyurgan sayohatchilar sonining ko'pligi va bu masalada tadqiqotlarning miqdorini inobatga olgan holda ularning ma'lumotlarini qiyosiy tahlil asosida o'rganish maqsadga muvofiqdir.

**"Turkiston to'plami"** ("Туркестанский сборник") - tarixiy xorijiy nashrlar jamlanmasi. **"Turkiston to'plami" ning yaratilish tarixi.** "Turkiston to'plami" ning to'liq nomi Turkiston o'lkasi va 0'rta Osiyoga tegishli bo'lgan maqola va asarlar to'plami" bolib, unga 1867-yilda Turkiston generalgubernatori

K.P. Kaufmanning shaxsiy topshirig'i bilan Rossiya imperiyasi boshqaruv apparatini Turkiston o'lkasi hayotiga oid turli xil ma'lumotlari bilan tanishtirib borish maqsadida tashkil etilgan. Unda asosan rus va xorijiy tillarda Markaziy Osiyo haqida Rossiya va xorijda chop etilgan nashrlar - gazeta, jurnal, kitoblardan parchalar o'ren olgan. 0'lkani o'rganish uchun bo'lgan ehtiyoj, undagi tabiiy, iqtisodiy salohiyat, boyliklarning joylashuvini o'rganish, metropoliya sanoati uchun zarur bo'lgan xomashyo manbalarini aniqlash va jamlash - ushbu to'plamning tashkil etilishiga asosiy sabab bo'ldi. Jami 594 jiddan iborat, bugungi kunda Alisher Navoiy nomidagi Milliy kutubxonasida saqlanayotgan "Turkiston to'plami" ning asosiy qismini, ya'ni 1-416-jiddlari K.P.Kaufman topshirig'i bilan V. Mejov boshchiligida tuzilgan. To'plam 1867—1887-yillarda Sankt-Peterburg shahrida tuzilgan. 1907-1910-yillarda tuzilgan 417-543-jiddlari, 1911-1916-yillarda tuzilgan 544-591-jiddlari Toshkentda nashr etilgan. "Turkiston to'plami" ning so'nggi 3 jildi (592-jiddan 594-jildgacha) kutubxonashunos Ye.K. Betger boshchiligida tuzilgan. 1876-yil "Maxsus qo'mita" tashkil etiladi va uning zimmasiga "Turkiston to'plami" ni tartibga solish vazifasi topshiriladi. 1907-yili kuzatuv tarkibiga I.V. Dmitrovskiy, etnograf A.A. Divayev, Turkiston kutubxonasi mudiri I. P. Zikov kiritilib, ular tomonidan 127 ta jild tuziladi. Bu vazifani amalga oshirishda N.V. Dmitrovskiyning xizmatlari katta edi. "Turkiston to'plami" ni yaratish jarayonida gazeta maqolalari qirqib olinib, oq qog'ozlarga yelimlangan, jurnal va kitoblar davriy izchillikda tikib borilgan. Jurnal maqolalarining soni 10 000 dan ortiq bo'tgan. N.V. Dmitrovskiy boshchiligida tuzilgan "Turkiston to'plami" ning 417-543-jiddlari V. Mejov tuzgan jiddlardan ancha katta farq qilgan. 127 jiddan 81 tasi (64%) gazeta materiallari asosida (bularning ichidan 4 tasi o'zbek va tatar tillarida) tuzilgan. To'plam 1887-yilgacha muntazam tuzilgan va yiliga 20

tadan jild tayyorlangan. 1887-yildan ma'muriyat buyrug'i bilan bu ish 20 yil to'xtab qolgan.

#### **"Turkiston to'plami"ning tarkibiy tuzilishi va mazmuni.**

"Turkiston to'plami"ni yaratish jarayonida 546-jilddan boshlab alohida mavzular bo'yicha tashkil etila boshlangan. To'plamning 546-590-jildlari quyidagi tartibda yo'nalishlarga ajratilgan:

- tarix va arxeologiya - 546-548, 570, 588-589, 591-jildlar;
- memuarlar — 559-jild;
- etnografiya - 555, 566-569, 584, 589-jildlar;
- tilshunoslik — 556—557, 587-jildlar;
- geografiya - 554, 572-573, 575, 582-583, 585-jildlar;
- geologiya - 552-553, 562, 571-jildlar;
- 0'simlik dunyosi — 551, 560, 579-jildlar;
- suvdan foydalanish — 549-550-jildlar;
- yerdan foydalanish va kanalizatsiya - 565, 576-578, 586-jildlar;
- qishloq xo'jaligi — 561, 564, 574-jildlar;
- shaharlar hayoti 590-jild.

To'plamning 566-569-jildlari A.A. Divayev asarlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 59 ta etnografik nashrlari o'rin olgan. 556“ 557 va 587-jildlarda Markaziy Osiyo xalqlari tilshunoslik masalalariga bag'ishlangan 15 ta asar joylashgan. 576-578 va 580-jildlarda Turkistonda yerdan foydalanish masalalari bilan bog'liq ma'lumotlar jamlangan.

## QISQACHA IZOHLI LUG'AT

**"Annallar"** maktabi yoki "**Yangi tarix fani**" - XX asr Fransiya tarix fanidagi yo'nalish bo'lib, ijtimoiy fanlarda no'nanaviy tadqiqot usullarini taklif qilgan.

Abstraktlik-mavhumlik, fikrning mavhumligi.

**Abstraktlikdan konkretlikka o'tish-tafakkurning asosiy usullaridan** biri. Abstraktlik deganda bir tomonlama, to'liq bo'Imagan, predmetning assiy mohiyatini ochib bermaydigan bilim tushunilsa, konkretlik esa ikki xil ma'noda ishlataladi: 1) voqelik, turli xususiyatlarga ega bo'lgan ob'ektlar; 2) ob'ekt haqida ko'p qirrali, har tomonlama tizimli bilish.

**Apolodetika**-tarixiy voqealarning va jarayonlarning barchasi oldindan belgilangan va ma'lum qonuniyatlariga asoslangan holda sodir bo'ladi, degan teologik tushuncha, tanlangan uslublarning qanday falsafiy maktablar va yo'nalishlarga mansubligini e'tiborga olmagan holda tarixiy tadqiqot uslublarini tanlab olish.

**Arxiv**: Hujjatlar va yozuvlar to'plami. Arxivlar katta bo'lishi mumkin va yillar etarli darajada usta (yoki ba'zi muzeylar uchun, hatto undan ko'p) uchun kerak bo'ladi va ular faqat kichik, lekin ataylab materiallar guruhlari bo'lishi mumkin. Ular avvalgi avlod tarixchilarining uylari, ammo borgan sari onlayn ravishda boradi. **Мур**

